

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TALIM
VAZIRLIGI**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

«TARIX VA ARXELOGIYA» KAFEDRASI

«*IBTIDOIY JAMOA TARIXI*»

Ma'ruza matnlari

Tuzgan:

ass. Seytimbetova Nargiza

NUKUS -2011 YIL

Mavzu: Kirish. Ibtidoiy jamoa tarixi fani va uni o'rganish metodologiyasi

Ajratilgan soat: 2

Mashg'ulot turi: ma'ruza

Asosiy savollar:

1. Ibtidoiy jamoa tarixi fani, uning predmeti va vazifalari
2. Ibtidoiy jamoa tarixi davrlashtirishi va xronologiyasi

Tayanch iboralar:

Ibtidoiy jamoa tarixi fani, ibtidoiy jamoa tuzumi, "ibtidoiy jamoa" tushunchasi, davrlashtirish, oykumena, xronologik chegaralar, tarixiy davrlar, Arxeologik davrlar, inson evolyutsiya qilishi bosqichlari, absolyut yoshi

MAQSAD:

Ibtidoiy jamoa tarixi fani predmetini ochib berish, o'rganish ahamiyatini ochib berish, ibtidoiy jamoa tarixi davrlashtirgan olimlar nuqtai nazarlarini sharhlab berish, Ibtidoiy jamoa tarixi davrlashtirishni tushuntirish va xronologiyasini ko'rsatish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

Ibtidoiy jamoa tarixi fani predmeti va o'rganish ahamiyatini biladi.

Ibtidoiy jamoa tushunchasini tushunadi.

Ibtidoiy jamoa tarixini davrlashtirgan olimlar nuqtai nazarlarini qiyoslaydi.

Ibtidoiy jamoa tuzumini davrlashtiradi

Ibtidoiy jamoa rivojlanish bosqichlarining xronologiyasini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ilgari XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan ko'plab adabiyotlarda insoniyat tarixi bir-birini birin-ketin almashib o'tgan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga bo'linib ko'rsatilardi. Ulardan birinchisi ibtidoiy jamoa tuzumi formatsiyasi bo'lgan. Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganish predmetini aynan shu insonning Er yuzida paydo bo'lishidan boshlab to sinfiy jamiyat va davlatlar paydo bo'lishigacha bulgan davrni uz ichiga olgan bosqich tashkil etadi.

Ibtidoiy jamoa tarixi insonning paydo bo'lishi, uning xo'jalik va ijtimoiy faoliyatining kurtaklarini vujudga kelishi va dastlabki rivoj topishi, insonning moddiy va ma'naviy madaniyatining vujudga kelishini o'rganadi. Ibtidoiy jamoa tarixining asosiy va muhim vazifasi bo'lib, ibtidoiy jamoa tuzumining

xususiyatlarini, uning shakllanish qonuniyatlarini, gullab-yashnagan davri va parchalanishini, sinfiy jamiyatga o'tishdagi shart-sharoitlarini o'rganish xizmat qiladi. Ibtidoiy jamoa tuzumi uchun ishlab chiqaruvchi kuchlarning juda past rivojlanish darajasi xos bo'lgan. Deyarli butun davr mobaynida ishlab chiqarish va ov qurollarini tayyorlashda asosiy ashyo - tosh bo'lgan. Toshdan faqat eng oddiy mehnat qurollarini katta mashaqqat evaziga tayyorlash mumkin edi. Ibtidoiy odamlarning mehnat ko'nikmalari ham oddiy bo'lgan. Ibtidoiy odam yakka o'zi tabiat oldida himoyasiz bo'lgan. Bu esa albatta ibtidoiy odamlarni to'da-to'da bo'lib yurishga, birgalikda mehnat qilishga va mehnat qurollaridan birgalikda foydalanishga hamda mahsulotlarni birgalikda tanovul qilishlariga sabab bo'lgan. Ibtidoiy jamoa shaxsiy egalikni bilmagan, xalqdan ajralgan hukmron hokimiyatni ham bilmagan.

Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganish ahamiyati shundaki, uning yordamida shaxsiy egalikning paydo bo'lishini, ijtimoiy tengsizlik va davlat hokimiyatini vujudga kelishini tushunishga yordam beradi. Ibtidoiy jamoa tarixini bilish xalqlar va elatlar paydo bo'lish jarayonlarini o'rganishga, taraqqiyoti jihatidan orqada qolib ketgan qabilalarni o'rganishda, ibtidoiy jamoa ukladlarini namoyon etuvchi qabilalar hayotini, turmush tarzini o'rganishda yordam beradi. Er yuzida shunday qabila va xalqlar borki, ularda hanuz ham ibtidoiy jamoa qoldiqlari yoki ibtidoiy jamoaning parchalanish bosqichida turgan ko'rinishlari mavjud. Ularni o'rganish, etnografik jihatdan tahlil etish ularni turmush tarzleri va ijtimoiy tuzumlarini tushunish ham ko'pincha ibtidoiy jamoa tarixini bilish bilan bog'liqdir.

"Ibtidoiy jamoa tarixi" tushunchasi tarixchilar o'rtasida bahslarga sabab bo'lmoqda. Bir guruh tarixchilar agarda dastlabki insoniyat hqiqatan ham ibtidoiy bo'lgan bo'lsa', davrning oxiriga kelib u bu holatdan chiqishi kerak. Boshqa bir gurux tarixchilar esa, ibtidoiy tarix o'zining barcha bosqichlarida dastlabki, boshlang'ich, undan keyin kelgan tarixiy davrlarga nisbatan ibtidoiydir demoqda. G'arbiy fanda esa "tarixdan oldin" tushunchasi keng yoyilgan. Bu tushuncha mazkur bo'limni yagona tarixiy fanning boshqa bo'limlaridan ajratib, tarixdan oldingi davrni tarixga qarshi qo'yadi. Biroq, shunday bo'lsada, tarixchilar ikkala termindan ham foydalanishadi.

Ibtidoiy jamoa davri insoniyat tarixida eng uzoq davom etgan davr bo'lgan. Uning eng pastki qirrasi bir yarim million yil avvaldan kam bo'lmagan vaqt bilan o'lchanadi. Ayrim olimlar esa bundan ham ilgari deb o'lchaydi. Bu qirrani aniq topish qiyin va bu datirovka tez- tez o'zgarib turadi. Chunki yangidan yangi suyak qoldiqlari topilishi bilan, mutaxassislarning ko'pchiligi ularni tekshirib va o'rganib chiqib, ularda yo odamdan oldin bo'lgan maxluqlarni, yo odamni ko'radilar. Ibtidoiy jamoa davrining yuqori qirrasi

so'nggi 5 ming yil orasida deb belgilanadi. Osiyo va Afrikada birinchi tsivilizatsiyalar miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklarda vujudga kelgan bo'lsa, oykumenaning (grekcha: oykumen- er yuzining inson tomonidan o'zlashtirilgan qismi) boshqa hududlarida kechroq, masalan, Evropada - miloddan avvalgi 1 ming yillikda, Amerikada - milodiy 1 ming yillikda paydo bo'ladi.

Ibtidoiy jamoa tarixini davrlashtirish hali oxirigacha o'z echimini topmagan ilmiy muammo bo'lib turmoqda. Bu umumiy (tarixiy) davrlashtirishga ham, maxsus - arxeologik, antropologik va boshqa davrlashtirishlarga ham taalluqlidir.

Ibtidoiy jamoa tarixining umumiy davrlashtirishi dastlab 1870 yilda buyuk amerikalik etnograf Lyuis Genri Morgan tomonidan tuzilgan. XVSH asrda mavjud bo'lgan tarixiy jarayonni yovvoyilik, varvarlik va tsivilizatsiya zamonalariga bo'linishidan foydalangan holda hamda asosan ishlab chiqaruvchi (hayot uchun muhim bo'lgan vositalarning ishlab chiqilishi) kuchlarning taraqqiyot darajasida asoslangan holda, u yovvoyilik va varvarlik zamonalarini pastki, o'rta va yuqori bosqichlarga ajratdi. Evvoyilikning pastki bosqichi odamning paydo bo'lishidan va nutqning paydo bo'lishidan boshlanadi, o'rta bosqich baliqchilikning paydo bo'lishi va olovdan foydalanishdan boshlanadi, yuqori bosqich o'q-yoyning kashf etilishidan boshlanadi. Varvarlikning pastki bosqichiga o'tish kulolchilikning yoyilishi bilan boshlanadi, dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi varvarlikning o'rta bosqichida bo'ladi, temirni o'zlashtirish bilan esa varvarlikning yuqori bosqichi boshlanadi. Yozuvning-alfavitning paydo bo'lishi bilanoq tsivilizatsiya zamonasi boshlanadi.

F.Engels ushbu Morgan davrlashtirishiga yuqori baho berib, uni umumlashtirib, yovvoyilik zamonasini - tabiatdan oluvchi, varvarlik zamonasini esa - ishlab chiqaruvchi xo'jalik deb belgilaydi. O'zining "Oila, shaxsiy mulk va davlatning paydo bo'lishi" (Marks K., Engels F. Soch. t.20.-s. 486-499) va boshqa asarlarida Engels ibtidoiy jamoa tarixining dastlabki bosqichini ibtidoiy to'da davri deb belgilaydi.

YAngi davrlashtirish 1940 yillarda Tolstov S.P. tomonidan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi darajasiga asoslangan holda ishlab chiqilgan. Unda ibtidoiy tarixning uchta asosiy bosqichi: 1) ibtidoiy odamlar to'dasi (ibtidoiy jamiyatning shakllanishi, qurollardan foydalanishdan boshlanadi), 2) ibtidoiy jamoa (ibtidoiy jamiyatning gullab-yashnashi, qurollarni ishlab chiqarish uchun qurollardan foydalanishdan boshlanadi) va 3)harbiy demokratiya (ibtidoiy jamiyatning sinfiy jamiyatga aylanishi, metallni o'zlashtirishdan boshlanadi) ajratib ko'rsatilgan. Biroq, mazkur ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishi darajasiga asoslangan davrlashtirish ham ayrim

nazariy qiyinchiliklarga duch keldi. Negaki, Mesoamerika tsivilizatsiyalarining tuzuvchilari ham metallardan ishlab chiqarishda foydalanish mumkinligini bilmaganlar, qadimgi germanlar yoki Tropik Afrikaning ayrim qabilalari esa urug'chilik tuzumining parchalanishi davrida turgan bo'lsalar hamki, temirni eritishni o'zlashtirganlar. SHuning uchun davrlashtirishda monistik (yagona) tamoyildan voz kechmoq kerak edi.

1950-yillarda butun tarixiy jarayonni formatsiyalarga bo'lish asoslarini ibtidoiy tarixni davrlashtirish mezonlari sifatida olish to'g'ri bo'ladi degan taklif kiritildi. Bunda davrlashtirish ishlab chiqarish usullari va ishlab chiqarish munosabatlari formalari o'rtasida bo'lgan xilma-xilliklar hisobga olinishi kerak edi (Pershits A.I.). SHu bilan birga ishlab chiqarish vositalariga ibtidoiy mulkchilik formalarining rivojlanishi ham kuzatilib, ibtidoiy odamlar to'dasi bosqichidan tashqari ibtidoiy urug'chilik jamoa va ibtidoiy ko'shnichilik jamoa bosqichlarini ajratadilar. YU.I.Semyonov, N.A.Butinov va boshqa sovet tarixchilari butun tizim yoki ishlab chiqarish munosabatlarining ba'zi bir tomonlarini nazarga olgan holda davrlashtirgan bo'lsalar, Germaniya olimlari (I.Zelnov va boshqalar) - umuman ishlab chiqarish usullarini nazarga olganlar Biroq mazkur davrlashtirishlar ham tanqid qilinib kelindi.

Faqatgina 1970-yillar o'rtasida ibtidoiy davr iqtisodiyotini chuqur o'rganish natijasida ibtidoiy jamoa rivojlanishining asosiy bosqichlarida taqsimlash va mulkchilik munosabatlaridagi asosiy farqlarni aniqlash mumkin bo'ldi (Semyonov YU.I.). Ilk ibtidoiy jamoa tabiatdan in'omlarni olib xo'jaligini yurituvchi bo'lib, va asosan hayot kechirish uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni oluvchi bo'lib, unda teng taqsimlash va umumiy mulkchilik hukmron edi; jamoaning har bir a'zosi topib kelingan mahsulotning bir qismiga, bu mahsulotni topishda qatnashgan-qatnashmaganligidan qat'i nazar, xaqli edi. Kechki ibtidoiy jamoa ishlab chiqaruvchi yoki yuqori spetsializatsiyalashgan oluvchi xo'jalikka o'tgan bo'lib, ortiqcha mahsulotga ega bo'lib qola boshladi. Unda teng taqsimlash bilan birga mahsulotning ma'lum bir qismi jamoaning alohida a'zolari ehtiyojlarini qondirish uchun ajratila boshladi, mehnat taqsimlanishi rivojlana boshladi, va natijada umumiy mulkchilik bilan shaxsiy mulkchilik rivojlana boshladi. Nazariy tahlil asosida ibtidoiy jamoadan oldin bo'lgan hayot tarzini jamoadan oldingi deb, ibtidoiy jamoani almashtirgan formasini - ibtidoiy qo'shnichilik yoki protodehqon jamoasi deb belgilashga asos soldi. Umuman olganda esa, ibtidoiy mulkchilikning kategoriyalardan faqat bittasi oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlash tahlil qilingan edi, xolos. Bundan kelib chiqqan holda jamoadan oldingi (ibtidoiy odamlar to'dasi) - ilk ibtidoiy va kechki ibtidoiy (ilk urug'chilik va kechki urug'chilik) - protodehqon (ibtidoiy qo'shnichilik) jamoalari

kabi tipologik qator tuzildi va bu qator ibtidoiy davr tarixining asosiy bosqichlariga tug'ri keladi deb belgilandi. Biroq bosqichlarning soni tarix fanida hanuzgacha muammoli masala bo'lib kelmoqda.

G'arb olimlari orasida egalitar (frants. egalitaige – teng huquqli), ranjirlangan (angl. Rank -rang), stratifikatsiyalashgan (lat. stratum - qatlam) (M.X.Frid va boshqalar) yoki egalitar va stratifikatsiyalashgan (yoki ierarxiya) R.M.Adams, E.R.Servis va boshqalar) kabi jamiyatlar ajratiladi. Egalitar jamiyatlar tabiatdan oluvchi (o'ziga olib qoluvchi) xo'jalik va faqat gorizontal taqsimot (ya'ni bir ijtimoiy statusda bo'lgan odamlar orasida) bilan xarakterlanadi. Ranjirlangan, stratifikatsiyalashgan va ierarxiya jamiyatlari esa - ishlab chiqaruvchi xo'jalik va ham gorizontal, ham vertikal taqsimot ya'ni ijtimoiy statusi teng bo'lmagan odamlar orasida\ bilan xarakterlanadi. Ranjirlangan va stratifikatsiyalashgan jamiyatlarni ajratuvchilar birinchilarda faqat ijtimoiy. ikkinchilarda ijtimoiy bilan birga mulkchilik notenglik mavjud bo'lgan deyishadi.

Maxsus davrlashtirishlardan ayniqsa arxeologik davrlashtirish muhim bo'lib, u mehnat qurollari tayyorlashda qo'llaniladigan ashyo va bu qurollarni tayyorlash texnikasida asoslangan. Bu insoniyat tarixini uch asrga - tosh asri, bronza asri va temir asriga bo'lishdir. Tosh asri qadimgi tosh asri, yoki paleolit (grek. Ralaios- qadimgi, Litos - tosh) va yangi tosh asri , yoki neolit (grek.neos- yangi) ga bo'linadi. Paleolit va neolit o'rtasida o'tish davri - mezolit (grek. Mezos- o'rta), ya'ni o'rta tosh asrini ajratadilar. Paleolit o'z navbatida ilk (pastki, qadimgi) paleolit - taxminan 1,5- 1 mln yil ilgari, va kechki (yuqori) paleolit - 40-12 ming yil ilgariga bo'linadi. Ayrim hollarda o'rta paleolitni ham alohida davr sifatida ko'rsatishadi (100-40 ming yil ilgari). Mezolit taxminan mil. avvalgi 12-6 ming yilliklar bilan sanaladi. Turli hududlarda madaniyat taraqqiyotining notekis o'tishi kechki paleolitdan boshlanib, neolit davrida yanada keskinlashadi. Turli qabilalar neolit davrini turli zamonlarda o'tishgan. Evropa va Osiyoning neolit yodgorliklarining katta qismi miloddan avvalgi 8-5 ming yilliklar bilan o'lchanadi. Neolit davrining tugashi, ya'ni misdan yasalgan qurollarning paydo bo'lishiga tug'ri kelib, u eneolit deb ataladi (lat.aeneus- mis). Ilgari olimlar xalkolit degan tushunchani ham qo'llaganlar(grek. shalkos - mis) Biroq bugungi kunda bu tushuncha deyarli ishlatilmaydi.

Bronza asrining taxminiy xronologik chegaralari - miloddan avvalgi 3 ming yillik oxiri- miloddan avvalgi 1 ming yillik boshlaridir. Miloddan avvalgi 1 ming yillik boshlarida temir asri boshlanadi. Yangi tosh, bronza va temir asrlarining ichki davrlashtirish sxemalari turli qit'a va mintaqalarga nisbatan hamda turli tadqiqotchilarda bir biridan farq qiladi. Arxeologik

davrlashtirish texnologik mezonlarda asoslangan bo'lib, umumiy holda ishlab chiqarish taraqqiyoti to'g'risida tasavvur hosil qilmasa ham, uning tuzilishi yirik ilmiy yutuq bo'lgan. Bu davrlashtirish mehnat qurollarining rivojlanishi haqida va ma'lum jihatda ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi haqida tushuncha hosil qilishga yordam berdi. Arxeologik davrlarni xronologiyasini aniqlash uchun tabiiy fanlarning turli usullari absolyut datirovka o'tqazishda yordam beradi: izotopli kaliy-argon va radiokarbon (radioaktiv elementlarning parchalanishi vaqti bo'yicha), geoxronologik (tuproq qatlamlarining yillik qalinligi bo'yicha) va boshqalar. Nisbiy datirovka o'tqazish uchun madaniy qatlamlarni yoki arxeologik tiplarni solishtirish yuli bilan yoki ularni tabiiy muhitdagi o'zgarishlar bilan solishtirish yo'li bilan aniqlanadi: geologik bosqichlar, paleontologik davrlar va hk.

Arxeologik davrlarni Er shari tarixining geologik bosqichlari bilan sinxronlashtirish ayniqsa katta ahamiyatga ega. Insonning mavjud bo'lishi vaqtiga chorakcha bosqich to'g'ri keladi. Uni ikkita davrga bo'lishadi: 1) muzlikdan oldingi va muzlik paytidagi **pleystotsen** deb ataladi; 2) muzlikdan keyingi **golotsen** deb ataladi. Pleystotsen davomida SHimoliy Evropa, Osiyo va SHimoliy Amerikaning katta qismi muzlash jarayoniga tushgan. Muzlikning hujum qilishi va cheklanishi jihatidan to'rtta muzlik va uchta muzlik orasidagi davrlar ajratiladi. Muzlikning hujum qilishi davrlarini ko'rsatish uchun gyunts, mindel, riss, vyurm kabi terminlarni ishlatishadi. Bu terminlar muzlik va muzlik orasidagi qatlamlar ayniqsa aniq kuzatilgan to'rtta Alpdagi daryo nomlari bilan atalgan. Gyunts va mindel muzliklari quyi pleystotsenga, riss muzligi muzlik orasi va muzlik bo'lib - o'rta pleystotsenga, va vyurm muzlik orasi va muzlik - yuqori pleystotsenga qaratiladi. Arxeologik davrlashtirishda pleystotsen paleolit va mezolit (qisman yoki to'liq) davrlariga to'g'ri keladi. Neolit esa muzlikdan keyingi davr bo'lgan golotsenga to'g'ri keladi.

SHu bilan birga arxeologik davrlashtirish ham ayrim kamchiliklarga ega. Arxeologik tadqiqot ishlarining natijasida shu narsa aniqlandiki, turli qit'a, hududlarda o'z mintaqaviy davrlashtirishi bo'lishi mumkin. Negaki, tabiiy muhitning turli bo'lgani uchun o'z taraqqiyoti jihatidan bir ko'rinishda bo'lgan jamiyatlar temirdan, bronzadan foydalanishi yoki foydalanmasligi mumkin. SHuning uchun arxeologik davrlashtirishlar muammoli bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, arxeologik davrlashtirishlar global davrlashtirishdan mintaqaviy davrlashtirishga aylanib bormokda.

YAna bir davrlashtirish antropologik davrlashtirish bo'lib, u insonning fizik evolyutsiyasi mezonlarida asoslangan. Unda eng qadimgi, qadimgi va qazilma zamonaviy odam, ya'ni arxantrop, paleantrop aql idrokli odam yashagan davrlari ajratiladi.

Gominid (lat. Noto - odam) , ya'ni odamsifat oilasi va gominin , ya'ni unga taalluqli odamlar oilasi, ularning urug' va ko'rinishlarining sistematsiyasi turli tadqiqotchilarda turlichadir. G'arbda ibtidoiy tarix ko'pincha arxeologik jihatdan o'rganiladigan tarixdan oldingi, va ham arxeologik, ham yozma manbalar yordamida o'rganiladigan proto-, para- yoki etnotarixga (grekcha protos - birinchi, para - oldidagi, etnos - xalq) bo'linadi. YA'ni ularning nuqtai nazaridan ibtidoiy tarixda dastlabki tsivilizatsiyalar paydo bo'lishidan oldin ham Er yuzida jamiyatlar yashab o'tgan hamda bu va so'nggi tsivilizatsiyalar periferiyalarida rivojlangan jamiyatlar ham bo'lgan. Ular bitta formatsiyaga taalluqli bo'lib, bu formatsiyaning ajralishi mezoni bo'lib ishlab chiqarish usuli xizmat qiladi. SHuning uchun bu jamiyatlar apopolitey va sinpolitey deb ataladi (grekcha rolitea tsivilizatsiya, aro - oldingi, sun- birgalikdagi).SHunday qilib, barcha qarashlarni hisobga olgan holda biz quyidagi davrlashtirishlarni ajratib, asosiy bosqichlarni taxminiy datirovka qilishimiz mumkin: (jadvalga qarang).

Jamodan oldingi yoki ibtidoiy odamlar to'dasi davri maqsadli qurol yordamidagi faoliyatning paydo bo'lishi bilan ochiladi, shuning uchun u eng qadimgi odamlar - arxantroplarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanib, ular dastlabki, hali juda sust birlashgan ishlab chiqaruvchi jamoatlarni tashkil qila boshlaydi.

Bu davrning asosiy mazmuni shundaki, mehnat faoliyati natijasida odamsifat maymunlar va odamsifat maxluqlar to'dasidan meros qolgan hayvon holati qoldiqlaridan xalos bo'ladi, ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadi va odamning biologik rivojlanishi yakuniga etadi. Jamodan oldingi davrning quyi chegarasi va yuqori chegarasi fanda bahsli qolmokda.

Ibtidoiy yoki urug'chilik jamoasi davri birinchi mustahkam bo'lgan ijtimoiy tashkilotlar - urug' va urug'chilik jamoasining paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Aynan ushbu davrda ishlab chiqarish va iste'mol qilishda jamoatchilik, umumiy mulkchilik va teng taqsimlash kabi xususiyatlar kuzatiladi.

Ibtidoiy qo'shnichilik yoki protodehqon jamoasi davri toshni metall bilan almashinuvi bilan paydo bo'ladi va har tomonlama xo'jalik faoliyatning rivoj topishi, ortiqcha mahsulotning o'sishi, yig'ilgan boylik uchun bosqinchilik urushlarining yoyilishi bilan tavsiflanadi. Teng taqsimot mehnat taqsimoti bilan almashadi, umumiy mulkchilik o'rniga alohida uy xo'jaliklarining alohida mulkchilik shakli bilan almashinadi, urug'chilik aloqalari uziladi va ular qo'shnichilik aloqalariga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Ekspluatatsiya qilishning ilk formalari paydo bo'ladi va shu bilan shaxsiy mulkchilik , foyda keltiruvchi mahsulot paydo bo'ladi, natijada esa sinflar va davlatlar vujudga kela

boshlaydi. Ibtidoiy qo'shnichilik jamoaning quyi chegarasi so'nggi neolit(rivojlangan jamiyatlarda) va ayrim hollarda metallar davriga (kam rivojlangan jamiyatlarda) to'g'ri keladi. Bu davr rivojlangan jamiyatlar tomonidan 5 ming yil ilgari o'tib bo'lingan, rivojlanmagan jamiyatlar tomonidan esa hanuz ham o'tilmagan (masalan Afrikadagi ayrim qabilalar, Polineziya orollaridagi qabilalarda va hk).

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

Ibtidoiy jamoa tarixi predmeti va ahamiyatini ochib bering.

Ibtidoiy jamoa tuzumining tarixiy davrlarini ko'rsating.

A) ibtidoiy to'da, ibtidoiy urug' jamoasi, ibtidoiy qo'shnichilik jamoasi

V) ilk urug' jamoasi, so'nggi urug' jamoasi

S) ibtidoiy to'da matriarxat patriarxat

D) ibtidoiy jamoa, protodehqon jamoasi

E) ibtidoiy to'da, protodehqon jamoasi

3. Arxeologik davrlarni tartibli joylashtiring:

A) Eneolit

V) Paleolit

S) Mezolit

D) Neolit

E) Ilk temir

Javoblar: 1) V, S, D, A, E 2) V, D, A, S,E 3) S, D, E, A, V

DA,V,S

S,A,E,D,V

4. Inson evolyutsiyasi bosqichlarini to'g'ri ko'rsating:

A. Ibtidoiy to'da :

V. Ibtidoiy jamoa:

5. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixiy davrlarining yoshini aniqlang

1) ibtidoiy to'da

A. 1500-1000 ming y. - 100-40 ming y.

V. 1000-500 ming y. - 100-20 ming y.

S. 500-300 ming y.- 50-30 ming y.

2) ibtidoiy jamoa

A. 500-300 ming y.-100-20 ming y.

V. 100-40 ming y.- 10-5 ming y.

S. 50-30 mingy. - 10-5 ming y.

Adabiyotlar:

1. Alekseev V.P., Pershits A.I. İstoriya pervobitnogo obshestva. M. Vısshaya shkola, 1990.
2. Kosven O.M. İbtidoiy madaniyat tarixi ocherklari. T. %zbekiston., 1960.
3. İstoriya pervobitnogo obshestva. Obshie voprosı. Problemi antroposotsiogeneza. M., Vısshaya shkola., 1983.

Mavzu: İbtidoiy jamoa tarixi tarixshunosligi

Ajratilgan soat: 4

Mashg'ulot turi: ma'ruza

Asosiy savollar:

1. İbtidoiy davr to'g'risidagi qadimgi va o'rta asrlar tasavvurlar
2. İbtidoiy jamoa tarixi fanining tashkil topishi
3. İbtidoiy jamoa tarixi fanining rivojlanish boskichlari

MAQSAD:

İbtidoiy davr to'g'risidagi qadimgi va o'rta asrlar tasavvurlarini sharxlab berish, etnografik ma'lumotlarning yig'ilishi haqida tushuncha berish, ibtidoiy jamoa tarixi fanining tashkil topishini yoritish, ibtidoiy jamoa tarixi fanining rivojlanish boskichlarini ochib berish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

- 2.1. İbtidoiy jamoa tarixi tarixshunosligi ma'lumotlariga ega bo'lish.
- 2.2. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida ibtidoiy xalqlar haqida ma'lumotlarning ortishiga hissa qo'shgan sayyohlarni biladi.

İbtidoiy jamoa tarixi tarix fanining birmuncha yosh sohasi bo'lib, o'tgan asrning ikkinchi yarmida vujudga keladi. Biroq bundan oldin ham odamlar insoniyatning dastlabki tarixi davrlari haqida tasavvur hosil qilishga intilganlar. O'z o'tmishiga qiziqish odamlarda taraqqiyot bosqichlarining ilk davrlarida paydo bo'lgan. Etnograflar tomonidan o'rganilgan eng qoloq xalqlarda ham ularning uzoq o'tmishi, ajdodlarining ishlari va jasoratlari, urug' va qabilalarning paydo bo'lishi to'g'risidagi og'zaki rivoyatlar shundan dalolat beradi (genealogik va etnogenik dostonlar). Uzoq qadim zamonlarga borib qo'shnilar hayot tarzini o'rganish, ular qaerdan chiqqanligini bilish, ular o'tmishiga nazar tashlash kabi kuzatuvlar ham tarqaladi.

Keyinchalik odamlarning eng qadimgi ko'rinishi haqidagi ibtidoiy rivoyatlar "yarim hayvon o'tmish" to'g'risida yoki aksincha "oltin asr" tug'risidagi miflarga aylana bordi. Antik grek va rimliklarda paydo bo'lgan ibtidoiy tarix kurtaklari ham butunlay mifologiyadan voz kechmagan holda aks ettirilgan. Aynan grek va rimliklarda dastlabki tarixiy faktlarni sistematik tarzda bayon qilish qo'llaniladi. Antik davr tarixchilari uchun tsivilizatsiya dunyosi O'rta Er dengizi bilan chegaralangan edi, uning ortida esa ular varvarlar deb nomlagan xalqlar yashagan bepoyon hududlar mavjud bo'lgan. Bu xalqlarning ko'pida ibtidoiy tuzum saqlanib kelgan deb uylangan. Varvarlar dunyosi antik mualliflarga yaxshi tanish bo'lmagan, sayyohlar u erlarga qisqa vaqt ichida borib kelib, asosan yuqori kuzatishlar olib borib, ko'p narsalarni qo'shib, vahima qilib gapirib berardilar. Biroq, shunday bo'lsada, aynan antik davrda ibtidoiy xalqlar haqida dastlabki yozma ma'lumotlar paydo bo'ladi, qimmatli kuzatuvlar qilinadi va ular keyinchalik ibtidoiy davr to'g'risidagi tasavvurlarni umumlashtirishga yordam beradi. SHu tariqa, Gerodotning (mil.avv. 484-425 yy) skiflar, pigmeylar va boshqa ko'plab xalq va qabilalar haqida ma'lumotlari, Ksenofontning (mil. avv. 430-350 yy.) Kichik Osiyo xalqlari haqidagi ma'lumotlari, Strabonning (mil.av. taxm. 63 y.- milodiy 20 y) Evropa va Osiyo xalqlari to'g'risidagi ma'lumotlari, TSezarning (mil.avv. 100-44 yy) germanlar haqidagi, Tatsitning (milodiy 55-120 yy) germanlar haqida ma'lumotlari va boshqalar qimmatlidir. Gerodot va Strabonning aytishlaricha, ayrim varvar xalqlarda umumiy (jamo'a) mulkchilik mavjud. Gerodotning yozishicha, likiyaliklar sulolani ona urug'idan olib boradilar, ularda ayollar o'zlari uchun o'zlari er tanlab oladi, sarmat ayollari esa jasur bo'lib, dushmanni o'ldirgandan so'nggina turmush quradilar. Antik davr faylasuflari ibtidoiy davrni umumiy tasvirini tasavvur qilish niyatida ayrim hollarda buyuk gipotezalar keltirishardi. Masalan Demokrit Er yuzidagi dastlabki odamlar "qo'pol va hayvonsifat hayot kechirib, o'tloqqa chiqardilar va ko'chib yurib, tabiatning boy in'omlarini va daraxtlarning mevalarini iste'mol kilardilar " deb hisoblagan. Uning ta'kidlashicha, o'zlariga oziq-ovqat topish, yomg'ir va qordan pana topish, yovvoyi hayvonlardan himoya qilish zarurati odamlarni tabiat bilan kurash usullarini izlab topishga harakat qildirardi. "Tirikchilik uchun kurash odamlarni hamma narsaga o'rgatdi" deydi u. Demokritning izdoshi Qadimgi Rim faylasufi va shoiri Lukretsiy Kar esa o'zining "Narsalar tabiati haqida" degan dostonida eng qadimgi insoniyatni yovvoyi holatdan to olov, kiyim, boshpana kashf qilishigacha bo'lgan taraqqiyotini tasvirlab bergan. U tarixni uch davrga, mehnat qurollari tayyorlash uchun ishlatiladigan ashyoga qarab, bo'lishni taklif qilgan: tosh, mis (bronza) va temir asri. O'zining bu kashfiyoti bilan u 19 asr oldinroq

Hozirgi arxeologiya dalillarini aytib bo'lgan edi. Qadimgi Xitoy faylasuflari ham tosh, bronza va temir asrlarini ajratishgan.

O'rta asrlarda cherkov va sxalastika ilmni bug'a boshlagan. Bu zamonda turli xil ertaklardagi maxluqlar odamlarning ajdodlari bo'lgan degan tasavvurlar yoyilgan. Biroq bu og'ir zamonlarda ham Er va unda yashovchi xalqlar to'g'risidagi bilimlar kengaya borgan. Arab geograflari SHarkiy Evropa va Osiyo mamlakatlarida yashovchi xalqlar haqida ma'lumotlar yozishgan. O'rta Osiyo xalqlari to'g'risida ayniqsa qimmatli ma'lumotlar Xitoy geografi CHan-CHun sayyohati bayonida saqlangan. Plano Karpini, Vilgelm Rubruk, Marko Polo kabi sayyohlar savdo aloqalarini o'rnatish uchun SHarqqa borib, evropaliklarni sharqiy xalqlar bilan tanitganlar. Bu asarlar orasida Tverdan chiqqan savdogar Afanasiy Nikitinning "Uch dengiz osha sayohat" asarini qayd qilib o'tish kerak.

XV asr oxirlaridan boshlab, ya'ni buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab Evropada etnografik bilimlarni yig'ish sohasida ko'p ishlar qilinadi. Xristofor Kolumbning 1492 yildagi Amerika sohillariga sayohati, 1497 yildagi Vasko de Gamaning Evropadan Hindistonga dengiz yo'lini kashf etishi, 1519-1521 yillarda Magellanning er yuzi osha dengiz sayohati va boshqa ko'plab istilochilar, savdogarlar va missionerlar sayohatlari Evropaga turli xalqlar to'g'risidagi xilma-xil ma'lumotlar kirib kelishini ta'minladi. YAngi erlarni kashf qilishlar XVIII asrga qadar davom etdi. Ayrim sayohatchilar (Laperuz, Mopertyui, Bugenvil va boshqalar) o'z kashfiyotlarining juda qiziqarli qilib bayon qilib qoldirganlar. Djeyms Kukning buyuk sayohatlari evropaliklar uchun Okeaniya xalqlarini ochib berdi. XVIII asr boshidan boshlab SHarqiy Evropa va SHimoliy Osiyo hududlari etnografik jihatdan o'rganiladi. Bunda rus olimlari katta rol o'ynaydi. Grigoriy Novitskiy, V.Tatshtsev, G.Miller, I.Gmelin, S.Krashennikov, G.Steller va boshqalarning kuzatuvlari xalqlarning turmush tarzi, an'ana va urf odatlari haqida va boshqa ma'lumotlar bergan. Rossiya Fanlar Akademiyasi tomonidan Birinchi Akademik ekspeditsiyaga kirgan bu olimlar Sibir va Kamchatka xalqlari haqida qimmatli ma'lumotlar yig'ishgan. Ikkinchi Akademik, yoki Fizik ekspeditsiyaga P.Pallas,V-Zuev, I.Lepexin, I.Georgi kabi olimlar kirib, Sibir xalqlari to'g'risida ma'lumotlardan tashqari, I.Georgining 4 tomlik " Rossiya davlatida yashovchi barcha xalqlar haqida" asari 1776-1780 yillarda nashr qilindi.Rus sayyohi va tadqiqotchilari YAngi va Eng yangi dunyoni o'rganishga ham katta hissa qo'shganlar. Rus er shari buylab sayohatlarida Amerikadagi rus koloniyalari bilan aloqalarni o'rnatish uchun 1803-1849 yillarda jo'natilgan I.F.Kruzenshtern, YU.F.Lisyanskiy, O.E.Kotsebu, F.P.Litke, A.P.Lazarev va boshqalar Okeaniya va SHimoliy

Amerika g'arbiy kirg'og'ida yashovchi ko'plab xalqlar hayoti haqida qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirishgan. Ayniqsa N. Mikluxo-Maklayning YAngi Gvineya papuaslari to'g'rsidagi ma'lumotlari katta ahamiyatga egadir.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrida hamda keyingi davrlarda etnografik materiallarning ko'payib ketishi ibtidoiy jamoa va uning taraqqiyoti haqida turli nazariyalarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. YAngi Dunyo xalqlarining hayoti butun insoniyatning ibtidoiy o'tmishi haqidagi fikrlarga olib keldi. Frantsuz missioneri Jozef Fransua Lafito 1724yilda "Amerikalik yovvoyilarning urf-odatlari ibtidoiy davr urf-odatlari bilan solishtirganda" degan asarida yangi solishtirish-tarixiy usuldan foydalanib, ibtidoiy davr tug'risidagi fanga katta hissa qo'shdi. Fandagi boshqa katta qadam insoniyat tarixiy taraqqiyotining umumiy sxemasini tuzishga intilish bo'ldi. XVSH asrda buyuk allomalar Russo va Didro ibtidoiy davrni insoniyatning oltin asri deb, insoniyatning baxtli bolaligi deganlar, "yaxshi ishlar qiluvchi yovvoyi" obrazini yaratib, uning urf-odatlari tabiatning tabiiy qonunlariga asoslangan, tsivilizatsiya taraqqiyoti esa bu qonunlarning buzilishi bilan tavsiflanadi deganlar. Jan Antuan Kondorse o'zining 1794 yilda chiqqan "Inson aqli taraqqiyotining tarixiy kartinasi tasviri" degan asarida tarixda madaniyat va aqlning uzilmas taraqqiyotini qurgan. Bu taraqqiyot xo'jalikning ketma-ket rivojlanib borgan pog'onalari ko'rinishida borgan: ovchilik va balikchilikdan hayvonlarni uy hayvonlariga aylantirishgacha, undan esa dehqonchilikka qadar borgan degan. Bu xo'jalik bosqichlarining har biriga alohida jamiyat tuzilmasi mos bo'lgan. Masalan, ikkinchi davrda "cho'pon xalqlar" paydo bo'lganida, asirlarni qullarga aylantira boshladilar, zodagon oilalar ajralib chiqdi, qonunchilik yaratildi, mulkchilik huquqi mustahkamlandi va hk.

SHotlandiyalik faylasuf Adam Fergyusson "Fuqarolik jamiyat tarixi tajribasi" degan asarida (1768) tarixni uch davrga: yovvoyilik, varvarlik va tsivilizatsiyaga bo'ladi. YOvvoyilik va varvarlik o'rtasidagi qirra deb u ovchilik va baliqchilikdan dehqonchilik hamda chorvachilikka o'tish hamda xususiy mulkchilikni kiritish deb hisoblagan. TSivilizatsiyani esa u xususiy mulkchilikning qonuniy mustahkamlanib qolgan vaqtidan boshlagan deydi.

Bunga o'xshash qarashlarni nemis olimlari Iogann va Georg Forsterlar ham aytib o'tgan : bolalik yoki yovvoyilik holat, yoshlik yoki varvarlik holati, va madaniy holati. XIX asrning 1 yarmida ibtidoiy tarix faniga qiziqish ancha pasayib qoladi. Insoniyat qadimgi o'tmishidagi dalillar ibtidoiy arxeologiyaning rivojlanishiga asos soldi. XIX asrga kelib Evropa muzeylarida qazish ishlari natijasida topilgan ko'plab mehnat qurollari, ro'zg'or anjomlari topilmalari saqlana boshlandi. Ularni tadqiq etish ob'ekti bo'lishi uchun klassifikatsiya qilish kerak edi. Dastlab klassifikatsiyani Daniya arxeologi

K.YU.Tomsen o'tqazishga intiladi. U ibtidoiy davr yodgorliklarini ular tayyorlangan ashyolarga qarab uchta guruhga ajratdi: tosh, bronza va temir asrlariga. Ushbu katta arxeologik material asosida Tomsen Lukretsiy Kar davridan mavjud bo'lgan uch asr nazariyasi tug'ri ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlab berdi. Biroq u hech qanday xronologik sanalarni ko'rsatmadi. Undan so'ng Daniya arxeologi I.YA.Vorso va SHved olimi Sven Nilson o'z klassifikatsiyalarini bilan chiqdilar. Biroq yig'ilgan tosh quollarining barchasi neolit davriga to'g'ri kelar edi. Frantsuz arxeologi J.Bushe de Pert qo'pol ishlangan tosh quollarini yig'ib olib aynan shu quollar qadimgi mamont, karkidon bilan bir vaqtda yashagan ibtidoiy odamning mehnat quollari bo'lgan deb tasdiqlay boshladi. Bushe de Pert kashfiyoti inson paydo bo'lishini juda uzoq mingyilliklarga olib bordiki, Bibliyadagi xronologiya noto'g'ri bo'lib chikdi. Diniy olimlar Bushe de Pert kashfiyotiga qarshi chikdilar. Biroq Dj.Prestvich, D.Evans, CH.Layel va boshqa taniqli arxeologlar va geologlar Bushe de Pert kashfiyotini to'g'ri ekanligini tasdiqladi.

XIX asr 1 yarmiga o'lgan hayvon suyaklari bilan birga odamning suyak qoldiqlari ham topiladi. SHunday topilmalar Mak Ineri tomonidan Angliyada, SHmerling tomonidan Belgiya g'orlarida topilgan bo'lib, ibtidoiy odam mavjudligini tasdiqladi. Bu esa insonning paydo bo'lishi - antropogenez muammosining quyilishiga olib keldi.

Keyinchalik tadqiqotlarda odam etnogenezi muammolari ko'rib chiqilib va har tomonlama tadqiq qilinib, odamning paydo bo'lishi haqida yangicha qarashlar ilgari suriladi. Bunday qarashlar din bilan bog'lanmasdan, odamning fiziologik-anatomik tuzilishini tadqiq etgan holda ko'rib chikiladi. Bunda ayniqsa J.-B.Lamark, CH.Darvin, E.Taylor, YU.Lippert, Dj.Mak-Lennan kabi olimlarning evolyutsiya to'g'risidagi ta'limotlari ahamiyatga molikdir. Tabiiy-ilmiy evolyutsionizm arxeologiya fanining rivojiga ham ta'sir etdi. O'zining insoniyatning taraqqiy rivojlanishining bir xilligi g'oyasi bilan evolyutsionizm ibtidoiy tarixning asosiy bosqichlari sxemasini yaratishga imkon berdi.

Ibtidoiy jamiyatni tadqiq qilishda amerikalik olim Lyuis Genri Morganning ("Qadimgi jamiyat" va b. asarlar) hissasi beqiyosdir. Engelsning asarlari ham ilmiy olamda katta shov-shuvga sabab bo'lgan (" Oila, xususiy mulk va davlatning paydo bo'lishi", "Tabiat dialektikasi" va "Maymunning odamga aylanishida mehnatning roli" asarlari).

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda yangi sotsiologik-etnografik nazariyalar paydo bo'ladi.

Ibtidoiy jamoa tarixining asosiy manbalari arxeologik ma'lumotlar, etnografik ma'lumotlar, lingvistik ma'lumotlar hamda ayrim yozma manbalardagi

ma'lumotlardir. Keyingi yillarda antropologiya va boshqa tabiiy fanlar ma'lumotlari katta ahamiyat kasb etmokda (masalan, primatologiya, paleozoologiya, geologiya va b.)

NAZORAT TOPSHIRIQLARI

1. Antik grek va rim tarixchilarining ibtidoiy jamoa to'g'risidagi qarashlarini izohlab bering.
2. O'rta asrlarda ibtidoiy jamoa haqida ma'lumotlarni to'plashda buyuk geografik kashfiyotlarning rolini ochib bering.
3. Odamning paydo bo'lishi haqidagi evolyutsion nazariyaga asos solgan olimlarni sanab bering.
4. XX asrda ibtidoiy jamoa tarixini yoritishga hissa qo'shgan olimlar asarlarini qisqacha sharhlab bering.
5. Ibtidoiy jamoa tarixi manbalarini tushuntiring.

ADABIYOTLAR:

1. Pershits A.I., Mongayt A.M., Alekseev V.P. Istoriya pervobitnogo obshchestva.- M.:Nauka, 1967.
2. Alekseev V.P. Stanovlenie chelovechestva.- M.:Visshaya shkola, 1984.
3. Istoriya pervobitnogo obshchestva. Epoxa pervobitnoy rodovoy obshchiny – M.:Nauka, 1988.
4. Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:
5. Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganishda sotsiologik-etnografik nazariya namoyandalari va ular ta'limotlari.
6. Ibtidoiy jamoa to'g'risida neoevolyutsion nazariya mohiyati.

Mavzu: Ibtidoiy jamoa tarixining manbashunosligi

Ajratilgan soat: 2

Mashg'ulot turi: maruza

Asosiy savollar:

- 1.Arxeologik manbalar.
- 2.Etnografik manbalar.
- 3.Antropologik va boshqa manbalar.

Tayansh iboralar: Arxeologiya, etnografiya, antropologiya, lingvistika.

MAQSADI:

İbtidoiy jamoa tarixining manbashunosligi haqida malumot berish, ibtidoiy jamoa tarixini urganishda manbalarning ahamiyatini tushintirish, manbalarga tavsif berish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

1. İbtidoiy jamoa tarixining manbashunosligi malumotlariga ega bo'lish.
2. İbtidoiy jamoa tarixini urganishda manbalardan foydalanish.

1. Arxeologik manbalar. İbtidoiy jamoa tarixining manbashunoslik bazasi o'ziga xos xususiyatga ega, shu sababli uni qayta tiklash tarix ilmining eng murakkab sohasi hisoblanadi. İbtidoiy tarixning bir qator masalalari bo'yisha manbalar etarli emas yoki bir-biriga teskari keladi. Manbalarni har xil tushuntirishlar olimlarning fikrlarining turli bo'lishiga, baxs-munozaralarga olib keladi.

İbtidoiy jamoa tarixi tadqiqodshilari asosan yozma emas manbalarga ega. Ularni tadqiq qiluvshi fan sohalari bo'yisha manbalar arxeologik, etnografik, antropologik, lingvistik, paleobotanik, paleozoologik, paleoklimatologik va boshqa turlarga ajraladi. Ularning orasida arxeologik va etnografik manbalar ko'proq ahamiyatga ega. Ijtimoiy munosabatlar asosan etnografik manbalar yordamida qayta tiklanadi. Antropologik manbalar antropogenez va rasogenez jarayonini tadqiq etishga imkon beradi.

Arxeologik manbalarga mehnat qurollari, ular yordamida yaratilgan inshootlar, uy jihozlari, taqinshoqlar, hunar buyumlari va boshqa ashyoviy yodgarliklar kiradi, aniq malumotlar beradi. Lekin ularning hammasi teng darajada saqlanmagan. Noorganik buyumlar (tosh, kulol) yaqshiroq saqlanadi. Ularni manba darajasiga ko'tarish arxeolog va boshqa mutaxasislarga bog'liq. Bu manbalar asosan iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasini, uning yunalishini qayta tiklashga imkon beradi.

Arxeologik materiallarning tipologik solishtirilishi va stratigrafik joylashishiga asoslanib ilk turlar so'ngilaridan ajratilib, ularning xronologik ketma-ketligi aniqlanadi va natijada madaniyatning tashqi ko'rinishlarining o'zgarib borishini aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Arxeologik manbalarga faqatgina ashyolar emas, shuningdek elatlar, binolar, qabrlar,

ustaxonalar, g'orlar, kanallar va boshqalar kiradi. Ular arxeologik yodgorliklar deb ataladi.

Tabiiy fanlar manbalaridan foydalanish ibtidoiy jamoa tarixining bilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Hozirgi kunda har xil materiallar-tosh, ko'mir, tuproq, kulol, shisha, metallar, yog'osh, don, suyak, shox, teri, jun va boshqalar tabiiy-ilmiy analiz qilinadi. Olingan malumotlar qadimgi iqlimni, landshaftni, fauna va floraning tarqalish shegarasini va ularning odam va tabiat tasirida o'zgarib borishini aniqlashda foydalaniladi. Dehqonshilik va shorvashilikning kelib shiqishi va rivojlanishi masalasini yoritishda tabiiy-ilmiy manbalardan keng foydalaniladi. Bundan tashqari xom ashyoning kelib shiqish manbasini, uni topish va etkazish usullarini, buyumlarni ishlab shiqish texnologiyasini aniqlashda tabiiy-ilmiy usullar ulkan o'rin egallaydi. Tabiiy-ilmiy usullar ayniqsa qadimgi yodgorliklarning absolyut va tahminiy xronologiyasini aniqlashda keng foydalaniladi.

2. Etnografik manbalar. Etnografiya fani xalqlarning madaniyati va turmush tarzini, ijtimoiy institutlari va ijtimoiy tuzumini tadqiq qiladi. Rivojlanishning turli bosqishlarida turgan ortda qolgan xalqlarning madaniyati ibtidoiy jamoa tarixini rekonstruktsiyalashda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ibtidoiy odam jamoasidagi ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tuzumning ko'plab tomonlari faqat etnografik manbalar bo'yisha gina malum. Masalan, nikoh va oila, qarindoshlik aloqalar, urug'lik boshqarish tashkiloti va boshqalar. Bu erda bosh vazifa ularni ibtidoiy tarixning malum bir bosqishi bilan xronologik tomondan bog'lashdan iborat. Lekin etnografik manbalarning malumot berish imkoniyati sheklangan.

3. Lingvistik manbalar. O'tmish haqida tushunshaga ega bo'lishda lingvistik malumotlar ahamiyatli manba hisoblanadi. Barsha zamonaviy tillar jamiyatning rivojlanishiga qarab shakllangan va ayrim hollarda uzoq o'tmishning izlarini saqlab qolgan. Jamiyatning rivojlanishi bilan so'zlarning manosi o'zgarib borgan. Lingvistlar har bir til oilasining boshqa til guruhlarini bilan tashqi aloqalarini aniqlaydi va ular orqali asosiy leksika

birlikni qabul qilingan leksikadan ajratib oladi. Til guruhlarining daslabki vatanini aniqlash bo'yisha ulkan lingvistik tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Mavzu: Insonning paydo bo'lishi.

- *Ajratilgan soat:2*
- *Mashg'ulot turi: ma'ruza.*

MAVZU REJASI (ASOSIY SAVOLLAR)

1. Odamning paydo bo'lishi haqida ta'limotlar.
2. "Fergantrop" odami muammosi.
3. O'zbekiston xududida "ongli odam"ning paydo bo'lishi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Driopitek, avstralopitek, zinjanthrop, pitekanthrop, sinanthrop, neandertal, kromanon, Teshiktosh, Selung'ur, Fergantrop.

1-asosiy savol.

Odamning paydo bo'lishi haqida ta'limotlar.

O'qituvchining maqsadi:

Odamzotning paydo bo'lishi muammosi masalasidagi mavjud ilohiy va ilmiy yo'nalishlarni ko'rsatish. Bu fikrlarning rivojlanish jarayonini tushuntirish. Ilmiy adabiyotlarda odamzotning paydo bo'lishi muammosi masalasida olib borilgan tadqiqotlar jarayoni bosqichlarini ochib berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Odamzotning paydo bo'lish muammosidagi mavjud ilohiy va ilmiy yunalishlarni ajratadi.
- 1.2. Bu fikrlarning rivojlanish jarayonini anglaydi.
- 1.3. Ilmiy adabiyotlarda odamzotning paydo bo'lishi muammosi masalasida olib borilgan tadqiqotlar jarayoni bosqichlarini tahlil qiladi.

Odamzotning paydo bo'lishi muammosi birgina biologiya fanining vazifasi bo'lmay, balki bu jumboq ayni vaqtda arxeologiya va antropologiya fanining ham vazifasidir. Bu muammoni ilmiy va ilohiy echimi mavjud. YAkka xudolikni joriy etgan barcha jahon diniy ta'limotlarida odamzotning yaratilishi ilohiyoti bilan bog'lanadi. Masalan, "Bibliya" da odamzot xudo tomonidan bundan 7 ming yil burun "qizil loy" dan yaratildi deyiladi.

Qur'oni Karimda esa odamning loydan yaratilganligi va Ollohning irodasi bilan unga jon kiritilgani haqida ta'kidlanadi. Xatto zardushtiylik dinida xam shunga o'xshash rivoyat hikoya qilinadi. Odamzotning birinchi vakillari sifatida "Bibliya" da Adam va Eva, Qur'oni Karimda Odam Ato va Momo Havo, zardushtiylik dinida esa Iyshi nomlari keltirilgan.

Odamning paydo bo'lishi haqida olimlar o'rtasida har xil qarashlar mavjud. Masalan, Ovro'palik olimlardan O.SHengler odamzodning eng qadimgi ajdodlarini biz bilmaymiz, odam hamma vaqt Hozirgidek edi, deydi. U bilan hamfikir Kneyshmid esa odamning ongi bo'lganini aytadi. Tibetliklarning tasavvurida tog' alvastisining maymunlar bilan jinsiy aloqa qilganliklari natijasida tibetliklar paydo bo'lgan emish. Odamzodning paydo bo'lishi haqida shunga o'xshash rivoyatlar ayniqsa insoniyat tarixida yakka xudolikni joriy etish dinlarning paydo bo'lishiga qadar ko'pincha xalqlar og'zaki ijodiyotida mavjud edi.

Odamning paydo bo'lish masalasida fan olamining o'z yo'nalishlari bor. Olimlar odamning paydo bo'lish muammosi bilan qadimdan shug'ullanishgan. Masalan, yunon olimi Arastu tabiatni bir karvonga o'xshatib, odamzod quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga, hayvonot olamidani odamzot dunyosiga o'sib chikdi, degan fikrni olg'a surgan. U hayvonot bilan odam o'rtasida "maymun" ni joylashtirdi. O'rta asrlarda bu masalada g'ayri diniy fikr bildirganlar olovga tashlandi. Masalan faylasuf Lyuchilo Vaninining (Italiya) takdiri shunday tugagan edi. SHved olimi Karl Linney odamzodning kelib chiqishini hayvon bilan bog'laydi, ammo u insondagi onglilik Ollohning karomati edi, deydi. XVIII asrning oxirida Jems Manbodda birinchi bo'lib odamning eng oliy tipdagi odamsimon "maymun" dan tarqadi, degan g'oyani olg'a suradi. Manboddaning zamondoshlari oliy tipdagi "maymun" sifatida orangutangni tushundilar. "Maymun" larning odamga aylanishida mehnatning roli katta ekanligi ta'kidlandi. Ammo ular orangutang mehnat qilsa ham undan hech qachon odam paydo bo'lmasligini tushunadilar.

Odamzodning eng oliy tipdagi maymunsimon ajdodlar bilan bog'likligi haqida ilmiy g'oya CHARlz Darvinga nasib etdi. CH.Darvinning bunday xulosa kelishiga qadar Ovrupada qator ilmiy kashfiyotlar qilingan edi.

1848 yilda ispaniyalik ishchilar Gibraltar qoyasida portlatish vaqtida eng qadimgi odamning pastki jag'siz kalta suyagini topdilar. 1956 yilda esa Germaniyaning Neandertal vodiysida Feldgofer g'orini tozalash vaqtida Gibraltar topilmasiga zamondosh odam bosh suyagining qopqog'i va uning boshqa suyaklari topildi. Olimlar ularning miya suyagining hajmini o'lchaganda u 1400 kub, santimetrga yaqin bo'lib, ongli odam bosh suyagiga

o'xshab ketardi. Bu ikki topilma jahon tarixiga neandertal odami nomi bilan kiritildi. Olimlar neandertap yashagan davrni 100-40 ming yil bilan belgilanadilar.

1856 yilda Frantsuz paleontologi Larte Avstriyaning YUqori Granna degan joyida er tarixining miotsen yotqiziqlaridan (bundan 5-12 mln yil burun) eng oliy tipdagi odamsimon "maymun"ning uchta tishi bilan pastki jag'ini topdi. Unga olimlar driopitek (daraxtda yuruvchi "maymun") deb nom berishdi. Hozirgi vaqtda dunyoning har xil joylaridan driopiteklarning 10 dan ortiq xillari topildi. Lekin ular Avstriya driopitekidan farqli bo'lib, ularning ayrimlari olimlar xulosasiga ko'ra shimpanze, gibbon, orangutang, gorilla kabi Hozirgi zamon maymunlarini ajdodlari edi. Avstriya topilmasi CH. Darvin tomonidan sinchiklab o'rganildi va uning tishlarida odamzod tishlariga xos belgilar borligi isbotlandi. CH.Darvin bu odamsimon "maymun" driopitekda odamzodning ajdodini ko'ra bildi. U yaratgan ta'limotga ko'ra boshqa driopiteklardan odamzod ajdodining tarqalishi mumkin emas. Darvin driopiteki allaqachon o'lib ketgan. Undan qolgan iz so'ngi avlod edi. Boshqa driopiteklardan odamzodning ilk ajdodlari paydo bo'lganidek, Hozirgi zamon maymunlaridan ham hech qanday odam tarqalmagan.

Odamning paydo bo'lishi haqidagi evolyutsion nazariyada Avstriya driopiteki bilan neandertal odami o'rtasida albatta ibtidoiy ajdodlarimizning oraliq vakillar bo'lishi muqarrarligi ta'kidlangan. 1926 yili Gibraltar qoyasi rayonidagi g'ordan yana ibtidoiy odam suyaklari va tosh qurollari bilan ikkita neandertal odami skeleti 1924 yili Qrimdagi Kiyikkabo g'orida topildi. 1938 yilda shunga o'xshash topilma O'zbekistonning Teshiktosh g'oridan qazib oldilar. Hozirgi kunda bunday topilmalar dunyoning 50 dan ortiq nuqtalarida uchratilgan. Neandertal tipidagi bu ajdodlarimiz bosh suyagining hajmi 1300-1400 kub santimetrdir.

Odatda, rosmana odam bosh suyagining hajmi 1400-2000 kub santimetrdan oshmaydi. 1890 yilning noyabrida gollandiyalik olim Evgeniy Dyubua Indoneziyaga qarashli YAVA orolida Kedung-Brous daryosi sohilidagi qatlamdan odamning pastki jag'ini topdi.

1891-1892 yillar davomida Yava oroli hududidan yana bir necha odam suyaklari tosh qurollar topildi. Odam bosh suyagining hajmi 900 kub santimetr ekan. SHunday qilib driopitek bilan neandertal oralig'idagi birinchi bo'g'in topildi. E.Dyubua YAVA oroli topilmalarini sinchiklab o'rgangandan so'ng, odamzodning bu ajdodi boldir suyaklarining tuzilishiga qaraganda ikki oyoqlab yurgan degan xulosaga keldi va unga pitekanthrop (ikki oyoqlab yuruvchi "maymun" odam) deb nom berdi.

Pitekanthrop yashagan davr, olimlar xulosasiga ko'ra , bir million yil deb belgilandi. 1924 yilda Janubiy Afrikada Er qa'ring tiotsen (bundan 3-4 million

yil burun) yotqiziqlaridan odamzod ilk ajdodi yana bir vakilining suyak qoldiqlari topildi. Olimlar uni avstralopitek ("janub maymun" i) deb atadilar. Uning bosh suyagining hajmi 700 kub santimetr ekan. Odatda driopiteklarda bio miya hajmi 600-680 kub santimetrdan oshmaydi. SHunday qilib, driopitek bilan pitekantrop oralig'idagi bo'g'in ham topildi. Olimlarning xulosasiga ko'ra, avstralopitek odamzodning hayvonlar ("maymun" lar) olamidan odamlar dunyosiga o'tish davridagi birinchi qadam edi. Agar bir driopitekni eng oliy tipidagi odamsimon "maymun" desak, astrolipitik maymunsimon ikkinchi qadam, ya'ni maymunsimon odam lardan uzoklashgan ajdodimiz vakilidir. Uning oldingi "oyoqlari" endi mehnat qiladi, toshni-toshga urib mehnat qurolarini yasay boshlaydi.

1929 yilda Xitoy olimlari Pekindan 60 km janubi-g'arbda joylashgan CHjoukaunyan qishlog'i yaqinidagi g'orlardan ibtidoiy ajdodlarimizning suyak qoldiqlarini topdilar. Unga qadar, 1918 yili SHved olimi Andersan ham bu rayonda ish olib borgan va ko'pgina qadimgi hayvonlar suyaklarini topgan edi.

Bu zonada dala qidiruv ishlari 1936 yilgacha davom etdi. Natijada 40 dan ortiq odam suyaklari, tosh qurollar, hayvon suyaklari va olov izlari topildi. Olimlar odamzodning bu ajdodiga sinantrop (xitoy odami) deb nom berishdi va uni yashagan davrini 500-600 ming yil bilan belgilashdi. Sinantrop bosh suyagining hajmi 1100-1200 kub santimetr edi.

SHunday qilib, pitekantrop bilan neandertal oralig'idagi bo'g'in ham topildi. CH.Darvinning odamning paydo bo'lishi haqidagi evolyutsion nazariyasi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Jamiyatshunos olimlar (L.G.Morgan,K.Marks,F.Engels) taklif etgan ibtidoiy to'da davrida ana shu pitekantrop, sinantrop va neandertallar yashadilar. Hozirgi kunda fan neandertal odamning 6 xilini biladi. Ular miloddan avval 100- 40 ming yillar oralig'ida yashagan. Jismoniy tuzilishi jihatidan Hozirgi zamon oralig'iga juda yaqin bo'lgan neandertal odamlarning jag' tishlari pitekantropniki singari bo'rtib chiqmagan, ammo ularning kalta -kalta qo'llari qo'pol bo'lib, peshonasi ham bo'rtib chiqmagan.

1868 yili Frantsiyaning Durdoni viloyatidagi Kromanon g'orida 5 ta odam ko'milgan mozor ochildi. Kromanon odamlarning bo'yi baland (180 sm gacha), bosh suyagini hajmi 1590 kubsantimetr, yuzlari keng, qosh osti bo'rtib chiqqan, peshonasi rosmi Hozirgi zamon odamlarnikiga o'xshaydi. Umuman, ular skeletining tuzilishi Hozirgi zamon odamlariga o'xshaydi. Umuman, ular skeletining tuzilishi Hozirgi odamlardan farq qilmaydi. G'ordan ko'plab tosh qurollar ham topildi. Olimlar bu topilmani g'or nomi bilan kromanon odami "aqli odam" deb atadilar. Hozirgi kunda kromanon tipidagi odam qoldiqlari er kurrasining 100 dan ortiq nuqtalaridan topib o'rganilgan.

1959 yilda amerikalik olimlar SHarqiy Afrikaning Olduvei darasida eng qadimgi ajdodlarimizning suyak qoldiqlarini topdilar.

Bu erda odam bosh suyagi bilan birga mayda hayvon suyaklari, to'ng'iz va antilopa suyaklari va tosh qurollari topildi. Olimlar bu mavjudotga zinjanthrop deb nom berishdi va uni yashagan davrini avstrolipitek bilan pitekanthropni oralig'i deb nomlashdi. Zinjanthropning suyak tuzilishi va bosh suyagi ko'p jihatdan pitekanthropga yaqinlashadi. Ammo zinjanthrop topilgan geologik qatlamning sanasi 1,5-2 mln yil bilan belgilanmokda, Bu esa odamzotning mehnat qila boshlagan ilk ajdodi pitekanthropga qadar zinjanthrop bo'lgan degan xulosaga olib keladi.

Yuqorida bayon etilgan materiallardan kelib chiqqan holda uyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Odamzod tabiatining ajralmas bir bo'lagi sifatida, er tarixining ma'lum bir bosqichida (miotsen bosqichidan hayvonot olamidani ajralib chiqdi. u jonivor fanda eng oliy tipdagi odamsimon "maymun" (driopitek) deb atalmokda. Driopitekning 10 ga yaqin turlari mavjud bo'lib, ammo ularning hammasi odamlarni ajdodi bo'lmagan. Inson faqat Avstriyadan topilgan Darvsh driopiteklaridan tarqalgan.
2. Ajdodlarimizning hayvonot olamidani odamzod dunyosini birinchi qadami avstralopitek davrida sodir bo'ldi.
3. Odamzodning ilk ajdodlari zinjanthrop va pitekanthrop toshni -toshga urib mehnat qila boshladilar. Mehnat odamzodni hayvonot olamidani ajratdi.
4. Odamzodning o'zini ajdodi-sinanthrop davrida olovning kashf etdi va shu tufayli ajdodlarimiz go'shtni olovda chala pishirgan holda iste'mol qila boshladilar. Pishirilgan go'shtni iste'mol qilish natijasida ularning fikrlarida o'zgarish sezildi va odamning biologik, jismoniy tuzilishida Hozirgi zamon odami tomon ijobiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi.
5. Kromanon odami zamonasiga kelib ilk ajdodlarimizning biologik, jismoniy tuzilishi Hozirgi zamon odamidani farq qilmaydigan holatga kirdi. Kromanonlar davri urug'chilik jamoasining boshlanishi birinchi jamoachilik kurtagining tug'ilishidir. Bu o'zgarishning barchasi o'z mehnati tufayli erishdi.

NAZORAT TOPSHIRIQLAR:

1. Odamzodning paydo bo'lishi muammosi masalasidagi bugungi kundagi mavjud yunalishlar, bu ,...
2. Odamzodning eng oliy tipdagi maymunsimon ajdodlari bilan bog'liqligi

haqidagi ilmiy g'oya muallifi:

A. Lyuchilo Vanini V. Karl Linney. S. Jeym Monbadtsa.

D. CH.Darvin. E. YUqoridagilarninng barchasi.

3. Ketma-ketlikni aniqlang.

1. pitekantrop
2. zinjantrop
3. avstralopitek
4. sinantrop
5. driopitek
6. neandertal
7. kroman'on

A. 1,2,3,4,5,6,7,

V.3,2,1,4,5,6,7,

S.2,3,1,5,6,4,7.

D.5,3,2,1,4,6,7

E. 4,3,2,1,5,6,7,

4. Ortiqchasini aniqlang?

- Zinjantrop
- Sinantrop
- Avstralopitek
- Orangutang
- Pitekantrop

5. Xususiyatli tomonlarini ko'rsating driopitek avstralopitek zinjantrop pitekantrop sinantrop neandertal kroman'on

6. yashash davri. nomi

A. 40-12 ming yil oldin. maymun

V. 500-600 ming yil oldin maymun

S. 100-40 ming yil oldin yuruv maymun

D. 1,5-2 ming yil oldin. odami

E. 1 mln yil oldin

J. 5-12 mln yil oldin.

3. 3-4 mln yil oldin

2. Bosh suyagi hajmi

A) 1300-1400 sm kub. V) 1100-1200 sm kub

S) 1590 sm kub D) 700 sm kub

E) 600-680 sm kub. J. 900 sm kub

Z. 800 sm kub

Z.fandagi

A) Janub V) ikki oyoq

S) daraxtda D) Xitoy

E) Aqlli oda

7. Odamzodning quyida ko'rilgan rivojlanish bosqichining har bir davriga xususiyatli tomonlari (ishlab chiqarish, turmush darajasi, antropologik tuzilishi va boshqa jihatlari) asosida qisqacha tavsif bering:

- driopitek
- asvtralopitek
- zinjanthrop
- pitekanthrop
- sinanthrop
- neandertal
- kromanon

ADABIYOTLAR:

1. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. - T.O'qituvchi. 1994. O'zbekiston tarixi. - T. Universitet. 1997.
2. Tegelko L.I, Solivon I.I. Osnovim sovremennoy antropologii. Minsk. 1989.
3. Pershits A.I., Mongayt A.L., Alekseev V.P. Istoriya pervobitnogo obshestva. - M., 1982

2-asosiy savol:

Fergantrop odami muammosi.

Maqsad:

Ashel davrida O'rta Osiyoda tabiiy-geografik sharoit haqida ma'lumot berish. Ashel davriga oid hududimizda yashagan odamlarning izlarini ko'rsatish. Selung'urdan topilgan sinantropolar zamondoshi qoldiqlari, "Fergantrop" muammosining echimi va uning ahamiyatini ochib berish. Talabalarda Markaziy Osiyo insoniyat tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligidan g'urur hissini uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 3.1. Ashel davrida O'rta Osiyodagi tabiiy-geografik sharoiti haqida ma'lumotlar oladi.
- 3.2. Ashel davrida hududimizda yashagan odamlarning izlarini ko'rsatadi.
- 3.3. Selung'urdan topilgan sinantropga zamondosh odam qoldiqlari va "Fergantrop" muammosining ahamiyatini anglaydi.
- 3.4. Markaziy Osiyo insoniyat tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligidan g'ururlanish tuyg'usini his etadi.

O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekiston hududida zinjanthropga zamondosh ajdodlarimiz yashagan. Undan keyin yashagan odamzod ajdodi pitekanthroplar bo'lib, ular bundan 1 mln yil burun yashagan. Uning zamondoshi ham O'rta Osiyo hududida hozircha uchragani yo'q. Pitekanthroplardan keyin, ya'ni bundan 500-600 ming yillar burun yashagan odamzodining ilk izlari Xitoydan topilib, ularni olimlar sinantropolar deb atashdi. Sinantrop topilgan makonda (ular g'orlarda yashagan) toshdan ishlangan mehnat qurollari bilan birgalikda qalin kul qatlami ham topildi. SHuningdek qalin madaniy qatlam va u qatlam ichida hayvon suyaklari ham uchragan. Bu qoldiqlar sinantropolarning g'orda uzoq vaqt (bir necha yuz ming yilliklar) yashaganligidan guvohlik beradi. Sinantropolar davridan boshlab odamzod birinchi bo'lib olov bilan tanishdi va undan o'z hayot faoliyatida foydalanildi. Ana shu sinantropolarga zamondosh ibtidoiy odam ajdodining izlari O'rta Osiyoning bir necha joylarida uchraydi. Bu davr ajdodlari hali to'da-to'da bo'lib yashaganlar.

Ular tabiat iqlimini sovib ayrim rayonlarga muzliklar qoplagan, ayrim rayonlarda esa to'xtovsiz yomg'irlar yog'a boshlagan zamonda yashaganlar. Bu davr ibtidoiy to'da davrining o'rta bosqichi-ashel davriga to'g'ri keladi.

Sinantropolar davrida ibtidoiy ajdodlarimiz asosan g'orlarda yashaganlar. Ularning kundalik tirikchiligi yovvoyi daraxtlarning mevalari, ayrim o'simliklarning ildizlari edi. Ular birgalashib yirik hayvonlarni ov qilganlar. Biroq ov o'ljasi hisobiga kun kechirish sinantrop zamondoshlar uchun juda og'ir kechgan. SHuning uchun bo'lsa kerak, ular qurt-qumursqa va mayda kemiruvchi jonivorlarni ham iste'mol qilishga majbur bo'lganlar.

Bu davr odamlarining mehnat qurollari asosan toshdan, yirik ov hayvonlarning suyak va shoxlaridan hamda qattiq daraxt shoxlaridan yasalgan. Afsuski, zamonning zayli bilan bizgacha u qurollardan faqat toshdan yasalgani etib kelgan. Bu tosh o'rganilgan va ular birinchi bor topilgan makon nomi bilan ashel qurollari deb atalgan. Ashel tipidagi qurollar dastlab Frantsiyada topildi. Ular yassi tuxumsimon qilib ishlangan, uchli, nayzasimon, qarama-qarshi tomonlari esa yo'g'onroq tuxumsimon bo'lib, olimlar bu qurolga qo'l boltasi yoki qo'l cho'qmori deb nom berishdi. Ana shu qurol yordamida ibtidoiy ajdodlarimiz yirik hayvonlarga qarshi ov qilganlar, o'simlik ildizlarini kovlab eyish uchun biror narsa tayyorlaganlar, o'lja hayvon go'shtini maydalagan va terini shilishganlar, daraxt shoxlarini kesib, ulardan qurollar yasaganlar.

Arxeolog va geologlarning hisobiga ko'ra ashel davri bir million yil burun boshlab, miloddan av. 200-100 ming yillargacha davom etgan. Bu davr tabiiy-geografik muhiti O'rta Osiyo sharoitida, geologlarning hisobiga ko'ra, tabiatning yozi issiq va quruq, qishi sovuq, yog'ingarchilik kam bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Ana shu sharoitda O'rta Osiyoning hozirgi cho'l va dashtlari

landshafti rasmiylashdi hamda shu landshaftga xos hayvonot olami va o'simliklar dunyosi shakllandi. Ashel davrining oxirgi bosqichiga kelib, havo keskin soviydi. Ovro'paning shimoliy mintaqalarini muzliklar qoplaydi. O'rta Osiyo esa, asosan uning tog'li zonalarida muzliklar hosil bo'lib, daryolar oqimiga o'zgarishlar yuz beradi va yangi-yangi daryolarni shakllanishiga olib keladi. O'rta Osiyo muzliklari vohalarni qoplagan bo'lib, ular asosan tog'li viloyatlar darasida tarkib topadi. O'rta Osiyo pasttekisliklari esa yomg'irlar uzluksiz yog'ib havoni goh sovish, goh ilishi kuzatiladi va ular bilan bog'lik holda o'simliklar dunyosi oilasida ham o'zgarishlar mintaqaning bu qismida yuz beradi. Qalin o'rmonlar o'rnini cho'l mintaqasiga xos o'simliklar egallaydi. O'rta Osiyo sharoitida ro'y bergan bu o'zgarishlar mintaqaning ayrim rayonlarida ilk ajdodlarimizning manzilgohlari Farg'ona vodiysining So'x rayonidagi Selung'ur g'oridan va Toshkent viloyatining Angren shahri yaqinidagi Ko'lbuloq makonida topib o'rganildi.

Selung'ur g'ori 1958 yili akademik A.P.Okladnikov tomonidan topib o'rganilgan. Olim u erda arxeologik qazilmalar o'tkazib, topilgan tosh qurollarga qarab, g'or yuqori paleolit davrida, ya'ni bundan 40-30 ming yil burun ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirgan degan xulosaga keladi. Ammo 1980 yildan boshlab A.P.Okladnikovning shogirdi, o'zbek arxeologi, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi U. Ismoilov g'orni qayta o'rgana boshladi. U.Ismoilov g'orning bir necha joyida qazilmalar o'tkazib, toshdan ishlangan juda boy mehnat qurollari va hayvon suyaklarini topdi. Olim Selung'urda yashagan ajdodlarimizni g'orning qadimgi tosh davrining yuqori paleolit bosqichida emas, balki ashel davrining bosqichida o'zlashtirganliklarini isbotladi. Selung'ur g'ori tariximiz uchun benihoyat muhim yodgorlik. Bu makonda ajdodlarimizning suyak qoldiqlari ham topildi. Antropolog olimlar Selung'ur suyak qoldiqlarining sinantropplarga zamondosh ekanligini aytmoqdalar. Seleng'urning asosiy tadqiqotchisi U.Ismoilov esa g'or materiallarini qaytadan o'rganib, ularning yoshi yaqin bir mln yil atrofida bo'lishi kerak, degan xulosaga keldi. Seleng'ur odamning qoldiqlari Farg'ona vodiysidan topilgani uchun unga "Fergantrop" ya'ni "Farg'ona odami" degan shartli nom berish taklif qilinmoqda. Seleng'urdagi ilmiy izlanishlar va u erdan topilgan er yuzida odamning paydo bo'lishi muammosi echimiga qo'shilgan ulkan hissa bo'lib, endilikda O'rta Osiyo hududida odamzot ilk bor paydo bo'lgan mintaqalar qatoriga kirdi.

Ashel davrining so'nggi bosqichida, taxminan bundan 200 ming yillar burun qadimgi ajdodlarimiz Ko'lbuloq yaqinida o'zlariga qarorgoh topganlar Ko'lbuloq qarorgohi Angren shaxridan 10-12 km g'arbda bo'lib, shu nom bilan atalgan buloq suvi yoqasida joylashgan. Yodgorlikda bir necha yuz ming

yillar davomida ibtidoiy ajdodlarimiz yashaganlar. Ko'lbuloq manzilgohi 1862 yilda topildi va 1963 yildan boshlab bu erda o'zbek arxeologi M.R.Qosimov izlanishlar olib bordi. Yodgorlikni qazish jarayonida uning qadimgi tosh davrining deyarli barcha bosqichlariga (ashel, muste, yuqori paleolit) tegishli ekanligi isbotlandi. Ko'lbuloqda odam qoldiqlari topilmagan, ammo tosh qurollar va hayvon suyaklari behisob. M.R.Qosimovning fikriga ko'ra Ko'lbuloqning quyi qatlami ashel davrining so'nggi bosqichiga tegishlidir. Ushbu yodgorlik butun O'rta Osiyo qadimgi tosh (paleolit) davri yodgorliklari uchun arxeologik davriy tizim berdi. Yuqorida bayon etilgan dalillarga asoslangan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin.

O'rta Osiyo, jumladan Farg'ona vodiysi o'zining tabiiy-iqlim sharoitida va ekologik imkoniyatlariga ko'ra ibtidoiy to'da davrining o'rta bosqichi-ashel davridan boshlab eng qadimgi ajdodlarimizning e'tiborini o'ziga tortgan va bu mintaqadagi Seleng'ur g'orida sinantropning zamondoshlari ilk bor makon topgan. Bu makondan odam suyak qoldiqlari topildi. Bu voqea O'rta Osiyoni odamning paydo bo'lish mintaqalari tuzumiga kiritdi.

Seleng'ur topilmasi juda yomon saqlangan. Ammo akademik V.P.Alekseev va professor T.K.Xo'jayovlar fikriga ko'ra, bu erdan topilgan odam bosh suyagi qopqog'ining morfologik tuzilishi uning juda qadimiy va g'ordan topilgan boshqa kimyoviy dalillar bilan zamondosh ekanligini inkor etmaydi. Ushbu topilma o'z ahamiyati bilan O'rta Osiyo hamda O'rta SHarq mintaqasida tengsiz kashfiyot hisoblanadi. SHuning uchun o'zbek arxeologlari va antropologlari uni "fergantrop" , ya'ni "Farg'ona odamlari" deb atamoqdalar. U odamning paydo bo'lishi shajarasida pitekantrop bilan neandertal odamning oralig'idagi bo'g'inni to'ldiradi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. O'zbekiston hududida qadimgi tosh davrining ilk bosqichi -ashel davriga xos yodgorliklarni ko'rsating.

A. Erqo'rg'on, Sopollitepa.

V. Seleng'ur, Ko'lbuloq.

S. Seleng'ur, Oltintepa

D. Ko'lbuloq, Qayroqqum.

E. Jarqo'ton, Anov.

2. Seleng'ur odami:

1. YOshi.

A. 2 mln y.

V. 1 mln y

S. 500-300 ming y.

D. 200-100 ming y.

E. 100-40 ming y.

2. Davri.

A. YUqori.

V. O'rta paleolit.

S. Quyi paleolit.

D. SHel

E. Ashel

3. Ko'lbuloq yodgorligi:

1. YOshi

A. 1 mln

V. 500-200 ming ming y.

S. 200-100 mingy.

D. 100-40 ming y.

E. 40-12 ming y.

2. Davri.

A. YUqori paleolit

V.O'rta paleolit.

S. Quyi paleolit.

D. SHel

E. Ashel

3. Qurollar.

A. Tosh

V. suyak.

S. bronza.

D. Temir.

E. CHaqmoqtosh.

4. Fergantrop" odamining fanda tutgan ahamiyatini ochib bering?

ADABIYOTLAR:

1. T.K.Xo'jayov. K paleoantropologii drevnego O'zbekistan T., 1980.
2. Qosimov M.R. Mnogosloynaya paleoliticheskaya stoya
3. Ko'lbuloq. /Problemm arxeologii Sredney Azii.-L, 1968
4. Pershits A.I. i dr. Istoriya pervobitnogo obshestva

3- asosiy savol.

O'zbekiston hududida "ongli odam"ning paydo bo'lishi .

Maqsad:

O'zbekiston muste davri odamlarining izlari haqida ma'lumot berish. Teshiktoshdan topilgan neandertal odami izlarini o'rganish jarayonini ko'rsatish . O'zbekiston hududidan neandertal odami izlarining topilishining ahamiyatini baholash.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

- 3.1. O'zbekistonda muste davri odamlari izlari haqida ma'lumot oladi.
- 3.2. Teshiktoshdan topilgan neandertal odam qoldiqlarining o'rganilishi jarayonlarini aniqlaydi.
- 3.3. O'zbekiston hududidan topilgan neandertal odami izlari topilishining ahamiyatini baholaydi.

Ibtidoiy to'da davrining so'nggi bosqichi arxeologiya fani davriy tizimida muste davriga to'g'ri keladi. Bu davrda yashagan ajdodlarimiz esa odamning paydo bo'lishi shajarasida neandertal odami nomi bilan fanga kirgan.

Neandertallar davrida ibtidoiy ajdodlarimiz er yuzining qator mintaqalarni o'zlashtiradilar. Neandertallar yashagan zamonni arxeolog va geolog olimlar bundan 100-40 ming yillar bilan belgilaydilar. Ana shu 60 ming yil davomida neandertallarning biologik-jismoniy tuzilishida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Agar bundan 100 ming yil burungi neandertallarni tasavvur etadigan bo'lsak, ular hali past bo'yli, peshona pastki jag'i deyarli yo'q, ikki oziq tishi bo'rtib chiqqan, qo'l panjalari kalta va yo'g'on, boldir suyaklari bir oz egri bo'lganligi uchun rosa tik turib yura olmagan. Bundan 40 ming yil burun yashagan neandertallar esa ko'p jihatdan deyarli Hozirgi zamon odamlariga yaqin bo'lgan.

Ularning orasida bo'ylilari uchraydi. Peshonalari va pastki jag'i shakllangan. Ikki oziq tishlari boshqa tishlardan ajralib tursada tashqariga bo'rtib chiqamagan. Oyoqlari tik va beli to'g'ri. Neandertallarning biologik tuzilishidan bu keskin o'zgarishlar, albatta ularning pishirilgan go'shtni ko'proq iste'mol qilishga o'tganligi natijasidir.

O'rta Osiyo neandertallar davriga oid birinchi yodgorlik 1938 yilda A.P.Okladnikov tomonidan Boysun tog'ining Teshiktosh deb atalgan g'oridan topib o'rganildi. Hozirgi kunda neandertal zamondoshlari yashagan makonlar O'rta Osiyoda 50dan ortiq joyda topilgan. O'zbekistonda ular Toshkent viloyatining Obirahmat, Xo'jakent, Paltov nomli ungar va g'orlarida, Ko'lbuloq deb atalgan qadimgi buloq yoqasida Samarqand viloyatining Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Xo'jamazg'in deb nomlangan buloq yoqasida, Buxoro viloyatidagi Qizil Nurota Samarqanddan Kitobga olib boruvchi Taxtkaracha dovonida joylashgan Omonqo'ton g'orida Navoiy viloyatidagi Uchtutda topib o'rganildi. Muste davri yodgorliklari qo'shni Tojikistonda (Qorabura, Jarqo'ton) va Qirg'izistonda ham ko'plab topilgan.

Bu yodgorliklarda o'tkazilgan arxeologik qazilmalar vaqtida o'sha zamon odamlarining toshdan ishlangan mehnat qurollari (qo'l-cho'qmor, hayvon terisini shilishda ishlatiladigan tosh "pichoqlar", tosh uchuruq va tosh o'zaklar nukleos) ko'plab topilgan. Qazilma jarayonida har-xil hayvonlarning suyak parchalari va shoxlari ham uchragan. Olimlar ana shu topilmalarni o'rganib, neandertalga zamondosh ajdodlarimizni ovchilik bilan birinchi galda yirik hayvonlar ovi bilan shug'ullanganlari haqida xulosaga kelganlar. Neandertallarning kundalik hayoti juda ojiz bo'lib, kundalik hayoti kechirish yo'lida yirtqich hayvonlar bilan, tabiatning izgi-irini sovuq iqlimi bilan doimo kurash olib borishga to'g'ri kelgan. Ajdodlarimiz hali yovvoyi hayvonlardek gala-gala bo'lib yashaganlar, jamoatchilik kurtagi bu davrda shakllanmagan. Nikoh tizimida tartibsizliklar hukmron bo'lgan, yirik hayvonlarni ov qilish har doim ham muvaffaqiyatli bo'lavermagan.

Neandertallar ham tez yuguruvchi kichik hayvonlarning ov qilishga odatlanmaganlar. CHunki bu zamonda uzoqdagi tezkor hayvonlarning nishonga oluvchi (hayvonlar) qurollar kashf etilmagan. Hatto dara va ko'llardagi baliqlarni tutish uchun zarur tosh nayza va tosh qarmoqlar ham yo'q edi. Ana shunday og'ir hayot kechirgan ajdodlarimiz oldida yashash uchun yagona chora yirik hayvonlarni ov qilish va yovvoyi daraxtlarning mevalarini hamda ayrim o'simliklarning ildizlarini kovlab iste'mol qilishdan iborat edi.

O'rta Osiyo jumladan, O'zbekistonda topilgan muste davri yodgorliklari orasida Teshiktosh g'ori alohida ahamiyat kasb etadi.

Teshiktoshda o'tkazilgan arxeologik qazilmalar vaqtida ko'pgina arxeologik ashyoviy dalillar bilan birgalikda g'or devorining 9 yashar bolaning mozori topildi. Bola skeleti chuqurcha qazilib unga chalqanchasiga yotqizilgan. Bola mozorini atrofi hayvon shoxlari bilan o'ralgan. SHoxlarning deyarli hammasi o'sha zamonda Boysun tog'i daralarida yashagan tog' qo'chqori va buxoro bug'usi shoxlari bo'lib chiqdi. G'orda qalin kul qatlami bor. Kul qatlami orasida va g'ordagi madaniy qatlamdan turli hayvon suyaklarining parchalari uchraydi.

YUqorida esa eslab o'tilganidek, neandertal odamlarning asosiy mashug'loti hayvon ovi bo'lgan. Ov teshiktoshliklar hayotida muhim rol o'ynagan. SHuning uchun bo'lsa kerak, teshiktoshliklar o'z bolalarini mozorlarini o'zlari uchun muqaddas bo'lgan (odatda, qadimgi ajdodlarimiz hayot manbai bo'lib xizmat qilgan hayvonlarni muqaddas hisoblab, ularga e'tiqod qilganlar, keyinroq urug' jamoalari totemlari shakllanishining asosida ham ana shu e'tiqod qilgan hayvonlar turgan) hayvon shoxlari bilan o'rab "narigi"dunyoga kuzatganlar. Bu faqat neandertallar zamonasida asta-sekin diniy tasavvurlarning qandaydir elementlari paydo bo'layotganidan dalolat beradi.

A.P.Okladnikov Teshiktosh g'oridan topilgan materiallarni har tomonlama chuqur o'rganish asosida ushbu yodgorlikning yoshini aniqladi va uning muste davrining ilk bosqichiga tegishli ekanligini isbotladi.

Teshiktosh g'oridan topilgan 9 yashar neandertal bolaning mozori jahon tarixi va biologiya fanlarida buyuk kashfiyot bo'ldi. CHunki jahon olimlari orasida yaqin kunlarga qadar odamning paydo bo'lishi ilmiy nazariyasi atrofida tortishuvlar davom etib kelinardi. Ayniqsa, odamzodning oliy va past irqlarga bo'lib, oliy irq vakillari ustidan doimo hukmron bo'lmoqlari kerak, bu tarix taqozosi degan reaksion irqchilik g'oyasini olg'a surgan edi. Aslida kishilik tarixida 3 ta irq bor - ovro'pa, negr va mo'g'ul irqlari. Ular er kurrasining har xil mintaqalarda bir vaqtda paydo bo'lgan. Ularning bironyasi ham o'zining oliy irqqa mansubligini isbotlay olmaydi. Bu -tarixiy haqiqat.

1938 yilda A.P.Okladnikovning Teshiktoshda qilgan kashfiyoti fashist mafkurachilarining bu da'vosini chipakka chiqaradi. Barcha millat va elatlarning o'z boshidan qachonlardir odamzodning neandertallar bosqichini bosib o'tganligi yana bir bor isbotlandi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Neandertal odam ... davrida yashagan.
2. Teshiktosh g'orining tadqiqotchisi.
 - A. V.A.Ranov.
 - V. A.P.Okladnikov.
 - S. U.Islomov.
3. **Neandertal odam :** 1) Tashqi ko'rinishi.
 - A. Peshona va pastki jag'i shakllangan. V. peshona, pastki jag'i yo'q.
 - S. qo'l panjalari kalta. D. Oyoqlari tik, beli to'g'ri.
 - E. Boldir suyaklari egri.
- 2) Yashagan davri.
 - A. 200-100 ming y.ol. V. 100-40 ming y.ol.
 - S. 40-12 ming y.ol. D. 1207 ming y.ol.
 - E. 7-3 ming y.ol.
4. O'zbekiston hududida neandertal zamondoshlari yashagan makonlar.
Ortiqchasini ko'rsating.
 1. Obirahmat
 2. Xo'jakent
 3. Ko'lbuloq
 4. Qo'tirbuloq.
 5. Zirabuloq.
 6. Jarqo'ton.
 7. Qizil Nurota.
 8. Taxtakoracha.
 9. Omonqo'ton.
 10. Uchtut
5. Markaziy Osiyo hududida neandertal odami izlari topilishining tarixiy ahamiyatini ochib bering.

ADABIYOTLAR:

1. Asqarov A. O'zbekiston tarixi . - T, O'qituvchi. 1994.
2. Muxammadjonov A. O'zbekiston tarixi – T O'qituvchi.1996.O'zbekiston tarixi .- T,. Universitet. 1997 .

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. "Insonni mehnat yaratdi" degan gap to'g'rimi? Tushuntiring.
2. Antropologlar kim va ular qay yo'l bilan tarixchilarga yordam beradi?

Mavzu: Ibtidoiy inson jamoasining kelib chiqishi

Ajratilgan soat: 2

Mashg'ulot turi: ma'ruza

Asosiy savollar:

1. Ibtidoiy odamlar podasi. Jamoa arafasi.
2. Ibtidoiy to'da jamoasida mehnat, jinsiy munosabatlar
3. Ibtidoiy odam fikrlash va nutqining vujudga kelishi

Tayanch iboralar:

Ibtidoiy poda, ibtidoiy jamoa tuzumi, davrlashtirish, ovchilik, termachilik, mehnat rivojlanishi, matriarxat, ong, nutq.

1-asosiy savol:

Ibtidoiy odamlar podasi. Jamoa arafasi.

MAQSAD:

Ibtidoiy odamlar podasi to'g'risida tushuncha berish, ibtidoiy poda rivojida ovchilikning o'rnini ko'rsatish, ibtidoiy jamoa paydo bo'lishi haqida tasavvur hosil qilish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

- 1.1. Ibtidoiy odamlar podasini ta'riflaydi.
- 1.2. Ovchilikning ahamiyatini aniqlaydi.
- 1.3. Ibtidoiy podaning ibtidoiy jamoaga aylanishi kurtaklarini izohlaydi.

Dastlabki insoniyat jamiyatining rekonstruktsiyasi ibtidoiy tarixning eng mukammal muammosi hisoblanadi. U haqda faqat taxminiy ma'lumotlar asosida so'z yuritish mumkin. Bu, birinchidan, tarixchilarning maymunlarga xos bo'lgan to'da o'zaro munosabatlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ikkinchidan, arxeologiya va antropologiyaning ayrim dalillari, hamda insoniyatning eng qadimgi, sapiens (aqlli-idrokli odam)dan oldingi qoldiqlari sifatida tasavvur qilinishi mumkin bo'lgan etnografiyaning ayrim dalillaridir. Ushbu ma'lumotlarni solishtirish va tahlil qilish o'sha davrdagi ijtimoiy hayot

to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilishga imkon yaratadi. Albatta bunda mantiqiy taxminlar, bahsli qarashlarga katta o'rin ajratiladi.

Ko'p hollarda jamiyatning tashkil etilishining dastlabki formasini fanda "ibtidoiy odamlar to'dasi" deb yuritiladi. Bir vaqtning o'zida ayrim olimlar bu tushuncha noto'g'ri qo'llanilayotganligini aytib o'tishadi, ularcha o'zaro munosabatlarning to'dalik xarakteri ibtidoiy odamlar jamoalariga qarata aytiladi, shuning uchun ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarining biologizatsiyasi, vulgarizatsiyasiga olib keladi. Biroq bu fikr asoslanmagan fikrdir. "Ibtidoiy odamlar to'dasi" atamasi eng qadimgi va qadimgi odamlar tashkilotining dialektik o'ziga xosligini o'zida mujassam etib, uning hayvonlarning odamoldi to'dasi holatidan "tayyor", shakllangan jamiyatga o'tish holatini aks ettiradi. SHuning uchun ayrim tarixchilar "jamoadan oldingi" atamasini yuritadilar (praobvdina - Pershits A.I., Mongayt A.L., Alekseev V.P.).

Ibtidoiy odamlar to'dasi davrining xronologik chegaralarini ko'rib chiqsak, uning boshlanishi odamning hayvonlar olamidan ajralib chiqib, jamiyat tashkil topishiga to'g'ri keladi. Maqsadli, ya'ni biron-bir maqsadga qaratilgan) mehnat faoliyatining vujudga kelishi bilan odamning tabiatga munosabati o'zgaradi, bunda dastlabki odamlar jamoasidagi a'zolar o'rtasidagi munosabatlar ham o'zgaradi. SHunday qilib, ibtidoiy odamlar to'dasi davrining boshlanishi anglagan holda tayyorlangan va foydalanilayotgan mehnat qurollarining paydo bo'lishi davriga to'g'ri keladi. Ibtidoiy odamlar to'dasi davrining so'nggi sanasi esa uning "tayyor" odamlar jamiyati -urug'-jamoatuzumi bilan almashinuvi sanasiga to'g'ri keladi. 1930-yillar boshida P.P.Efimenko, P.I.Boriskovskiylarning taxmin 'qilishlaricha, ibtidoiy jamoatuzumiga so'nggi paleolit davrida o'tildi. Eng yangi arxeologik topilmalar buni inkor etmasdan, bu hodisa ilgariroq yuzaga kelishi mumkin degan fikrni ilgari suradi.

Tosh qurollarining taraqqiy etishi, insonning fizik tipining o'zgarishi hamda ibtidoiy jamoa asta-sekin vujudga kelishini hisobga olganda, jamoa arafasi, ya'ni ibtidoiy to'da zamonda harakat qilib turgan o'zgaruvchan forma ekanligini tan olishimiz kerak. SHuning uchun ham fanda eng qadimgi odamlarning ilk jamoa arafasini va neandertalliklarning so'ngii jamoa arafasini farqlaydilar. Ayrim olimlar esa neandertalliklarni "ibtidoiy jamoa" deb ham yuritishadi. Biroq bu masalada aniq bir to'xtamga kelinmagan.

Jamoatuzumi arafasi to'dasi odamlarning kichik guruhi bo'lgan. Negaki, katta guruh o'zini-o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlay olmasdi. Termachilikka ko'p vaqt sarflanib, bu usul bilan topilgan oziq ovqat yotmasdi va past kaloriyali bo'lgan. Yirik hayvonlarga ov esa qiyinchiliklar tug'dirardi, va doimo ham muvaffaqiyat bilan tugumasdi. SHuning uchun ham dastlabki ibtidoiy jamoa arafasi 20-30

kishidan oshmas edi. Jamoa arafasining(ibtidoiy poda) ning hayoti bir joydan boshqa joyga ko'chib yurgan ovchi va terimchi (ziroatchi)larning hayoti bo'lmasdan, balki o'troq hayot kechirgan to'dalar hayoti bo'lgan. Bu haqda CHjoukoudyandagi qazilma ishlari natijalari dalolat bermoqda. Evroosiyoning turli hududlarida ham ilk paleolit davriga oid g'or makonlari ham o'troqchilikdan dalolat bermokda. CHoraklik faunasining boyligi hamda tabiatdagi yashash uchun qulay bo'lgan g'orlar bu erda doimiy yashash uchun imkon yaratgan.

Ibtidoiy poda hayotida termachilik (ziroatchilik) va ovchilik ular hayotida asosiy o'rin tutgan. Ulardan qay biri ustun turganligini aytish qiyindir. Ularning nisbati turli fasl va turli geografik sharoitlarda turlicha bo'lgan deyish mumkin. Biroq ovchilik xo'jalikning taraqqiy etgan turi bo'lganligi shubhasizdir. Qazish ishlarida ochilgan madaniy qatlamlarda ko'plab yirik va mayda hayvonlarning suyaklari topilgan.

Inson ajdodlari to'da bo'lib yuradigan mavjudotlar bo'lgan bo'lsa ham, ularning xulqlari nafaqat to'daviy, balki barcha hayvonlardagi kabi egaistik reflekslar bilan ham belgilangan. Odam qurol yasashni o'rganganidan so'ng, to'da a'zolarining o'zaro urushlari ko'payib ketdi. Bular yakka janjallar bo'lib, ommaviy tus olmagan. CHunki ular ommaviy tus olganda, ibtidoiy to'da bugungi sotsial tashkilot haligacha tarakkiy etmasdi. Ibtidoiy to'dadagi egaistik formalar xulqning jamoa formalari bilan almashingan. SHuning uchun ham ibtidoiy to'da urug'chilik jamoaga o'sib o'tgan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ibtidoiy jamoa tuzumi - kishilik jamiyati tarixining boshlang'ich va tarkibiy qismi bo'lib, u juda katta davrni o'z ichiga oladi. Ibtidoiy jamoa tuzumining boshlang'ich davrida odamlar toshdan, yog'ochdan va suyakdan har xil qurollar yasab, oddiy termachilik va ovchilik bilan kun kechirganlar o'zlari biror narsa ishlab chiqarmaganlar. Ularning turmush tarzi oddiy bo'lib, bu davrda boy va kambag'al bo'lmagan. Ular har jihatdan tabiat ne'matlariga qaram bo'lishgan. Odamlar g'or, ungur va chakalakzor hamda qamishzorlarda yashab tunaganlar.

Ibtidoiy jamoa davri kishilari ibtidoiy to'da va urug'-aymoqchilik deb atalgan ikki davrni o'z boshlaridan o'tkazganlar. Ibtidoiy odamlarning o'zlari esa eng qadimgi,qadimgi va Hozirgi zamon kiyofasidagi alohida guruhlariga bo'linishgan. Urug'-aymoqchilik davriga kelib negr, mo'g'ul va evropoid irqi paydo bo'la boshladi. Urug'-aymoqchilik jamoasiga o'tish bilan odamlarning yashash tarzi o'zgarib, Er yuzining ba'zi joylarida termachilikdan deqkonchilikka, ovchilikdan chorvachilikka o'tila boshlangan. Asta-sekin hunarmandchilik ham paydo bo'lgan va rivojlangan. Odamlar kulolchilikni, uysozlikni, suvda suzadigan qayiqlarni, kamon o'qlarini, ip yigirish charxini

kashf etganlar, mato to'qishni, undan keyin kiyim bosh tayyorlashni o'rganib olishgan. Olovning kashf etilishi ibtidoiy odamlar xayotida alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Insoniyatning eng qadimgi ajdodi turli evvoyi hayvonlar qurshovida yashagan. Har bir jonzot ovqat bilan tirik, jonivorlar bir-birini tutib eydi. Odamlar ham tabiatdagi hayvonlar va mevalar bilan ovqatlanadilar. Hayvonlarni ovlash va mevalarni qoqish ularning ildizlarini kavlab olish uchun qurollar kerak bo'lgan. Eng qadimgi odamlar dastlab oddiy tayoq va toshlardan uzoq vaqt foydalanib kelishgan. Keyinchalik tosh va yog'ochdan ov hamda mehnat qurollari yasashgan. Chunki oddiy tumtoq tosh bilan hayvon terisini shilish, kesish, go'shtni nimta va bo'laklarga ajratish mumkin bo'lmagan. Ildizida mevasi bor o'simliklarni kovlab ham bo'lmagan. Odamlar oddiy chaqmoqtoshni olib, uni boshqa tosh bilan urib, uchi va yonini kertib o'tkir tosh qurollar yasaganlar. Bunday qurollar yordamida ular ildizlarni kovlaganlar, hayvonlar terisini shilib, go'shtini bo'laklarga ajratganlar, hayvonlarni urib o'ldirganlar. Oddiy qo'l cho'qmori eng qadimgi odamning zarur va dastlabki mehnat qurollaridan biri edi. Bunday qurollar qadimgi manzilgohlardan topilgan. YOg'ochdan yasalgan qurollarning eng qadimgisi so'yil va uchi nayza tayoqdir. Bu davr kishilari tosh va yog'och qurollaridan boshqa guruhlar bilan makon, emish va o'lja talashib yurishganlarida ham foydalangan. YOg'och qurollar erda chirib, bizgacha etmagan.

Eng qadimgi odamlar yasagan va foydalangan qurollar arxeolitlar deb ataladi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Ibtidoiy poda yoki jamoa arafasi tushunchasini ta'riflang.
2. Nima uchun qadimgi odam yolg'iz bo'lganda yashay olmasligini ayting.
3. Ibtidoiy podani fanda boshqa nomlanishlarini ko'rsating:
A. neandertal V. urug'chilik jamoasi
S. ibtidoiy to'da D. Jamoa arafasi
E. S va D javoblari to'g'ri
4. Ibtidoiy poda xo'jalik turlarini ko'rsating
A. kulolchilik, ziroatchilik V. dehqonchilik, xunarmandchilik
S. ziroatchilik, ovchilik D. Baliqchilik, ovchilik
E. Ovchilik, dehqonchilik
5. Ibtidoiy to'da hayotida ovchilikning o'rnini baholang,
6. Ibtidoiy odamlar to'dasi davrining xronologik chegaralarini

2-asosiy savol:

Ibtidoiy to'da jamoasida mehnat, jinsiy munosabatlar

Maqsad:

Ibtidoiy to'da jamoasida mehnatning rolini tushuntirish, jinsiy munosabatlarni ta'riflab berish, ibtidoiy oila tushunchasini izohlab berish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

- 2.1. Ibtidoiy to'dada mehnat va uning o'rnini tushuntiradi.
- 2.2. Ibtidoiy to'dadagi jinsiy munosabatlarni izohlaydi.
- 2.3. Qon-qarindoshlik oila haqida tushunchaga ega bo'ladi.

Insonning hayvonot olamidan ajralib chiqishi mehnat tufayli bo'lganligi ma'lumdir. Mehnat o'zidan o'zi insonning tabiatga jamoa tarzida ta'sir etish formasi bo'lgan. Hatto eng oddiy mehnat turlariga o'tish faqat jamoada bo'lishi mumkin edi, ya'ni xulq-atvorning ijtimoiy formalari sharoitlarida mumkin edi. SHuning uchun ham ibtidoiy jamoa tarixi va antropogenezning ilk bosqichlarida oziq-ovqatni topish va taqsimlashda hayvoniy egaizmni bostirish kelib chiqqa boshlagan. Bu jarayon tabiiyki, aynan o'zaro yordam va aloqalar mustahkam bo'lgan jamoalarning boshqa to'da va tabiiy ofatlarga qarshi tura olishga va yashab kelishga imkon bergan.

Hayvoniy egaizmni yo'q qilish ayniqsa muste davrida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ibtidoiy to'dadagi tabiiy va ijtimoiy jihatlar kurashining asosiy yo'llaridan biri jinsiy munosabatlar bo'lgan. Bu sohada hayvoniy instinktlar ayniqsa kuchli namoyon bo'lib, rivojlanib borayotgan jamiyat tomonidan qattiq ta'sirga uchragan. Ma'lumki, hozirgi davrda primatlarning ayrim turlari, masalan shimpanze maymunlari, to'da bo'lib yashab, unda ayrimlari juft oila bo'lib yashasa, boshqa birlarida bitta katta erkak jinsidagi maymun qolib bir nechta urg'ochi jinsidagi maymunlar bo'ladi. Ibtidoiy to'dadagi jinsiy munosabatlar ham ushbu munosabatlarga o'xshash bo'lgandir. Urg'ochilar uchun ko'plab janjallar kelib chiqadi. SHuning uchun ham ayrim olimlarning fikricha, ibtidoiy jamoa faqatgina unda zoolik oilalarni birlashtirgan va katta yoshdagi erkaklarni o'zaro bir birini chidagan holdagina, ya'ni tartibsiz jinsiy munosabatlarning o'rnatilishi yoki promiskuitetning o'rnatilishi sharoitida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan. Hozirgi kunda ham ayrim qoloq qabilalarda promiskuitet bayramlari nishonlanib keladi.

Biroq, boshqa fikrga ko'ra, ibtidoiy to'da hayvonlardan haramlik oilaviy munosabatlarni merosga olgan bo'lib, jinsiy hayot reglamentlashtirilgan edi.

1. Pershits A., Mongayt A., Alekseev V.P. Istoriya pervobitnogo obshchestva. - M, 1967
2. Alekssev V.P. Stanovlenie chelovechestva. - M., 1984
3. Semenov YU.A. SShoisxojdenie braka i semi. – M., 1974

Mavzu: ANTROPOGENEZ JARAYONINING YAKUNIGA ETISHI

Ajratilgan: 2

Mashg'ulot turi: ma'ruza

Asosiy savollar:

1. Ongli odamning va irqlarning paydo bo'lishi.
2. Ma'naviy madaniyatning vujudga kelishi.

TAYANCH IBORALAR:

Paleolit, ongli odam, aql-idrokli odam, irq, matriarxat.

1-asosiy savol:

Ongli odamning va irqlarning paydo bo'lishi

MAQSAD:

Ongli odam va irqlarning paydo bo'lishi jarayonlarini anglatish, irqlarning paydo bo'lishi jarayonini tavsiflash.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

- 1.1. Ongli odamning paydo bo'lishi jarayonini anglaydi.
- 1.2. Irqlarning paydo bo'lishi jarayonlarini izohlaydi.

Qadimgi tosh davrining so'nggi bosqichi ibtidoiy jamoa tuzumini arxeologik davrlashtirishda yuqori paleolit nomi bilan ataladi. Olimlarning fikricha, bu davr bundan 35-40 ming yillar oldin boshlanib, miloddan avvalgi 12-10 ming yillikkacha davom etgan. Paleolitning muste bosqichi o'z o'rnini uning yuqori paleolit bosqichiga bo'shatib beradi. Ibtidoiy to'da davrining vayronalarida kishilik jamiyatining dastlabki bo'g'ini - ibtidoiy jamoa tarqib topadi. Ibtidoiy to'dadan ibtidoiy jamoaga o'tishda toshdan mehnat qurollari yasash texnikasida, ibtidoiy xo'jalik shakllarida, ibtidoiy odamning turmush tarzida, ularning ijtimoiy munosabatlarida, dunyoqarashida, hatto odamning jismoniy tuzilishida ham keskin o'zgarishlar yuz beradi. Masalan, bu davr odamida peshona va pastki jag' shakllanadi. Qosh osti burtmasi yuqoladi. Bu davr odamlarining suyaklari neandertallarniki singari yirik emas, qo'l, oyoq xarakatlarida chaqqonlik seziladi. Xullas, hozirgi odamlarning jismoniy xususiyatlari ularda to'liq aksini topgan. Olimlar bu davr odamiga aql-idrokli, ongli odam deb nom berdilar. Antropolog olimlarning ilmiy kuzatuv

ishlariga ko'ra. Keyingi 35-40 ming yillar davomida odamzodning biologik, jismoniy tuzilishida sezilarli o'zgarish bo'lmagan.

YUqori paleolitda hozirgi zamon tipidagi odamning shakllanishi bir vaqtning o'zida ovro'pa, negr va mug'ul bashara irqalarining paydo bo'lishiga olib keldi. SHuni alohida qayd etish kerakki, odamlar orasidagi irqiy tafovut - bu inson hayoti va uning tabiati sirlarini bilib olish qobiliyati bilan bog'liq bo'lmagan ikkinchi darajali ko'rinishdir. Ular bir-birlaridan terisining rangi, soch va ko'zlarining shakli va rangi musquullarning katta-kichikligi, bosh suyagining shakli va boshqa belgilaridan farq qiladi. Ularning barchasi uchun pitekanthrop, sinantrop va neandertal taraqqiyot bosqichlarini o'tish joiz bo'lgan va odamzodning aql-idrokli odam bosqichini uch irqning har bir davrda bosib o'tgan.

Ovro'pa irqi odamlari fanda kromanon odami nomi bilan yuritiladi. Bu tip asosan Ovro'pada yashagan. Kromanon odam baland buyli, qomatli, bosh suyagi va yuzi uzunchoq, terisining rangi oq, ko'zlari ko'k, sochlari sariq bo'lib, Ovro'poning mavjud tabiiy sharoiti bu tipni ana shunday alomatlar bilan shakllanishini ta'minlagan. Uni hozirgi kunda evropeoid deb atashadi.

Negr irqi odamlarining bo'yi kromanonlardan pastroq bo'lib, elkasi keng, boldir suyagi uzunroq, tishlari oldinga bo'rtib chiqqan, pastki jag'i uncha rivojlanmagan. Sochlari jingalak, qizg'ish qora rangda labi yug'on bo'lgan. Bu tip ajdodlari asosan Afrikada tarqalgan. Ularning ayrim vakillari yuqori paleolitning so'nggi bosqichida Ovro'paning ba'zi bir punktlarida uchraydi. Olimlar bu holatga baho berib, Afrika aholisining ayrimlari Italiya orqali Ovro'paga, hatto Ukrainaga kirib kelganligini qayd qilgan. Olimlar ular sochlarini jingalak, terilarini qizg'ish qora, lablarini va yuqori jag' tishlarini bo'rtib chiqishini Afrikaning issig'i bilan bog'laydilar.

Mug'ul irqi asosan shimoliy, markaziy va sharqiy Osiyo uchun xarakterlidir. Bu irq vakillari Krasnoyarskdagi Afantova g'orida, SHimoliy va Janubiy Xitoyda topilgan. Mug'ul irqining shakllanishida Osiyoning beto'xtov esib turuvchi izgin quruq sovuq shamoli, Markaziy Osiyo dashtlari va YAkutiya rayonlaridagi uzoq muddatli oppoq qorlar, umuman, bu mintaqaning tabiiy-geografik sharoiti muhim rol o'ynaydi. Mug'ul irqi vakillari past buyli, bosh suyagi yumaloq bo'lgan. Ular yuzlarining keng va qisqa, ko'zlarining qisq bo'lishida kuchli izg'irin shamoli va uzoq muddatli oppoq qor qoplamasiga tushgan quyosh nurlarining aksi sabab bo'lgan.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Ongli odam bosqichida paydo bo'ldi
A. neolit V. bronza davri S. quyi paleolit
D. O'rta paleolit E. So'nggi paleolit
2. Irqlar _____ paydo bo'ldi
A. quyi paleolit V. muste S. o'rta paleolit
D. So'nggi paleolit E. Ilk temir davri
3. Irqlarning Er yuzida tarqalishini tavsiflang
4. Irqlarni umumiy belgilarini qiyoslang

2-asosiy savol:

Ma'naviy madaniyatning vujudga kelishi

O'qituvchi maqsadi:

Ibtidoiy odamlar moddiy va ma'naviy madaniyati haqida tushuncha berish, ibtidoiy odamlar madaniyati haqida ma'lumot beruvchi yodgorliklarni ko'rsatish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

- 2.1. Qadimgi odamlar moddiy madaniyati haqida tushunchaga ega bo'ladi.
- 2.2. Ibtidoiy odamlar ma'naviy madaniyatini tavsiflaydi
- 2.3. Ibtidoiy odamlar madaniyati haqida ma'lumot beruvchi yodgorliklarni aniqlaydi.

Ibtidoiy jamoa xo'jaligining rivojlanishida mehnat qurollari ishlab chiqarish va ulardan xo'jalik yuritishda foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Mehnat qurollari yasashda avvalgidek chaqmoqtosh, absidian va bazalt kabi toshlar asosiy xom ashyo bo'lib qolaveradi. Bu sohadagi asosiy o'zgarish toshdan mehnat qurollar yasash texnikasida sodir bo'ladi. Masalan, muste davridagi disksimon tosh yadro (nukleus, asos) o'rnida , uzunchoq shakldagi yadro paydo bo'ldi. Yangi shaklning paydo bo'lishi yangi tipdagi mehnat qurollari va ularni ishlash texnikasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq edi. Endi toshdan uchirma usuli bilan emas, balki yunish texnikasi yordamida keskir qirrali uzunchoq tosh paochalaoi (prizma shaklidagi) otlinib, ulardan pichoq va qirg'ich sifatida (kesuvchi va shiluvchi) mehnat qurollari yasaladigan bo'ldi. Tosh qurollarining turi va vazifa doirasi kengaydi, chaqmoqtoshdan har xil kesuvchi , arralovchi, shiluvchi, teshuvchi mehnat qurollari yasaladigan bo'ldi.

YUqori paleolitning so'nggi bosqichida tosh qurollari orasida chaqmoqtoshdan yasalgan nayza uchlari, suyakdan yasalgan ko'p tishli garpunlar paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Tosh qurollar yordamida

hayvonlarning shox va suyaklaridan mehnat qurollari yasash joriy etildi. Suyak bilan ishlash jarayonida birinchi bor tasviriy san'at namunalarini yasash kashf etildi. Suyakdan turli taqinchoqlar yasash kashf etildi, suyak ustiga turli rasmlar solish va suyakdan jamoaning boshlig'i, eng nufuzli a'zosi bo'lgan onalarni ilohiylashtirishga qaratilgan haykalchalarni yasash odat tusiga kirdi.

Qadimgi rassom va haykaltaroshlar birinchi navbatda homilador ayollar rasmini chizdi va haykalchasini yasadi. Yirik hayvonlar rasmini chizib, ov manzaralarini tasvirladilar. SHunday qilib, yuqori paleolit davrida ibtidoiy tasviriy va amaliy san'at paydo bo'ldi.

Bu davr xo'jaligida ovchilik, birinchi navbatda yirik hayvonlarni ov qilish alohida kasb etgan. Mehnat qurollari orasida o'tkir uchli nayzaning kashf etilishi ovdan keladigan kundalik tirikchilik daromadining keskin darajada ko'payishiga olib keldi. Ibtidoiy ovchilikda avvalgidek yirik hayvonlarni tik jarliklarga ag'darish yoki maxsus chuqurliklarga haydash usuli keng qo'llanilgan. Hayvonlarga cho'qmoq, nayza, sanchqi otish yo'li bilan ov qilingan. Masalan, Irkutsk yaqinida yuqori paleolit davriga oid Malta qarorgohidan 400dan ortiq shimol bug'ularining suyaklari topilgan. Donetsk havzasidagi boshqa bir yodgorlikdan 1000ta zubr suyaklari topilgan. Kiev hududidagi Kirillov qarorgohidan ko'plab mamont suyaklari topilgan. Va xk.

Baliq ovi xo'jalikda asosiy rol o'ynamasa, bu sohaning kashf etilishi ibtidoiy xo'jalik uchun katta ahamiyat kasb etar edi.

YUqori paleolit davrining yana bir xususiyati shuki, ibtidoiy odamlar o'zlariga yashash uchun doimiy kulbalar qurishni kashf etdilar. Ularni yasashda hayvon suyaklaridan ham foydalanishgan. Ovro'pa va Sibirda yuqori paleolit davriga oid yodgorliklardan 200ga yaqin kulba topilgan. Ular odatda aylana shaklida bo'lib, ularning o'rtasida o'choq joylashgan.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Tosh davrida mehnat qurollari yasashda asosiy xom ashyo bo'lib _____ xizmat qilgan.
2. Paleolit davriga oid yodgorliklardan qaysilarni bilasiz?
3. Ilk tasviriy san'at, haykaltaroshlik qaysi davrga oidligin kursating.
A. ilk paleolit V. o'rta paleolit
S. so'nggi paleolit D. Bronza E. Ilk temir
4. Tosh davri madaniyatiga tavsif bering.

ADABIYOTLAR:

1. Pershits A., Mongayt A., Alekseev V.P. Istoriya pervobmntnogo obshestva. - M., 1967
2. Stolyar A.D. Proisxojdenie izobrazitel'nogo iskusstva. - M.

Mavzu: Ilk urug' jamoasi

Ajratilgan soat: 2

Mashg'ulot turi: ma'ruza

Asosiy savollar:

1. So'nggi paleolit davrining tabiiy sharoiti va xo'jalik o'qlari.
2. Hozirgi zamon odamining paydo bo'lishi
3. Urug'ning vujudga kelishi.

TAYANCH IBORALAR:

Madlen davri, so'nggi paleolit, nayza irg'itgich, orinyak va gyutre madaniyati, turar joylar, urug'lar ta'rifi, enzogamiya, endogamiya, matrilokal joylashuv, dispokal joylashuv, irqalar, zmanonlar, irqchilik nazariyasi. Qarindoshlik munosabatlari, oilaning vujudga kelishi

MAQSAD:

So'nggi paleolit davrida ovchilik terimchilik va baliqchilik xojaliklarida qo'lga kiritilgan yutuqlarni, yaratilgan yangi mehnat zollarini ta'riflash, antropogenez jarayonini nixoyasiga etishi va shrgi jismoniy tipdagi odamning shakllanishini ta'riflab, insoniyat ijtimoiy birligining qon-qardoshlikka asoslangan urug'chilik bosqichiga etganligini tushuntirish

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

1. So'nggi paleolit davrida yaratilgan yangi mehnat qurollarini biladi
2. Xo'jalik yutuqlarini o'rta paleolit davridan farqlay oladi.
3. Hozirgi zamon jismoniy tipdagi odamni antropologik va ijtimoiy jihatlarini ta'riflaydi.
4. Urug'lar ta'rifini va asosiy xususiyatlarini biladi.
5. Urug'chilik tuzumi davrining ijtimoiy jihatlarini tushunadi.

ADABIYOT

1. YA.YA. Roginskiy. Problemn antropogeneza. M. 1969.
2. YU.I. Semenov. Kak vozniklo chelovechestvo. M. 1966.

3. V.B. Alekseev. Stanovlenie chelovechestva. M. 1984.
4. Dj. Konstebl. Neandertalts1. M. 1978.
5. "Rodovoe obvdestvo" Sb. TIET 25. M. 1955.
6. A.I. Perixits. "Istoriya pervobshtnogo obvdestva". M. 1974.
7. Qadimgi dunyo tarixi. 1 qism. Toshkent, 1974.

Keyingi paleolitning (40 ming yildan 14 ming yilgacha ilgari) tabiiy sharoitlari, odamning mehnat qurollari, turar joylari va o'rnashishlari. Keyingi paleolit vyurm muzlanishi davriga oid deb hisoblanadi. Vyurm muzliklari riss muzliklariga qaraganda kichikroq telitoriyani egallagan (Evropada bu muzliklar faqat Baltika dengizi havzasini va unga tutashib turgan rayonlarni qoplab olgan). Lekin muzliklar boshlanishi bilan birdan qattiq sovuq tushgan. SHimoliy Evropada, Osiyo va Amerikada iqlim quruq va juda sovuq iqlimga aylangan. Madlen davrida eng sovuq iqlim bo'lgan. Keyingi paleolit yaqin bo'lgan Evropada va SHimoliy Evropada yaxshiroq o'rganildi. Evropaning Atlantika buyi qismidagi muzliklarga yaqin bo'lgan oblastlari uchta izchil arxeologik madaniyat orinyak, salyutre va madlen madaniyatlari bilan ko'rsatildi. Orinyak madaniyati bilan bir zamonda pirigar madaniyati (Frantsiyada Perigor platosidagi g'orlaridan topildi), Grimaldi madaniyati (Italiyadagi Grimaldi g'ori) va kostyonki madaniyati (Voronej yaqinidagi Kostyonki qishlog'i) mavjud bo'lgan. Sibir turar joylari: Malta (Oq daryoda) va Buret (Angar; daryosida) zamon jihatdan solyutre madaniyatiga, Afontov tog'i turar joyi (Krasnoyarsk yonidagi Enisey daryosida) madlenga muvofiq keladi Sahroi Kabirda Tassimi platosida madlendagi garpunlarga o'xshash garpunlar topilgan. G'arbiy Evropadagi kabi, Janubi-SHarkiy Osiyoda ham keyingi paleolit aralash madaniyatlari bo'lmagan. U erda va neolitgacha ilk paleolit qiyofasidagi madaniyatlar mavjud bo'lgan.

Keyingi paleolitga xos xususiyat shuki, unda shakl jihatdan xilma-xil, ishlanishi buyicha angcha takomillashgan va xizmati (vazifasi) jihatdan moslangan (ixtisoslashtirilgan) mehnat qurollari mavjud bo'lgan; bu qurollar ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishidagi sakrashni (katta o'zgarishni) ko'rsatadi. YUqori paleolit turar joylarida keskichlar, tarashlagichlar, yung'ichlar pichoklar, teshkichlar, tillar, mayza uchlar, chanchak (sanchki), mayzalar manza irg'itgichlar, garpunlar, ko'zli ninalar, pardozlagich, teshikli suyak kassalar, "yulboshchilar xassalari", "boshliqlar hassalari", nomlari bilan ma'lum, mayza soplarini, mayazalar kamon o'qlarini to'g'rilash uchun ishlatilgan moslamalar topilmoqda.

YUqorida sanab chiqilgan qurollardan faqat turli tuman tipdagi ikkita qurol keskichlar va tarashlagichlar eng muhim qurollar bo'lgan Odamlar

keskichni qurollar ishlab chiqarish uchun yaratishgan. Katta materiallardan (suyak va mugizdan) qurollar yasashda keskichda foydalanishgan.

Tarashlagichlar bilan yumshoq materiallar (teri, yog'och)ga ishlov berilgan. Tarashlagich muste tarashlagichidan farq qilib, ish bajaruvchi yoysimon qismi bo'lgan, uzun plastinadan iborat.

Ba'zi bir qurollar qulay bo'lishi va ularning durust ishlashi uchun bu qurollarga gardishlar va sop (dasta)lar o'rnatilgan. Sop chaqmoqtoshga bog'lab quyilgan. SHu tariqa sostavli (tartibli) qurollar paydo bo'lgan; bunday qurollardan foydalanishga o'tish qurol yasasa texnikasini rivojlantirish va murakkablashtirishda muhim bosqich bo'lgan. Mayaza irg'itgich odamlarning kuchini to'ldiradigan birinchi mexanik vosita bo'lgan.

Toshga ishlov berish texnikasi ancha ilgarilab ketdi. Eski parchalash (o'shatish) texnikasining takomillashib borgani ko'riladi. Sindiriladigan plastinalar Muste davridagi uchburchak plastinalardan farq qilib, yupqa va uzunroq plastinalar bo'la boshlagan, nukmuslar esa mustedagi gardish(disk)smimon nukmuslar o'rnida prizmasimon shaklga kirgan. Qurollar ishlashning yangi usuli -qurolni simmetriyalash (munosib qilish) va uning ish bajaradigan chetini o'tkirlashtirish uchun toshga ikkilamchi ishlov berishda ko'llaniladigan sikcha (otjim) retush keng tarqalgan. Siqish texnikasi toshni ingichka suyak tayoqcha bilan sekin bosib, undan yupqa tangachalar (parchalar) ajratib olishdan iborat. Asosan faqat suyani kesish usuli vujudga keladi. Keyingi paleolitda qurollar yasash uchun hayvon suyaklari va shoxlaridan keng foydalana boshlaganlar.

Qurollarning turlari buyicha orinyak va salyutre madaniyatlari bir-biridan farq kilmaydi. Ularning ishlanishdagina tafovut ko'zga tashlanadi. CHunonchi, salyutre davridagi sixma retush yuqori darajada takomillashgan. Faqat chetlarigina emas, balki butun sirti xal retush bilan ishlangan dafma bargisimon va tol bargsimon nayza uchlari buning dalili bo'lib xizmat qiladi. Madlen madaniyati sikma retush usulining yo'q bo'lib ketishi, suyak qurollarning ko'p bo'lishi, mayda keskichlar va garpunlarning keng tarqalishi bialan xarakterlanadi.

Keyingi paleolitdagi ovchilik va terib-termachlab ovqat topish tirikchilik manbalari bo'lib qola bergan. Baliq ovlash yuzaga kelgan. Er sharidagi turli rayonlarida bu mashg'ulotlarning roli xilma-xil bo'lgan. Ularning roli tabiiy sharoitlariga bog'liq bo'lgan. Masalan muzliklarga yaqin mintqada ovchilik, Janubi SHarqiy Osiyoda esa terib-termachlab ovqat topish aholining asosiy mashg'uloti bo'lgan. Arxeologlar mashg'ulotlarning yunalishiga mehnat qurollarining shakllari va ularni yasash texnikasiga, shuningdek turar joylarning xususiyatlarga qarab, keyingi paleolitda madaniyat taraqqiyotidagi uchta katta

oblastni: Evropadagi muzlikka yaqin bo'lgan oblast, O'rta dengiz -Afrika oblasti (Afrika, Pireniya, Apennin, Balkan va Qirim yarim orollari, Kavkaz, sekin SHarq) va Sibir-Xitoy oblastini ajratib ko'rsatadilar. Oblastlar doirasida bir-biridan oz farq qiladigan mahalliy madaniyatlar borligi ko'rsatib o'tildi. Masalan, Evropadagi muzliklarga yaqin oblastdagi G'arbiy Evropa Atlantika bo'yi madaniyati Markaziy Evropa va rus tekisligi aholisining madaniyatidan ba'zi bir o'ziga xos madaniyatlari bilan farq qiladi.

Muzliklarga yaqin oblastlardagi orinyak va salyutre madaniyatlarini yaratuvchilar mamont, serjun karkidon va yovvoyi otlarni ovlashgan. Madlen zamonida G'arbiy Evropada shimol bug'usi ovchilikning asosiy ob'ekti bo'lgan. Turar joylarda mamont suyaklari kam va birta-yarimta uchraydi. G'arbiy Evropada orinyak-salyutre zamonida mamontlar va karkidonlar haydab kelib ovlash usuli bilan ko'p darajada kirib yurilgan. SHarqiy Evropa va SHimoliy Osiyoda mamont butun madlen madaniyati davomida ko'p uchraydi. Mazkur keng oblastlarda keyingi paleolitla aholi zichligi kamrok bo'lgan. SHuning uchun ovchilar mamontlarni G'arbiy Evropadagi kabi darajada qirib yubora olishmagan.

Manzillarda yashovchi odamlar egan hayvonlarning soniga qaraganda, keyingi paleolit zamonida ovchilik muvaffaqiyatli bo'lgan. Masalan, arxeologlarning hisoblashlariga ko'ra, Prjedmostda (CHexoslovariya) 1000 ga yaqin mamont suyaklari, Axmrosiyovkada (Ukraina) 1000 tacha biroz (yovvoyi ho'kiz) suyaklari Salyutreda qariyb 10 ming ot suyaklari topilgan yalpi uyushqoqlik bilan haydab kelib qilingan bu ov mustaedagiga nisbatdan ancha unumli bo'lgan. Hayvonlarni haydab kelib qilingan ovni manzillar topografiyasi tasdiqlaydi. Ular jarliklarga kelib yaqin o'rnashgan. Haydab kelish usullari takomillashtirilgan. Hayvonlarni faqat jarliklarga va botqoqlargagina emas, balki oldindan qazib quyilgan chuqurlarga olov yordamida haydab kelishgan. Muzliklar yonidagi zonalar olisda (Urat dengiz - Afrika oblasti, O'rta Osiyo) odamlar qoplonlar, tog' echkilari, kosulyak-bug'ular, ohular va yirtkich hayvonlarni ovlashgan. Ularning hayotida terib-termachlab ovqat topish muzlik yaqinidagi Evropa aholisining qaraganda ancha katta o'rin tutgan. Baliq tutishning boshlanishi orinyakka oid deb hisoblanadi. Maldenda uning roli onga borgan. Baliqlarni extimol, qirg'oqdan tutib suyak garpunlar va chanchaklar bilan ovlashgan bo'lsa kerak, chunki o'sha hamonda qayiqalar ham, qarmoqlar ham, turlar ham hali bo'lmagan.

Keyingi paleolit odamlari g'orlardan turar joy tariqasida foydalanishgan va tabiiy sharoitlariga qarab o'zlari turar joylar: bostirmalar, chayla-kapalar, isitiladigan er to'lalar (o'rtasida bitta uchog'i bo'lgan kichik-kichik cho'zinrok va bir necha o'choqli uzun er to'lalar) qurishgan. Muzlik yaqinidagi zonada

doimiy qishki turar joylar (erto'lalar)ning va manzilgohlarda madaniy yotqiziqlar qalin qatlamiy mavjud bo'lishi ayniqsa stinyak-salyutoe zamonida UZOQ davom etgan o'troqlikdan dalolat beradi. Odamlar hayvonlarni qirib bitirgungacha bir joyda yashaganlar, keyin esa turar joylarini yangi erlarga kechirib olib borganlar. Madlenda odamlarning ancha xarakatchan hayot kechirganlari ko'riladi, bu narsa ko'chib yuradigan shimol bug'ularini ovlash bilan bog'liqdir (ular qishda janubda yashab yozda shimoldagi tundra yaylovlaricha ko'chib ketishadi). SHu sababdan madlen manzilgohlaridan madaniy qatlam yupqaroqdir. Muzliklardan uzoqdagi janubiy oblastlarda doimiy turar joylar bo'lmagan, chunki odamlar ko'chmanchi bo'lmagan.

Mehnat unumdorligining osha borishi va turmush sharoitlarining ancha yaxshilanishi tufayli aholining zichligi orta borgan, shu bilan birga hayvonlarni ko'plab haydab kelib ovlash kuchaydi. hayvonlarning kirg'in qilib bitirilishi sababli odamlarning ovchilik uchun yangi rayonlarning o'zlashtirishlariga tug'ri keladi. SHu tufayli ular shimol tomonga siljib borishga majbur bo'lishgan. Evropada odam Baltika bo'yigacha kirib borgan, va o'sha erda o'rnashganlar. ma'lum bo'lgan keyingi paleolit manzilgohlaridan eng shimoliysi Pechoradadir (Medvejya g'ori). Keyingi paleolitda odam Osiyodan bering bo'g'ozi orqali Amerikaga kirib borgan (hozirgi vaqtda Bering bo'g'ozining kengligi 85-86 km, ilgari, ehtimol bo'g'oz tarroq bo'lgandir yoki materiklar quruqlik bilan tutashgan bo'lsa kerak), u Avstraliya ham kirib bora boshlagan.

Hozirgi tipdagi odamning va dastlabki irqiy farqlarning paydo bo'lishi

Keyingi paleolit davrida hozirgi jismoniy tipdagi odamlar shakllanadilar, odamlarning voyaga etish protsessi tugaydi. Odamning vujudga kelishi tikka yurishi, uni qo'l bilan ish-xarakat qilish va tafakkurning rivojlanishiga, aniq nutqning o'sishiga imkon bergan mehnat faoliyatining to'xtovsiz murakkablashuvi bilan, go'shtni ovqat salmog'ining (dastlabki odamlarning paydo bo'lishidan boshlab) tabora oshuvi bilan, gala a'zolari o'rtasidagi jinsiy munosabatlarning avval boshda cheklanishi, keyinroq esa man qilinishi, yaqin qarindosh bilan jinsiy aloqada bo'lish zararining bartaraf etilishi, ya'ni nikohda ekzogamiya (grekcha exo - "tashqari", gamos - "nikoh") tartibining joriy qilinishi bilan bog'liqdir. ekzogamiyada bir guruh odamlar kollektivining erkaklari bilan boshqa odamlar kollektivining ayollari nikohlangan.

Keyingi paleolit odami asosan Evropada, Osiyo va Afrikada shakllangan - etilgan evropeoid, mongoloid va negroid irqi orqali govdalantirilgan. Evropeoid irqi koromononliklar orqali govdalantirilgan. Mongoloidlarning

belgilari 1937 yili Krasnoyarsk yaqinidagi Afontov II tog'i manzilgohida topilgan bosh suyaklarida ayon bo'ldi. Grimaldikliklar negroid irqining vakillaridir. Analiz qazilma odamlar o'rtasidagi irqiy farqlar hozirgi zamon irqlariga mansub bo'lgan odamlar o'rtasidagi farqlarga qaraganda uncha yaqqol ko'rinmaydi.

Irqi ayirmalar ming yillar davomida mahalliy sharoitlarning odamlarning tashqi qiyofasiga ta'siri ostida shakllana borgan. bu protsessda temperatura va havoning namligi, shamollar, quyosh yorugligi kabi omillar rol o'ynagan. Markaziy Osiyoda uning cho'l-dasht landshaftida, charaqlagan quyosh yorg'uligi bilan almashinib turadigan kuchli va uzoq davom etadigan shamollar, qum bo'ronlari sharoitlarida shuningdek, Osiyoning Arktika rayonlarida, aks etgan yorug' ko'zga kuchli ta'sir qiladigan sharoitda yashagan odamlarda mongoloid irq xususiyatlari tarkib topgan. Mongoloidni qum va changdan, yorqin nur va muzlab qolishdan himoya qiluvchi vositalar sifatida uning yuzida burtgan qovoqlar (ko'zlarning doimo qisimishi va qovoqlarning zo'r berib ishlashi orqasida muskul to'qimasi hajmining kattalashishi sababli), ko'zning ichki burchagi bilan yoyish burtmasini bekitadigan teri burmasi (epikantus), ko'zning tor oralig'i, yuzida kattagina yog' qatlami paydo bo'lgan. YAssi kanshar burun bo'shlig'ida sovuq havoning bemalol aylanib yurishini qiyinlashtirgan.

Baland temperaturali va sernam tropik iqlimida tarkib topgan negroid irqi odamni oftobda kuyishdan saqlaydigan juda kora tan (alohida pigment - melanina) mavjud bo'lishi, boshni ortiqcha qizishdan saqlash uchun jigalak soch, organizmdan issiqlik chiqarishni kuchaytiradigan yapaloq burun qalin lablar bilan xarakterlanadi.

Geografik muhitga moslashuvchanlik odamning biologik xususiyatlarga (miya tuzulishi, oyok yuzi, qo'l panjalari va shu kabilarga) dahl qilmagan. Odamlarning tashqi jismoniy xususiyatlari nasidan-naslga meros bo'lib qolar va yakkalanish (izolyatsiya) rasogenezning ikkinchi omili natijasida mustahkamlana borar edi. O'sha zamonda aholining zichlik darajasi past bo'lgan. Odamlarning nisbiy geofafik va madaniy yakkalikda yashaganlar, shu tufayli dastlab mana shu uch kontinent (materik) territoriyasida bir xil tashqi jismoniy belgilar barqarorlashgan. Keyingi geografik yakkalanish kamayishi bilan hayot sharoitlarini passiv biologiya moslanish o'zining ilgarigi ahamiyatini yo'qotgan va yangi (kichik) irqlar metisizatsiya, ya'ni dastlabki uchta katta irqlar aralashib ketishi natijasida tarkib topa boshlaganlar. Hozirgi davrda metisizatsiya tobora rivojlanib irqlarning paydo bo'lish sababidan irqiy farqlarini bartaraf qiluvchi kuchga aylanmoqda.

Irqlar - odamlarning tarixan tarkib topgan turlaridir. Ular irqiy jihatdan tiklanadigan jismoniy belgilarga ega bo'lib, xuddi bir tipdagi odamlarga mansubdirlar. Irqiy masala siyosiy va ilmiy ahamiyatga ega. Reaktsion burjua olimlari irqlarning azalligi haqida, irqlar o'rtasidagi fiziologik ayirmalar to'g'risida mukammal (sara) irqlar ("oliy", "iste'dodli" irqlar) va mukammal bo'lmagan ("tuban" - irqlar xususida fanga xilof (g'ayri ilmiy) nazariyalar yaratdilar. Ular har xil imkoniy irqlarning mavjud bo'lishini odamlarning turli odamsimon maymunlardan tarqalganligini isbotlashga urindilar (poligenizm nazariyasi - grekcha rolus - "ko'p", genesus - "vujudga kelish").

"Oliy" irqlar go'yo mukammal uyushgan maymunlardan paydo bo'lgan emish. Birinchi irqlar go'yo hukmronlik qilish uchun, ikkinchi irqlar -buysunish uchun yaratilgan emish.

Hozirgi vaqtda anglosakslarning ustunligi haqida (Angliyada, AQSHda), arik irqlar ustunligi to'g'risida (Xitoyda, YAponiyada) juda ko'p nazariyalar yaratilmoqda.

Irqiy nazariyalar asossizligi marksist olimlar va ilg'or burjua olimlarining xulosalarida rad qilib bo'lmaydigan darajada isbot qilinmoqda. Irqlarni bir-birlaridan ajratidagian jismoniy xususiyatlarning jamiyatda inson hayoti uchun hech qanday ahamiyatga ega emasligi aniqlangan. Har bir kishi miyasi vaznining taxminan 44 % ni tashkil etadigan peshona qismi irqlarning birligidan dalolat beradi. Insonning aqliy qobiliyatlari boshning shakliga ham, miyaning hajmi va og'irligiga ham, ayniqsa boshqa antropologik belgilarga (odam terisining rangi va shu kabilarga ham) bog'liq emas.

Irqchilik mustamlakachilarni mustamlaka xaqklarini ekspluatatsiya qilishlarini oqlaydigan quroldir. Imperialistlar hozirgi zamon proletariatining ongini irqchilik og'usi bilan zaharlab uni sinfiy ko'rashdan chalg'itadilar.Irqchilik fashistlar getzmanyaisilab ikkinchi Jahon usushidan keyin esa - AQSH va janubiy Afrika Respublikasida butun evropa irqining biologik ustunligi haqidagi eski nazariya o'rniga nemislarning psixalogik ustunligi to'g'risidagi nazariya ilgari suruldi. Irqchilik jahonda hukmron bo'lishini da'vo qilgan fashistlar deologiyasi edi. AQSHda irqchilik sinfiy va millyi zulm qurolidir.

Urug'ning vujudga kelishi.

Urug'ning kelib chiqishi problemi - ibtidoiy jamiyat haqidagi fanda eng qiyin problemalardan biridir. Ibtidoiy galaning uruqqa, ya'ni odamlarning ancha yuqori ijtimioy tashkilotga aylanish protsessi nazariy jihatdangina rekonstruktsiya qilinadi.

Galaning urug' jamoasiga aylanishi, hech shak-shubhasiz, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va ish bilan bog'lanadigan ishlab

chiqaruvchi munosabatlarning o'zgarishi, shuningdek, yaqin qarindosh bilan jismoniy aloqada bo'lishni bartaraf qilgan ekzogamiyaning paydo bo'lganligi (urug'ning o'ziga xoos va muhim belgisi) bilan bog'liqdir.

Keyingi paleolitdagi mustahkam o'troqlik, ovchilik turar joylar xarakteri o'sha davrda ishlab chiqarish birlashmalaridan iborat bo'lgan katta inoq-hamjihat kollektivlar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. YUqori paleolit uyushmalaridagi odamlar soni uzoq vaqtgacha etnografik ma'lumotlar asosida aniqlanib kelardi.

Ularning aniqlashlariga ko'ra, har qaysi turar joyda kamida 50 odam yashagan, manzilgohlarda ikki yoki uch turar joy bo'lgan. Demak, manzilgohlarda 100-150 odam yashagan. Hayvonlarni o'rab olib ovlash, katta turlar joylar qurish katta odamlar gruppasining ko'p kuch-gayrat sarflashshsh talab etgan. Birgalikda mehnat faoliyati, umumiy turar joy, nisbiy o'troqlik kollektiv a'zolarining jipslashuvchiga va qarindoshlik aloqasini anglashga olib kelgan. Anglangan qarindoshlik keyingi paleolitda faqat biologik omil sifatida mavjud bo'libgina qolmay, balki butun urug'chilik jamiyati davomida katta rol uynaydigan sotsial hodisaga ham aylangan.

Burjua tadqiqotchilari bolalik chog'laridan boshlab birga yashaydigan odamlar o'rtasida jinsiy maylning yo'qligi sababli (Darvin), yoki yaqin qarindosh bilan jinsiy aloqada bo'lishdan saqlanishdan intilish sababli ekzogamiya tartibi o'rnatilgandir, deb hisoblaydilar. SHu maqsadda, Morgonning fikricha, dastlab ota-onalar o'rtasida bo'ladigan nikohlar, undan keyin qarindaoshlar bilan aka-ukalar va opa-singillar o'rtasida bo'ladigan nikohlar man qilingan.

Gala ichida mehnat taqsimotini tartibga solish zarurligi sababli ekzologiya vujudga kelganligi haqidagi nazariya ko'pgina olimlar orasida e'tirof qilinmokda. SHunday qilib, ekzologiya bir kollektiv a'zolari o'rtasida aellar tufayli yuz beradigan tuknashuvlarning oldini olish vositasi bo'lgan, chunki tartibga solinmagan jinsiy munosabatlar jinsiy instinkt zaminida doimiy janjal va tuknashuvlarga olib borgan edi, bu esa kollektivning normal xo'jalik faoliyatini buzardi.

Ayol tomonning qon-qarindshlari o'rtasida nikohlarning taqiqlanishi bilan u homo sapiens - ekzogamiya vujudga kelgan. Ekzogamiya paydo bo'lishi bilan gala o'rnini urug' va dual-urug' (lotincha duo- "ikki") endogamiya (grekcha endon - "ichki", gamos- "nikoh") tuzumini egalladi, shu bilan birga, ayrim olimlarning fikricha, galaning ikkita teng ekzogamiyaga bo'linishi natijasida ana shu endogamiya tuzulishi vujudga kelgan, boshqalarning davosiga ko'ra, ikki qo'shni galaning birlashuvi ro'y bergan. Buhanuz munozarali masala bo'lib qolmokda. Ekzagamiya tartibdagi nikoh mavjud

bo'lganida jinsiy munosabatlar dual-urug' tuzulishi ichida, ya'ni ikki muayyan urug' azolari o'rtasida amalga oshirilgan. Bunday nikoh tartibi endogamiya deb ataladi.

Avstraliyaliklarning ayol tomon qarindoshlaridan tashkil topgan ikki nikoh sinfi (seksiyasi) sistemasi ekzogamiyaning eng arxaik shakli hisoblanadi. Sinflar o'rtasida nikoh axtlari tuzulgan. Bir sinf erkaklari boshqa sinf ayollari bilan jinsiy aloqa qilgan. Nikoh gruppada holda bo'lgan, xotinlar bilan erkaklarning o'zaro umumiyliigi mavjud bo'lgan. Har qaysi qalliq o'z sinfi ichida yashagan. Erkaklar ba'zi-ba'zida xotinlarini borib ko'rishgan. Qalliqqlarning bunday joylashuvi dislokal joyldashuv deb ataladi (lotincha dis - "ayrilish") ni bildiruvchi old qo'shimcha, lokus - "joy"). SHunday nikohlar tartibi sharoitida bir sinfnig barcha ayollari boshqa sinf erkaklarining real (chinakkam) yoki potentsial (yashirin) xotinlari hisoblangan.

Avstraliyaliklarning ikki sinf nikoh sistemasida bolalar ona sinfida qoldirilgan va demak qizlar o'z otalarining xotinlari bo'lib qolish ehtimoli mavjud bo'lgan. SHuning uchun ham yaqin qarindosh bilan jinsiy aloqada bo'lish tamomila bartaraf etilmagan. Bunday jinsiy aloqada bo'lish to'rt sinfli nikoh sistemasida istisno qilingan. Ba'zi bir avstraliyaliklar qabilalarda to'rt nikoh sinfi tashkil topgan. To'rt sinfli nikoh sistemasida bolalar ota-onalar sinfiga kirmas edilar, ularni buvilar bilan bobolar sinfiga qo'shib quyilar edi.

SHunday qilib, avstraliyaliklar xso ikki sinfli nikoh sistemasiga ko'ra, ilk ekzogamiya nikoh munosabatlarini sinf doirasidan tashqariga chiqargan va ona tomondan turli avlodlar o'rtasidagi (ona bilan o'g'il, amaki-tog'lara bilan jiyanlar o'rtasidagi) nikohlarni ham, bir avlod odamlari (qarindoshlar, amakivachcha, holavachcha, tog'avachchalar) o'rtasidagi nikohlarni ham istisno qilib, faqat sinf doirasidagina yaqin qarindosh bilan jinsiy aloqada bo'lishini bartaraf etadi.

To'rt sinfli nikoh sistemasi paydo bo'lgach, ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi nikohlar shuningdek ota tomonidan amaki va jiyan o'rtasidagi nikoh bartaraf qilingan. Bu esa, chamasi, gruppada holdagi nikohni tartibga solishda ikkichi qadam bo'lgandir. Ammo nikoh ilgorigidek gruppaviy nikoh bo'lib qolavergan, ota tomonidan amakivachchalar - ham shu gruppaga kirar edilar. Bunday nikoh shakli kross – amakivachcha, tog'avachcha nikohi deb deb atalgan. Nikoh munosabatlariga aloqadaro shaxslar doirasining torayishidagi keyingi kadam, extimol, ota tomonidan amakivachchalar va holavachchalar utasidagi jinsiy munosabatlarining man qilinishidan iborat bo'lsa kerak, bundapy taqiqlash sakkiz sinfli nikoh sistemasiga ega bo'lgan avstraliyaliklarda kuriladi.

Birlashgan ishlab chiqarish kollektividan iborat bo'lgan urug' faqat ekzogamiya xususiyat bilangina xarakterlanib qolmaydi uning boshqa belgilari

ham bor. Urug'da kollektiv mehnat hukmronlik qiladi. Manzilgohlarning ov qilinadigan joylar yaqinida bo'lishi, bu erda yashagan odamlarda ishlab chiqarish faolshiyati uchun muayyan urug' territoriyasi mavjud bo'lgan, ishlab chiqarish vositalari umumiy mulk hisoblangan deb faraz qilishga asos bo'ladi. Turar joylar va ularning atrofidagi xo'jalik xususiyatlariga qarab umumiy mehnat samaralari butun kollektivniki bo'lgani va ulardan birgalikda foydalaniladiganligi aniqlangan.

SHunday qilib, urug' qon-qarindoshlardan iborat xo'jalik kollektivi bo'lib, unda birgalikda ishlab chiqarish mavjud bo'lgan, u ishlab chiqarish vositalari va iste'mol maxsulotlarining umumiy mulklariga ega bo'lgan; urug' - bu ekzogamiya nikoh tartibi va qarindoshlikning bir tomonlama yoki hisoblanishi bilan, territoriyaning umumiyliigi, nomi va e'tiqodning birligi bilan, ijtimioy hayotdagi demokratik tartiblari bilan ta'riflanadi.

Urug' jamiyati yuqori paleolitda (orinyakda) kromanonliklarda - hozirgi jismoniy tipdagi odamlarda paydo bo'lgan.

Tema: Rawajlang'an urıwlıq qa'wim basqışı.

1. O'ndiris ku'shlerinin' rawajlanıwı.

2. Urıwlıq du'zinnin' ko'rkeyiwi.

1. **O'ndiris ku'shlerinin' rawajlanıwı.** Rawajlang'an urıwlıq du'zim mezolit da'wirinin' aqırı ha'm neolit da'wirine sa'ykes keledi. Neolit tas a'sirinin' joqarg'ı ha'm son'g'ı basqışı bolıp, onın' xronologiyalıq shegaraları b.e.sh. VII-IV mın' jıllıqlar.

Neolit da'wirindegi ıqlım, flora ha'm fauna ha'zirgi zamang'ıg'a jaqın bolg'an. Bul da'wirde bir qatar iri o'zgerisler ju'z beredi. Jer sharının' ko'pshilik rayonlarında xojalıqtın' o'nimdar tu'rlerine o'tiledi, gu'lalshılıq ha'm toqımashılıq payda boladı. Miynet qurallarının' a'dewir jetilissen qa'nigelesken tu'rleri oylap tabıladı. Keli-kelsap, oraq, digirman, ketpenler ken' tarqaldı. Olardın' arasında a'sirese balta u'lken a'hmiyetke iye boldı. Ol tereklerdi shabıwda, olardan bo'reneler jasawda turaq jay qurıwda, an'shılıq, ushın, qayıq, shana jasawda paydalanıladı.

Neolit da'wirinde miynet quralların jasaw ushın jan'a shiykizat tu'rlerinen (diorit, nefrit, yashma) paydalanılıp baslandı. Ol shaqmaq tastın' jer betindegi qorı ko'p rayonlarda tawsıl'g'anlıg'ına baylanıslı onı jer astındag'ı teren'liklerden alıw usılı oylap tabıldı. Angliya, Frantsiya, Belgiya, Rossiyada usınday shaxmaq tas ka'nleri qazıp aling'an a'yemgi shaxtalar izertlendi. Olarda kiyiklerdin' shaxlarınan islengen miynet quralları, shamlar tabıl'g'an.

Neolit da'wirinin' en' iri texnikalıq jetiskenliklerinin' biri- gulalshılıqtın' payda bolıwı. Bul da'wirge tiyisli elatlardag'ı en' ko'p ushırasatug'ın tabılma - bul keramika. (grek til. Keramas-ılay). Ol Jaqın Shıg'ıstın' bir qatar esteliklerinin' to'mengi qatlamlarında joq (Djarmo, Ras-Shamir, Chatal-Guyuk, Xosilar, Kirakitiya ha'm t.b.) Bul basqıstı arxeologlar «keramikag'a shekemgi neolit» dep ataydı. Gulal ıdıslardan paydalanıp azıq-awqat quramının' ken'eyiwine, onı tayarlaw ha'm saqlaw usıllarının' jaqsılanıwına, suyıq awqatlardı saqlawg'a mumkinshilik berdi.

Bul da'wirde jip iyiriw ha'm toqımashılıqtın' a'piwayı usılları payda boldı. Ol da'slep o'riwden baslang'an. Sebet, alasha, tor, qalta, ayaq kiyim, bas kiyim t.b. toqılǵ'an. O'rip toqıwda qamıs, shash, teri qıyıqları, o'simlik talshıqları paydalanılǵ'an. O'simlik talshıqların da'slep qoldan, keyinirek urshıqlarda iyirgen. Jiplerdi jabayı zıg'ır, kendir, ma'jnu'ntal talshıqlarınan, ju'nnen iyirgen.

Neolit da'wirinde xojalıqlardıń rawajlanıw bag'darı ha'm o'zgerdi. An'shılıq, balıqshılıq ha'm terimshilik jetilisip bardı ha'm a'dewir uyımlasqan da'rejege eristi. Ayırım rayonlarda balıqshılıqtın' rawajlanıwı onın' an'shılıqqa qarag'anda a'hmiyetinin' joqarılawına, jabayı o'simliklerdi teriw a'piwayı diyxanshılıqqa o'tiwge alıp keldi, haywanlardı qolg'a u'yretiw ja'ne de dawam etti.

Erte neolitte jer sharının' ko'plegen rayonlarında shoshqa, qoy, eshki, mumkin qara mal u'y haywanına aylang'an.

Qolg'a u'yretilgen mallar adamlardı go'sh, may, su't penen ta'miynlegen. Olardıń su'yekleri miynet quralları, uy-ruwzıgershilik buyımları ushın, ju'ni, terisi kiyim-kenshek ushın shiyki zat xızmetin o'tegen. Bunnan tısqarı olar ju'k tasıw, atız jumıslarında paydalanılǵ'an.

Diyxanshılıqtın' payda bolıwı haqqındag'ı ma'sele ha'zirge shekem tartıs tuwdırmaқта. İlimpazlardın' bir bo'limi diyxanshılıq da'slep aldın'g'ı Aziyada payda bolıp, ol jerden pu'tkil du'nyag'a tarqalg'an. (monotsentrizm teoriiyası) dep esaplasa, ekinshi bo'limi ko'plegen ayaqlarda diyxanshılıq o'z betinshe kelip shıqqan (politsentrizm) deydi. Arxeologiyalıq, paleobotanikalıq materiallar ko'birek politsentrizm teoriiyasın qollap quwatlaydı. En' a'yemgi diyxanshılıq daqılları bolıp tarı, arpa, biyday, gu'rish esaplandı. En' a'yemgi diyxanshılıq quralı ushı u'shkirlengen tayaqsha bolıp, ol terimshilikte ken' paydalanılǵ'an. Keyinirek ushı tegislengen (bunnan bel payda boladı) tayaqsha ha'm ketpen payda boladı. Basında ketpen ushı ko'plegen a'piwayı tayaqsha tu'rinde bolıp, keyinirek og'an u'shkirlengen tas, yamasa su'yekten, shaxtan jasalg'an ush baylang'an. Ketpen en' ken' tarqalg'an qural bolg'anlıg'ı sebepli erte diyxanshılıq ketpen diyxanshılıg'ı dep ha'm ataladı. Erte diyxanshılıq elatları Aldın'g'ı Aziyada tabılıp izertlengen (Chatal - Guyuk, Djarmo, İerixan ha'm t.b. VII-VI mın' jılıqqa).

2. Uriwliq du'zimmnin' ko'rkeyiwi. Etnografiyalıq derekler son'g'ı mezolitte rawajlang'an urıwlıq qa'wimlik sho'lkemnin' qa'nigeleskenligin ha'm onın' neolit da'wirinde gu'llep jaynag'anlıg'ın ko'rsetedi. Mezolit da'wirinde qa'wim bir neshe urıwdan turıp, olar arasındag'ı baylanıs shiyelenisedi. Miynettin' ta'biy bo'liniwshiligi anıq tu's aladı. Biraq hayallar menen erler ja'miyette ten'dey orın tutqan.

Ja'miyet jasına qaray u'sh toparg'a bo'lingen: qa'riyalar, u'lken jastag'ılar, balalar. Ha'r bir topar o'zlerinin' huqıqlarına ha'm ma'jburiyatlarına iye bolg'an. Ma'selen, balalar urısta qatnaspag'an, jıynalısta dawısqa iye bolmag'an, qariyalar da'stu'rlerdin' saqlanıwın qadag'alag'an, diniy ma'resimlerdi basqarg'an.

U'lkenler qatarına qosılıw belgili ritual menen o'tkizilgen. İnitsiatsiya - (lat inıziastic bag'ishlaw) bul jas o'spirimlerdi oqıtıw ritualı. Onda jas o'spirimler miynet ta'jiriybelerine, ilimiy bilimlerge iye boladı, urıwlıq da'stu'rler, a'psanalar, qupıyalar, diniy isenimler, ayaq oyın ha'm qosıqlar menen tanısadı. Son'ında shıdamlılıq boyınsha sınaqtan o'tedi. İnitsiatsiyadan o'tkenler urıwdın' qıyın o'mirine tayar dep esaplang'an. Olardın' turmıs qurıwına ruxsat berilgen.

Neolitte urıwlar fratriyag'a qa'wimge ha'm birlesken. (grekshe fratiatuwısqanlıq). Da'slepki qa'wimler awqamı payda bolg'an. Fratriya bir anadan do'regen urıwlardın' birlespesi. Qolaylı sha'rayatlarda ha'm ekzogamiyalıq neke ta'rtibinde urıwlardın' sanı ko'beyip ketedi. Bir jerde azıq-awqat tawıp ku'n ko'riw qıyınlasqanlıg'ı sebepli, olardan jaqın tuwısқан toparlar bo'linip shıg'ıp jan'a urıwdı payda etedi. Jan'a bo'linip shıqqan topar jan'a jerge iyelik qılğ'anı menen o'zlerinin' anasının' urıwı menen ekonomikalıq baylanısların, u'rp-a'det, til, da'stu'rlerin saqlap qaladı. Erte fratriyalar ekzogamiyalıq bolsa, son'g'ıları endogamiyalıq bolg'an.

Mavzu: Ibtidoiy jamoa tuzumining parchalanishi uchun iqtisodiy shart-sharoitlarning paydo bolishi

Ajratilgan soat:2

Mashg'ulot turi: Ma'ruza

Asosiy savollar:

Metalldan foydalanishning boshlanishi

Bronza asrida xo'jalik taraqqiyoti

Matriarxatdan patriarxatga o'tish

Temir asridagi xo'jalik yutuqlari

Tayanch iboralar:

Eneolit, bronza asri, motiga dehqonchiligi, xaydab dehqonchilik qilish, birinchi buyuk mehnat taqsimoti, ishlab chiqaruvchi xo'jalik, matriarxatdan patriarxatga o'tish, patriarxal oila, levirat va sororat, patriarxal qullik, temirdan foydalanish

MAQSAD:

Ibtidoiy davrning so'nggi bosqichida metallardan foydalanish va uning ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar taraqqiyotidagi xo'jalik rivoji va mehnat taqsimotdan ota urug'i davriga o'tish sabablari va oqibatlarini sharxlash

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

1. Eneolit va bronza davrilda yaratilgan mehnat qurollari va xo'jalik yutuqlarini biladi
2. Patriarxat urug' tuzumi davrining asosiy xususiyatlari to'g'risidagi tushunchalarga ega bo'ladi.
3. Xo'jalikda temirdan foydalanish va temir qurollarining tarqalishi natijasida qo'lga kiritilgan yutuqlarga oid bilimlarga ega bo'ladi.

Adabiyot:

A.I. Pershits. Istoriya pervobggaogo obodestva M. 1974

E.B. Taylor. Pervobggnaya kultura M. 1989

L.G. Morgan. Drevnee obgtsestvo. L. 1934

Istoriya drevnego mira. Ranyaya drevnost M. 1989

B.N. Grakov. Ranniy jeleznsnsh vek M. 1977

M.O. Kosven. Ibtidoiy madaniyat tarixi ocherklari. T. 1960

V.A. SHnirelman. Proisxozhdenie skotovodstva M. 1980

Eneolitda (latinchacha - aeneus - "mis", grekcha litos - "tosh") mehnat qurollari yasash uchun odam tomonidan qo'llangan birinchi metall mis bo'lgan ehtimol, odam toshni kidirishda sof holdagi misni ko'rib qolgandir, bunday mis er ustida boshqa metallarga qaraganda ko'prok uchragan. Odamlar odatdagidan payqashgan bo'lsa kerak. Bolg'aning kuchli zarbalaridan mis yassilangan. Uning chetlari toshnikidan ko'ra o'tkirroq bo'lib qolgan. Bunday ishlov berish usuli cho'kichlash deb ataladi.

Bu metallga ishlov berishning dastlabki usuli bo'lgan. Keyinroq misning kuchli olovda erib ketishi ma'lum bo'lgan. Odamlar misdan quyib qurollar yasashni o'rganishgan. Eritilgan misni oldindan tayyorlab quyilgan qoliplarga ixtiro qilingan. Old Osiyoda va Nil vodiysida mis eritish va misni qizdirib ishlash eramizdan avvalgi IV ming yillikda, Evropada esa III ming yillikda boshlangan.

Mis - yumshoq va baland temperaturada eriydigan metall. SHuning uchun u qurollar yasash uchun materil sifatida keng tarqalgan. Mis bezaklar, kichkina xanjarlar, pichoq va bigizcha uchun yaroqsiz bo'lgan. SHu sababdan u ibtidoiy texnikaning negizi bo'lgan toshning o'rnini egallay olmagan. Sof shakldagi mis asri bo'lmagan. Odamlar misni qalay bilan, ruh bilan, qo'rg'oshin va shu kabilar bilan yoki surma bilan birga eritib qotishtirish va bronza hosil qilishni o'rganib kelgan vaqtlarida metall toshni sezilarliroq ravishda siqib chiqara boshlagan. Bronza ancha qattqlik va nisbatan past temperatura - 700-1000 da (qanday metallarning birga eritilib qotishtirilishi va qanday nisbatda bo'lishiga qarab) erish xossasiga ega. Bronza toshni tamomila surib chiqarilmagan. Bu narsa faqat temir kashf etilgandan keyin ruy bergan. Lekin bronza qurollar, yarog'-aslaxa, zeb-ziynatlar yasash uchun asta-sekin asosiy material bo'la borgan.

Bronza asrning boshlanishi eramizdan avvalgi III ming yillikning o'rtalariga oid deb hisoblanadi (Janubiy Eron, Mesopatamiya). Bronza eramizdan avvalgi III ming yillik bilan II ming yillik chegarasida (bo'sag'asida) Kichik Osiyoda, Suriyada, Falastinda, Kiprda, Kritda, eramizdan avvalgi II ming yillikda Misrda, Hindistonda, Xitoyda, Evropada, eramizning I ming yilligida esa Amerikada tarqalgan.

SHu bilan birga, Kavkazda eramizdan avvalgi II ming yillikda mahalliy ruda ashyosidan surmali bronza hosil qilingan; u erda surmali shtolnyalari va ruda eritish pechlari topildi.

Bronzaga o'tilishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning yangi yuksalishini ko'rsatadi. Bronzadan yasalgan qurollar tosh va mis qurollarga qaraganda ancha takomillashgan. Odamlar bu qurollarni egallab, faoliyat sohasini ancha kengaytirishgan, ularning mehnati unumliroq bo'la borgan. Metall qurollardan foydalanish barcha xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishida, ammo, ayniqsa dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishida katta rol o'ynagan. Bronza boltalan ekin maydonini kengaytirishga imkon bergan. Osiyo va Evropaning ko'pgina mamlakatlarida bronza davrida er haydaydigan yog'och qurollar ishlatila boshlangna. Haydash qurollarining shakllari tuproqning ekiladigan ekinlar va shu kabilarning xususiyatlariga bog'liq bo'lar edi. Ularning hammasi "plug" degan umumiy nom bilan ma'lum. Plugning eng qadimgi turi omoch bo'lib, yaqin vaqtlarga qadar undan urmonzor erlarida foydalanib kelingan.

Hayvonlarning qo'lga o'rgatilishi natijasida omochga qo'shila boshlangan. Bir xil oblastlarda eshaklar, boshqa oblastlarda ho'kizlar, keyinroq otlar tortuv kuchlari bo'lgan. Dehqonchilikda hayvonlarning ishlatilishi tufayli mola (sixmola) qo'llana boshlagan. SHu munosabat bilan ko'pgina xalqlar motiga polizchiligidan haydab ekiladigan dehqonchilikka o'tishgan. Poliz ekinlari boshokli ekinlarga nisbatan ikkinchi darajag'a tushib qolgan. Hiyla unumliroq bo'lgan g'alla

dehqonchiligi odamlarni doimiy oziq-ovqat bilan ta'minlabgina qolmasdan, balki ortiqcha maxsulotlar ham vujudga keltiradigan bo'lgan. Plug dehqonchiligi tortuv kuchlariga extiyoj tug'dirib va hosilning bir qismidan hayvonlarga em-xashak uchun foydalanish imkoniyatini yaratib, chorvachilikni yanada rivojlantirishni rag'batlantirgan. Lekin dehqonchilik em-xashak resurslari podalar ko'payganidek tez ko'paymaganligi sababli poda egalarining yaylovlaridan yanada kengroq foydalanishlariga, yarim ko'chmanchilik yoki ko'chmanchilikka, ya'ni yil buyi mollarni yaylov-o'tloqda boqishga o'tishlariga to'g'ri kelgan. CHorvadorlar dehqonlardan ajrala boshlaganlar. Ular Evropa, Osiyo, SHimoliy-SHarqiy Afrika doimiylariga ko'chib o'rtnashganlar.

Ko'p xalqlarda dehqonchilik va chorvachilik tabiiy sharoitlarga qarab xo'jalik faoliyatining negizi bo'lib qolgan.

Tarixda mehnat taqsimotining boshqa variantlari ham ma'lumdir. Masalan, chovadorlar, baliq ovlovchilar va ovchilar o'rtasidagi mehnat taqsimoti. Qirg'oq buyi chukchalari bunga misol bo'la oladi. Qirg'oq chukchalarida cho'ponchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar ajralib chiqqanidan keyin, baliq ovlash va dengiz hayvonlarini ovlashning kasb-korlik mashg'ulotiga aylanishi mumkin bo'lib qolgan. Evenklar haqida ham xuddi shuni aytish mumkin, ularning bir qismida chorvachilik mavjud bo'lgan, boshqa qismi kasb-korlik ovi va baliq tutish bilan shug'ullangan. Polineziyada dehqonlar, baliq ovlovchilar, ovchilar va terib-termachlab ovqat topuvchilar o'rtasida mehnat taqsimoti yuz bergan.

Birinchi buyuk mehnat taqsimoti ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishga va mol ayirboshlashni tartibga solishga asos solgan, doimiy ortiqcha maxsulotlar etishtirishga, xususiy mulk va qullikning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Ba'zi bir burjua olimlari mol ayirboshlashning azaldan mavjud bo'lganligi haqida gapiradilar. U ishlab chiqarishda uning elementlaridan biri sifatida mavjuddir. Ayirboshlash mehnat taqsimotisiz mavjud bo'lmaydi. Ayirboshlashning intensivligi, tarqalishi, shakli ishlab chiqarishning rivojlanishi va tuzilishi bilan belgilanadi. Muayyan ishlab chiqarish usuli muayyan ayirboshlash shaklini vujudga keltiradi. Birinchi ijtimoiy mehnat taqsimotigacha ham ayirboshlash bo'lgan, lekin u onda-sonda uchraydigan hodisa bo'lgan, chunki doimiy ortiqcha maxsulotlar bo'lmagan. Ortib qolgan maxsulotlar tasodifiy ravishda ayirboshlangan. Birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti munosabati bilan har bir qabila muayyan mashg'ulot uchun o'zida eng qulay sharoitlar mavjud bo'lganidan u butun kuchni ana shunga qarata oladigan vaqtda muntazam ayirboshlash paydo bo'ladi. SHunga ko'ra mehnat unumliroq bo'lib qolgan. Ixtisoslashtirilgan chorvachilik, dehqonchilik xo'jaliklari va boshqa

xo'jaliklar va boshqa xo'jaliklar o'z iste'molidan birmuncha ortiqchalar yaratishgan va shu ortiqcha maxsulot ayirbosh qilingan. Endi har bir odamning xo'jalik uchun zarur bo'lgan hamma narsani o'zi tayyorlashi shart bo'lmay qolgan. U etishmaydigan hamma narsani o'z mehnatining ortiqcha maxsulotlariga ayirboshlab olishi mumkin bo'lgan. Birgalikda mehnat va umumiy mulkning mavjudligi sharoitida kollektivlar ortiqcha maxsulotlarni urug' oksoqollarining vositachiligida ayirboshlaganlar. Alohida ishlab chiqarish paydo bo'lishi va xususiy mulk vujudga kelishi bilan individual ayirboshlash yuzaga kelgan.

SHunday qilib, ishlab chiqarish va ayirboshlashning individuallashi natijasida ayrim oilalar qo'lida ortiqcha maxsulotlar jamg'arila borgan, bunday mollar xususiy mulkka asos solgan. Dastlab ko'chadigan mulk (mehnat qurollari, maxsulotlar, uy-joylar, hayvonlar, qimmatbaho ashyolar, keyinroq, qullar va shu kabilar) xususiy mulkka aylantirilgan. Er esa hali uzoq vaqtgacha umumiy mulkligicha qola bergan. Kuchadigan mulkning xususiy mulkligi urning kollektiv mulkligiga zid kelgan. SHu sababdan urning kollektiv mulkchiligi mavjud ekan, xususiy mulk mukammal rivojlana olmas edi.

Ixtisoslashtirilgan xo'jaliklarda mehnat unumdorligi oshib borgan, odam o'z iste'moli uchun kerak bo'lganiga qaraganda ortiqcha maxsulotlar etishtira boshlagan. Rivojlana borgan ishlab chiqarish ko'proq ish kuchi bo'lishini talab etgan. Maxsulot ishlab chiqarishning ortishi "urug', uy jamoasi yoki ayrim oilaning har bir a'zosi hissasiga tushadigan kundalik mehnat miqdorini ham ko'paytira bordi. YAngi ish kuchlarini jalb etish kerak bo'lib qoldi". Harbiy asirlar ana shu maqsad uchun yaroqli bo'lib qolgan, ilgari esa ular o'ldirilgan yoki urug'larda kamaygan qismni to'ldirish uchun o'g'il qilib olingan. Endilikda ularni qulga aylantira boshlaganlar. Qullar yaratgan barcha ehtiyojdan ortiq maxsulotlarni ularning egalari o'zlashtira boshlaganlar. Ijtimoiy sinflarga bo'linishdan ilgarigi jamiyatda qullik shu tariqa vujudga kelgan. O'z xarakteriga ko'ra u patriarzal qullik bo'lgan. Qullar asosiy ishlab chiqaruvchi sinf bo'lmagan. Jamoa a'zolari qullar bilan oila tarkibiga kiradigan oddiy yordamchilar bilan birgalikda mehnat qilishgan. Qullar etishtiradigan maxsulot asosan xo'jayin uyida iste'mol qilingan va uning ozgina qismi tovarga aylanib ayirboshlangan.

So'nggi vaqtlarda ko'pgina tadqiqotchilarning asarlarida ibtidoiy xalqlar to'g'risida to'plangan g'oyat katta faktik material shuni kursatadiki, patriarxal qullik butun dunyoga yoyilgan hodisa bo'lgan hamda tasodifiy va umrbod qullikdan to'z taraqqiyotidan yuqori bosqich bo'lgan irsiy (nasldan-naslga o'tadigan) qullikkacha bir qator davrlarni o'tgan. Patriarxal qullik Eropa,

Osiyo, Janubiy va SHimoliy Amerika, Afrika, Okeaniya, Avstraliya xalqlarida ruy bergan. Etnografik tekshirishlariga qaraganda, qullik har qanday xo'jalik asosida; chorvachilik, dehqonchilik, yuqori darajada rivojlangan ovchilik va baliq ovlash xo'jaliklari zaminida vujudga keladi. Etnograflar ovchilar va baliq ovchilardan qullik mavjud bo'lganligini ko'rsatadigan faktlarni keltirishadi. Baliq ovlash va dengiz hayvonlarini ovlash bilan shug'ullangan qirg'oq buyi chukchalari qullarga ega bo'lishgan. SHimoliy Amerika shimoliy-g'arbiy sohillarining baliq ovlovchilarida ham qullar bo'lgan. Ammo baliq ovlash, ayniqsa ovchilik qilishning rivojlanishi uchun chorvachilikka va xususan dehqonchilikka qaraganda uncha qulay zamin bo'lmagan; dehqonchilikda qullar mehnatidan juda ko'p foydalanilgan va ularni nazorat qilish o'ng'ayroq bo'lgan. Demak, qullikning paydo bo'lishi uchun muayyan xo'jalik tarmog'i emas, balki uning ma'lum rivojlanish darajasi kerak bo'lgan. Dastlab asosan ayollar, bolalar qul qilingan. Avval boshda cho'rilaridan o'ynash sifatida va uy-ro'zg'or ishlarida foydalanilgan. Oldin qullar jamoaga qarashli bo'lgan, keyinroq xususiy qullik vujudga kelgan.

Ota urug'ining ona urug'i o'rnini olishi jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Ayol ishlab chiqarishda muhim mavqeni egallab turganiga qadar oila-urug' munosabatlarining matriarxal xarakteri saqlanib turgan.

Plug dehqonchiligi, chorvachilik, kasb-korlik ovchiligi, ixtisoslashtirilgan baliq ovlash erkaklar mashg'uloti hisoblangan. Ularning rivojlana borishi bilan erkak doimiy zapaslarni vujudga keltiradigan va ortiqcha maxsuot ishlab chiqaradigan bo'lib qolgan, bular uning o'z mulki bo'lgan. Kosibchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi sababli ayol kishining ilgarigi uy xo'jaligi faoliyatidagi ko'pgina sohalar ham erkaklar hunarmand-kosiblar mashg'ulotiga aylangan. Buning ustiga, uy xo'jaligida qullar mehnatidan foydalanila boshlashi natijasida bu xo'jalik ishi sharaflil faoliyatdan qullik ishiga aylanib, ayollarni qullikka yaqin darajaga tushirishga imkon bergan. Erkak boshqarish ishini qo'lga olgan, uy xo'jaligida ayolning faqat anchayin vazifalari saqlanib qolgan. Qaror topgan iqtisodiy munosabatlarga muvofiq ravishda erkak mavqei bilan ayol mavqei ham o'zgargan. Ayol ijtimoiy ishlab chiqarishdagi etakchi rolini yo'qotib, jamiyatda va oilada birinchi o'rinni erkak kishiga bergan. Ayolning ijtimoiy ta'siri pasayib ketgan; uni qishloq kengashi yig'ilishlari va majlislarida ishtirok etishan chetlashtirilgan. Ayol erga chiqishda erining jamoasiga ko'chib o'tadigan bo'lib qolgan. Er-xotinning patrilokal (lotincha rateg - "ota", locus - "joy") joylashuv tartibi qaror topgan. Endi erkaklar urug'ning doimiy yadrosini (asosiy qismini) tashkil etishgan. Ularning opa-singillari va qizlari erga chiqqanlaridan keyin o'z urug'ini tashlab ketib, erining urug' gruppasi va

oilasiga ko'chib borib joylashadigan bo'lgan. Urug' ayolni uzatar ekan, uning uchun ishg'chi kchi birligini yo'qotish evaziga tovon (kompensatsiya) to'lashni talab qilgan. SHu tariqa xotinlarni sotib olish vujudga kelgan. Erkin nikoh ayadi nikoh - sotib olishga aylangan, bunda xotin erining irodasiga tamomila buysunadigan bo'lib qolgan. Ayollarni or jamoasiga mahkam birkiritish uchun levirat va sororat unor - odatidan foydalanilgan. Levirat (latincha levir - "kaynog'a", erining akasi yoki ukasi") - shunday bir odatki, shunga ko'ra aka yoki uka o'lgan akasi yoki ukasining xotiniga uylanishga xaqli bo'lgan. Sororat (latincha soror - "singil") ham bir odat bo'lib, shunga ko'ra erkak, agar o'lgan xotini uchun to'langan haqni qaytib berish talab qilinmagan bo'lsa, uning singlisiga uylanishga xaqli bo'lgan.

Qarindoshlik hisobi ota nasabidan yuritiladigan bo'lib qolgan. Endi oilaning mol-mulkini bolalar meros qilib olishgan yangi vorislik huquqi oila otasining mulkka xuquqining bevosita ifodasi edi. Xotin erining mulkini meros qilib ololmagan. Xotinning o'zi erining sotib olgan mulki hisoblangan. Erkak - oila boshlig'i - bolalar va xotin ustidan katta shaxsiy hukmronlik qilgan. Xotin uchun bir nikohlilik belgilab quyilgan, vaholanki er xotiniga bevafoqlik qilish huquqini, cho'rilaridan o'ynashlarga ega bo'lish huquqini saqlab qolgan. Ayol erining oqsochiga va "uning orzu-havaslarini yo'lga, bola tug'ishning oddiy vositasi"ga aylangan. CHorvachilik qabilalariga xos bo'lgan xususiyatlardan biri erkaklar bilan ayollarning ayni bir vaqtda kumilishi bilan bog'liq bo'lgan juft mozorlari erni dafn qilish marosimi paytida xotinini o'ldirib, uning bilan birga go'rga quyilganidan dalolat beradi.

Matriarxat zamonida jinslarning alohida yashashlari munosabati bilan vujudga kelgan erkaklar uylari erkaklarning jamoda ustunlik kiluvchi ta'sirga ega bo'lish uchun kurashda tayanch markazlar bo'lgan. Balog'atga etgan buydoqlar va initsiatsiyadan o'tgan yoshlar ana shu erkaklar uylarida turganlar. Erkaklar uylari urug' jamoasi erkaklarining yig'ilish joylari bo'lib, ular bo'sh vaqtlarini ana shu erda utqazishgan.

Matriarxatdan patriarxatga o'tish davrida erkaklar uylarida sifat jihatidan yangi sotsial ahamiyatga ega bo'lgan erkaklar ittifoqlari yuzaga kelib, keng yoyilgan. Bu ittifoqlar ayollar ta'sirini tugatishga qaratilgan bo'lib, ular xotin-qizlarni terror qilishgan. Erkaklar ittifoqlari o'z a'zolarini va ularning mol-mulkini qo'riqlashar, ularning jamoada ta'sirli (nufuzli) mavqegini ta'minlashar edi. Ularning vazifalarida (funktsiyalarida) jamoat hokimiyati elementlari aniq ko'rinar edi. Oqibatda erkaklar ittifoqlari patriarxatning tashkil topishiga yordam beradigan organdan boy urug' yuqori tabaqasi hokimiyatini qaror toptirish organiga aylandi. Ittifoqqa a'zo bo'lish boylik bilan belgilanadigan bo'lib qolgan. Ittifoqlar ichida darajali bo'linish paydo bo'lgan.

Ittifoqqa kirish va darajalar (ranglar) bosqichlari bo'ylab yuqori amalga (martabaga) erishish boylik miqdorlari bilan belgilangan. Ittifoq kengashiga eng boy, demak, eng nufuzli odamlar kirgan. Kambag'allar ittifoqqa kira olmaganlar. Ittifoqda og'alik (kattalik) o'rnini boylik egallaydi va mulkiy jamg'arma orqali hokimiyat sari yul ochiladi. Melaneziyada saqlanib qolgan yashirin erkaklar ittifoqlari bu jihatdan ibratlidir.

SHuningdek, patriarxal munosabatlar tarkib topishi bilavn birga erkak avlodlari (o'g'illari, nabiralari, evaralari va ularning bolalari)dan iborat patriarxal oila paydo bo'lgan. Qullar shu oilalar tarkibiga kirgan. Tarixiy adabiyotda patriarxal oila oilaviy jamoa yoki uy jamoasi deb ataladi.

Oila jamoasi jamiyatning iqtisodiy yacheykasi bo'lgan, u urug' erida xo'jalikni birgalikda boshqargan. Eng keksa erkak butun oila hayotiga rahbarlik qilgan. U o'z faoliyatida oila jamoasining barcha katta yoshli a'zolari bilan maslahatlashib turgan. Uy jamoasining a'zolari umumiy turar joyida yashaganlar, bir qozondan ovqatlananganlar, birgalashib mehnat qilganlar va mol-mulkka birgalikda egalik qilganlar.

O'sib borgan katta oilada yagona uy xo'jaligini boshqarish qiyinlashib qolgan vaqtda oila jamoasi qismlarga bulingan. Har bir qism vaqtning o'tishi bilan yangi patriarxal oilaga aylanib borgan, u ayrim holda yashagan va uy xo'jaligini mustaqil idora qilgan. Bir oilaviy jamoaning bo'linib ketishi natijasida tashkil topgan qarindosh patriarxal oilalar gruppasi tarixda patronimiya nomini olgan. Patriarxal oilalar va patronimiyalarning jami patriarti urug' jamoasini tashkil qilgan; uning iqtisodiy mohiyati o'z a'zolarini ishlab chiqarish vositalari bilan, xo'jalikda o'zaro yordam va ijtimoiy birdamlikni ta'minlashdan iborat bo'lgan. Urug' patronimiyalar va oilalar o'rtasida taqsimlangan erning oliy mulkdori sifatida ish ko'rgan. Patriarxal urug' jamoasi xo'jalik yacheykasi bo'lmagan.

Urug'ning negizi kelib chiqish (bir gineologik nasl-nasabdan paydo bo'lish) umumiyligi bilan, bir joyda yashash va diniy e'tiqod bilan saqlangan. Umum urug' ishlarini hal qilish uchun ba'zi-ba'zida patriarxal oilalar boshliqlari yig'ilishi chaqirilib turgan. Urug' jamoasida diniy e'tiqod boshligi va urug' rivoyatlarini, an'analarini biluvchi (saqlovchi) odam bo'lgan.

Patriarxat matriarxat singari universal bosqichdir. Ayrim burjua tarixchilari tarixiy rivojlanishning qonuniyatli yulini noto'g'ri talqin qilib, bir xil xalqlar o'z yo'lini matriarxat taraqqiyotidan, boshqa xalqlar patriarxat boshlaganlar, deb da'vo qiladilar. Matriarxatdan rivojlana boshlagan xalqlar, ularning fikricha, o'z taraqqiyotida orqada qolishgan. Patriarxatdan rivojlana boshlagan xalqlar esa ijtimoiy taraqqiyotning yuqori bosqichlariga ko'tarilgan emish. Bunday da'volarning asosi yo'q. Hamma xalqlar matriarxatdan rivojlana boshlaganlar. Qabilalarning rivojlanish sur'ati ichki va tashqi xarakterdagi turli

xil sabablarga bog'liq bo'lgan. Matriarxatdan patriarxatga o'tish ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishiga asoslanadi; bu o'sish ilgariroq rivojlangan xo'jalik formalarining yanada takomillashishiga olib kelgan. Etnografik material shuni ko'rsatadiki, muayyan taraqqiyot darajasiga etgan har qanday xo'jalik asosida, masalan, ixtisoslashtirilgan ovchilik baliq tutish xo'jaligi negizida (SHimoliy Amerikaning shimoli-g'arbiy soxili qabilalarida) ham ota urug'ining vujudga kelish jarayoni sodir bo'ladi. Dehqonchilik va chorvachilik asosida ota urug'iga o'tish eng qulay va keng tarqalgan o'tishdir.

Dengiz hayvonini ovlash bilan shug'ullangan qirg'oq buyi chukchalari va bug'u ovlovchi chukchalar patriarxatning remekt vakillaridir. CHukchalarning harbiy asirlardan qullari va sotib olingan qullari bo'lgan, ularda mulkiy tengsizlik ruy bergan. SHuningdek, YAngi Gvineyaning Xachen tog'i papuaslari patriarxat polizchilik, chuchka podalari, dastlabki qullar bo'lganligi, erkin odamlarning kambag'allar va boylarga bo'linganligi aniqlangan. Boylarning 40 tagacha chuchkasi bo'lgan, bir necha xotin sotib olishgan. Temir asrining boshlanishi. Ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti. Ibtidoiy jamiyat texnikasi ayniqsa temir davrida ilgarilab ketgan. Temir o'zidan yuitlgarigi mis va bronzaga nisbatan ulkan ustunlikka ega bo'lgan. YAngi material bronzadan qattiqroq, bolg'alab yasaladigan, tabiatda eng ko'p uchraydigan metallidir. Temir rudalar, ayniqsa tuqay rudalari hamma erda bor bo'lgan. Odamlar temirdan foydalanishni keyinroq o'rganishgan, chunki u baland temperaturada-1530 dan eriydi. SHuning uchun dastlab ibtidoiy temirchilik uchog'i yordamida, ya'ni unga temir rudasi va pista ko'mirni to'ldirib solib 1100 va undan baland temperaturada shlak bilan aralashgan hamirsimon massa-kreshdni hosil qilishgan. Ko'mirning yonishi va temperaturani oshirish uchun qo'l bosqoni yordamida dam berish bilan qulay sharoit yaratilgan. Temirga bunday ishlov berish rudadan bevosita temir ajratib olish usuli deb ataladi.

Old Osiyoda topilgan temir ishlash va eritishning dastlabki izlari eramizdan avvalgi XIV asrga taaluqlidir. Temir asri eramizdan 1000 yil avval boshlangan.

Mehnat qurollari yasash uchun temirdan foydalanilishi dastavval qishloq xo'jalik texnikasiga ta'sir etdi. Metall soshnikli (tishli) pluglar, temir boltalar va kuraklar paydo bo'lgan. Bu qurolni tozalab ekin maydoniga aylantirishga imkon bergan. Plug-qo'sh kuchidan foydalanib qilinadigan dehqonchilik tez rivojlana boshlagan. Ko'pchilik xalqlarda etakchi xo'jalik tarmog'iga aylini borgan. Dehqonchilik yutuqlari chorvachilikning rivojlanishiga muqarrar suratda ta'sir qilgan. Dehqonchilik maxsulotlarini chorvachilik maxsulotlariga keng ravishda ayirboshlash imkoniyati chorvador qabililir ajralib chiqish

protsessining tugallanishiga olib kelgan, ular dehqonchilik xo'jaligining qoldiqlari bilan aloqani tamomila uzganlar.

Temir kosibchilikning rivojlanishida ham muhim rol o'ynagan. Endilikda kosib ixtiyorida qurollar bor bo'lib, ular suyakka, yog'ochga ishlov berish, teoi, rangli metall va shu qabilarni ishlashini tubdan yaxshilashga imkoniyat bergan. Temir ishlash mutaxassislari-temirchilar paydo bo'lgan. Odamlar kulolchilik charxini yaratganlar. Qurollar paydo bo'lgan. Oddiy dastgoh ixtiro qilinishi bilan birga to'quvchilar vujudga kelgan, to'qimachilik alohida ajralib chiqqan. Temir davrida kasblar yanada tobora xilma-xil bo'lib, ixtisoslashgan va takomillashgan kasblarga aylana borgan. Kasblarni unumdor faoliyatning boshqa turlari bilan birga qo'shib olib borish mumkin bo'lmay qolgan. Agar ilgari mehnat qurollarini qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi odamlar ishlab chiqargan bo'lsalar, endilikda kosiblar ajralib chiqishgan. Kasblar mustaqil xo'jalik tarmog'iga aylangan. Natijada kosibchilik qishloq xo'jaligidan ajralib chiqqan, ya'ni ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti ruy bergan. Kosibchilikning xo'jalik tarmog'i sifatida paydo bo'lishi bilan birga boshlang'ich tovar ishlab chiqarishi vujudga kelgan. Tabiiy (natural) xo'jalik avvalgidek ustun xo'jalik bo'lib qolavergan.

Kosiblar endi kezib yurishmay, muayyan joylarga o'rnashib olganlar. Ularning qishloqlarida boyliklar to'plana borgan. Hujumlardan himoya qilish maqsadida qishloqlar atrofi devorlar bilan o'rab olingan. Keyinchalik ular shaharlarga kasb-hunar va savdo markazlariga aylana borgan.

Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi bilan maxsulotlarning bir qismi ayirboshlash uchun ishlab chiqarila boshlagan, ayirboshlash kergaygan va hayotiy zarurat bo'lib qolgan. Kosiblar endi ayirboshlovsiz tirikchilik qila olmas edilar. Ular o'z buyumlarini qishloq xo'jalik maxsulotlariga ayirboshlaganlar. Hamisha yuz beradigan ayirboshlash umumiy qiymat o'lchovini ishlab chiqishga va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida vositachilarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Uy hayvonlari keng yoyilgan ekvivalent bo'lib qolgan. Pulning lotincha nomi resshia (pecus-"hayvon"). Hindiston hozirgi zamon pul birligi - rupiya (qadimgi hindcha gira - "hayvon") buning dalilidir. Ba'zi bir xalqlarda nodir chig'anoqlar, fil suyagi, qushlarning patlari, kakao dukkati, quyma metallar va buyumlar hamda shu singarilar ekvivalent hisoblangan. Savdo-sotiq vositachilari keyinchalik savdogarlar sinfiga aylanishgan. Bu uchinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti edi. U ijtimoiy sinflarga bo'linishdan ilgashgi jamiyatdan sinfiy jamiyatga o'tish davrida yuzaga kelgan va bora-bora mustahkamlangan. Savdogarlar paydo bo'lishi birga chet mamlakatlar bilan savdo qilish boshlangan.

Patriarxal jamoaning buzilishi. Monogon oila. Qo'shni jamoa ibtidoiy tuzumning asosiy negizi - kollektiv mehnatni bunyodga keltirgan ishlab chiqaruvchi kuchlarning nihoyat darajada qoloqligi, mehnat unumdorligining pastligi, iste'mol vositalarining tekis baravar taqsimlanishi mavjud bo'lsa-da, bu tuzum mustahkam bo'lgan. Temir qurollar keng tarqalishi tufayli dehqonchilikda, kosibchilikda, chorvachilikda mehnat unumdorligi osha borib, ana shu negizni tubdan o'zgartirdi va o'sha vaziyatda ancha progressiv bo'lgan individual ishlab chiqarishga xususiy o'zlashtirish manbaiga o'tish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Ilgari faqat katta kollektivning qo'lidan keladigan ishni endilikda ayrim oilaning bajara olishi mumkin bo'lib qoldi. Kollektiv mehnatga hojat qolmadi.

Xususiy xo'jalik va xususiy mulkning vujudga kelishi progressiv tarixiy protsessdan iborat bo'lib, u shaxsiy tashabbusni kuchaytirishga, mehnatning tobora taqsimlanishiga va unumdorligining osha borishiga imkon bergan. Mehnatning kuchaya borgan individuallasuvi sharoitida iqtisodiy jihatdan mustahkam oilalar alohida g'oyada yashab, urug'doshlaridan ajralib chiqar edilar. O'sha zamonga kelib patriarxat uy jamoalari kuchli ravishda o'sib kengayib ketgan. SHunday ishlab chiqarish sharoitlarida umumiy xo'jalikni boshqarish mumkin bo'lmay qolgan. Patriarxal jamoalar kichik oilalarga bulinib ketgan; bunday oilalar jamiyatning iqtisodiy yacheykasiga aylanib, xo'jalikni mustakil boshqarganlar. Bunday oila monogam oila (grekcha monos - "bir", gamos - "nikoh") deb ataladi. Juft nikoh mustahkam nikoh bo'lib qolgan, faqat er tomonidan bekor qilinishi mumkin bo'lgan. Butun mol-mulkning ishonchli merosxo'riga ega bo'lish maqsadida ayol uchun bir nikohlilik erkak tomonidan belgilab quyilgan. Erkak xotiniga bevafoqlik huquqini saqlab qolgan. Kichik oilalar o'z jamoasidan ajralib chiqishar ekan, ko'pincha boshqa joyga ko'chib borib, ba'zan hatto o'zga jamoalarning a'zolari bilan yonma-yon o'rinishganlar. Natijada qon-qarindoshlar kollektivining kambag'allar va boylar mavjud bo'lgan sharoitda qarindoshlik oilalarni bir-biri bilan bog'lay olmay qolgan, chunki oilalar o'rtasida ham ziddiyatlar paydo bo'lgan. Qarindoshlik aloqalari terriatoriya, qo'shni aloqalari bilan almashingan. Bir joyda yashagan oilalar. Masalan, qadimgi SHarqda ular birgalikda sug'orish inshootlarini ko'rganlar. SHu tariqa qo'shni jamoa - odamlarning yangi birlashish formasi vujudga kelgan. Tarixiy adabiyotda u territorial jamoa yoki qishloq jamoasi deb ham ataladi. Barcha xalqlarda u yoki bu formadagi qishloq jamoasi mavjud bo'lgan, ekiladigan er oilalar vakt-vaqti bilan qaytadan bo'lingan. Erni qayta taqsim bo'agandan so'ng chek erlar xususiy, boshqa er-suv, o'rmonlar va shu kabilar uzoq vaqtgacha umumiy foydalaniladigan mulk bo'lib qolavergan. Qishloq jamoasida dualizm uning umumiy mulkdan xususiy mulkka o'tish formasi bilan izohlanadi.

Qo'shni jamoaning buzilishi avval boshda ekiladigan erlarda, keyinchalik esa butun erda kichik oilalar boshliqlarining xususiy mulkka o'tishlarida namoyon bo'ldi: bir xil xalqlarda (masalan, qadimgi greklarda) bu protsess davlat jamoalar sinfiy jamiyatlarda sarqit sifatida yashaganlar; bu jamoalar tarixiy taraqqiyot davomida iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga qarab, ishlab chiqarish munosabatlarining hukmronlik xarakteriga qarab o'zgara borgan.

SHarqda sug'oriladigan erlardagi dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan qishloq jamoalari juda barqaror bo'lib, uzoq yashaganlar, chunki irrigatsiya tarmog'i qurilishi va uni tartibli saqlash ishlari doimo birlikda zo'r berishni talab qilgan. Qo'shni jamoa universal bosqich bo'lib, dunyoda sinfiy jamiyatlar yaratgan barcha xalqlar shu bosqichni bosib o'tishgan. Qo'shni jamoa birinchi formatsiya oxirgi davrining boshlanishini ko'rsatadi.

Mavzu: Sinfiy jamiyat asoslarining paydo bolishi

Ajratilgan soat: 2

Mashg'ulot turi: Ma'ruza

Asosiy savollar:

Harbiy demokratiya

Jamiyatta toifalarning paydo bolishi

Davlatning vujudga kelishi

Harbiy demokratiya. Urug'chilik tuzumining buzilish davridagi siesiy ust kurmasi harbiy demokratiya deb ataladi. Urug'chilik tuzumi ravnaq topgan zamonda mavjud bo'lgan boshqarish organlari: xalq yig'ilishi, oqsoqollar kengashi, yulboshchi, lashkarboshi harbiy demokratiya davrida ham zohiran (shakllan) saqlanib qolgan, ammo ular o'z mohiyati jihatidan o'zgargan. Xalq yig'ilishida faqat 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, ya'ni harbiy yoshdagi kishilargina ishtirok qilishgan. Yig'ilishla zodagonlar boshchilik qilib, xalqni o'z idorasiga majburan buysundirganlar. Yig'ilishning qarori ularga bog'liq bo'lgan xalq zodagonlarning fikriga o'z munosabatini qichqiriq yoki qurol-yaroig'ni taqillatish bilangina bildirganlar. Bularning hammasi zodagonlar kompetentsiyasini kengaytirish hisobiga xalq yig'ilishining jamiyat hayotidagi ahamiyati pasaya borganini ko'rsatadi. Yulboshchi barcha masalalarda kengash bilan maslahatlashib turgan. U kengash a'zolarining roziligisiz bironta muhim masalani ham xal qilmagan. Oksoqollar kengashi va yulboshchi sud vazifalarini bajarganlar, sud xalq ishtirokida bo'lgan. Yulboshchi diniy e'tiqodni nazorat qilgan. Yo'lboshchi mansabiga eng boy patriarxal oila boshlig'i dastlab muayyan

bir muddatga keyinchalik umrbod saylab quyilgan. Ishlab chiqarish ko'lamini kengaya borgan sari uning tashkil etilishi va ijtimoiy tartiblar murakkablasha borgan, yangi odatlar va ijtimoiy funktsiyalar paydo bo'lgan, ularni ijro etish uchun tobora ko'proq bilimga va tajribaga ega bo'lish talab etilgan. Yulboshchida oila shunday kerakli tajribalar to'plana borgan. Ijtimoiy burchlarni bajarish iqtisodiy foyda keltira boshlagan, jamoa rahbarida o'z bilimi va tajribasini boshqalardan yashirib, ularni o'g'liga o'rgatishdan manfaatdorlik paydo bo'lgan. Ota o'lgandan so'ng jamoa yulboshchining vazifalarini ijro etishni uning bu ishda eng bilimli bo'lgan o'g'liga topshirgan. SHu tariqa ijtimoiy mansablar bir oila doirasida meros bo'lib qola boshlagan.

O'sha zamonda urushlar tez-tez bo'lib turgan. Qo'shnilarning boyliklarni talon qilish uchun, osonlik bilan va tez o'ljalari olish maqsadida urushlar olib borilgan. Ular muayyan odamlar turkumining (kategoriyasining) doimiy kasb-koriga aylangan. Tez-tez bo'ladigan urushlar vaziyatida erkin jamoa a'zolarini harbiy tashkiloti tabiiy hodisa hisoblagan, harbiy boshliqlarning roli oshgan, bu kasb jamiyat ichida faxriy rahbarlik mavqeini va boylik orttirishni ta'minlagan. Qabiladoshlarning tinchlik-xotirjamligi ularning harbiy mahoratiga bog'liq bo'lgan. Urush vaqtida ular lashkarga rahbarlik qilishgan; lashkar an'anaviy urug'-qabilaga mansublik belgisiga qarab tuzilgan. Lashkarboshining kuchli, botir, sadoqatli jangchilardan tuzilgan doimiy drujinasi bo'lgan; u ana shu jangchilar yordamida tobora ko'proq obro'ga ega bo'lgan. Bosqinlar qilgan, bunday yurishlar harbiy texnikani rivojlantirishga, qabilaning harbiy tashkiloti sifatidagi rolini oshirishga, qarindosh qabilalarning ittifoqlarini tuzishga, qishloqlarni hujumlardan himoya qilish maqsadida ularning atrofini tuproq g'ovlar urug'chilik tuzumining buzilishini, sinflar va davlatning tashkil topish protsessini tezlashtirgan. Urug'chilik tuzumining buzilish davrini kechirgan barcha xalqlarda harbiy demokratiya bo'lgan. Gomer jamiyatida, podsholik davridagi Rim tarixida, skiflarda, keltlarda, germanlar va normandlarda harbiy demokratiya klassik shaklda mavjud bo'lgan.

Sinflarning, davlatning vujudga kelishi. Sinflar va davlatning tashkil topishi haqida, ya'ni qullikning ozodligi to'g'risida, sinfiy mansublikka qaramay barcha xalqlarning tinchlik bardamligini saqlash uchun davlat barpo qilinganligi xususida turli nazariyalar bor. "Zo'rlik nazariyalar va davlat istilolar natijasida vujudga kelgan, deb hisoblaydilar. Istilochilar go'yo hukmron sinfni tashkil etgan va qul qilingan kishilarni o'z hokimiyati ostida saqlab qolish uchun davlat barpo qilgan emish. Bu nazariya ham, yuqorida ko'rsatilgan nazariyalar kabi noto'g'ridir. Istilo (tashqi omil) ichki sotsial iqtisodiy rivojlanish protsessiga tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi, lekin sinflar

va davlatning tashkil topishi uchun asos bo'lmaydi. Zo'rlik qullikdan qadimiyrokdir.

Birinchi juda katta ijtimoiy mehnat taqsimoti oqibati sifatida vujudga kelgan qullik kosibchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi bilan, savdogarlar sinfining paydo bo'lishi bilan mustahkamlana borgan. Asta-sekin qullar ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lgan huquqsiz sinfni tashkil qilishgan.

Ishlab chiqarish va (ijtimoiy) iste'mol vositalari, shuningdek qullar egalaridan iborat kuldorlar sinfi vujudga kelgan. Urug' va qabila boshliklari, lashkarboilar, koxinlar, savdogarlar kuldorlar bo'lib qolishgan. Ular kulida boyliklar tuplana borgan sayin xalqdan ajralib, urug'-qabila zodagonlarini tashkil etishgan. Urug' qabila zodagonlari eng yaxshi va katta-katta er uchastkalarini egallab olish hisobiga, shuningdek, jamoa a'zolarining, qullarning qo'shimcha maxsulotlarini o'zlashtirish, buysundirilgan qabilalardan o'lpon va xiroj to'latish hisobiga boyishgan. Qo'shimcha maxsul jamoa a'zolarining sovg'alari, qurbonliklari shaklida va to'g'ridan-to'g'ri bosib olish yuli bilan zodagonlar qo'lga tushgan. Bu ish ular uchun oson bo'lgan, chunki ular ijtimoiy mulkning qo'riqchilari hisoblangan. Lashkarboshilar harbiy o'ljalarining juda ko'p qismini tortib olib, o'z mulk-boyliklarini ko'paytira borishgan.

Jamoadi zodagonlar boyliklarining oshib borishi bilan bir qatorda, mulkiy tabaqalanish kuchaygan, kambag'allar ommasi tobora ko'paygan, ular boy odamlarga qaram bo'lib qola boshlaganlar. SHu tarika ishlab chiqarishda turlicha yrin to'dagina va jamiyatda har xil manfaatlar bo'lgan, mulkiy jihatdan farq qiladigan odamlar gruppalari tashkil topgan.

Bunday sharoitlarda eski boshqarish organlari ishlay olmagan. Ular qullar va quldorlarning, boylar va kambag'allarning manfaatlarini kelishtira olishmagan. Yangi organlar bo'lishni talab qilingan, ular urug'chilik tashkilotidan tashqarida vujudga kela boshlagan, shu organlar bilan birga davlat paydo bo'lgan.

SHunday qilib, "davlat aslo jamiyatga tashqaridan zo'rlab kiritilgan emas". Davlat jamiyat gruppalarining qarama-karshi manfaatlarini kelishtirmagan. Davlat iqtisodiy jihatdan eng qudratli va siyosiy jihatdan hukmron sinfning apparati sifatida kambag'allar bilan manfaatlarini tiyib, qisib kuygan.

Davlatning ikkinchi vazifasi (funktsiyasi) - chegaralarni qo'riqlash va kengaytirishdir. Davlatning muhim belgisi xalqdan ajralgan oshkora hokimiyatdan, shuningdek kishilarni territorial alomatga qarab birlashtirishdan iborat. Qabila aristokratiyasining yordamiga (madadiga) va shaxsiy drujinalarning kuchiga tayanuvchi oliy lashkarboshilar davlatlarga boshliq bo'lib olishgan. Bir qator joylarda erkaklarning yashirin ittifoqlari boshliqlar xokimiyatini

mustahkamolashga yordam berishgan; bu ittifoqlar shakllanatgan davlatchilik sharoitida sud-politsiya vazifalarini bajarganlar. G'arbiy Afrikadagi yashirin ittifoqlar bu jihatdan ayniqsa yakqol misol bo'la oladi: ular faqat patriarxatni qaror toptirish dastagigina emas, balki jamiyat yuqori tabaqasi qo'lida hukmronlik quroli ham bo'lishgan. Yashirin ittifoqlar har qanday norozilik urinishlarini kuch bilan bostirish maqsadida aholini diniy-sehrgarlik marosimlari yuli bilan qo'rqitib, shuningdek to'g'ridan-to'g'ri qirg'in qilib, ularning boshliqlari uchun davlat hokimiyatiga yul ochib berishgan.

Tarixiy taraqqiyot protsessining notekisligi sababli urug'chilik tuzumining emirilishi va davlatning vujudga kelishi qadimgi zamonda ham, o'rta asrlarda va yangi zamonda ham ruy bergan. Ba'zi bir relikt qabilalar hozirga qadar urug'chilik tuzumining turli bosqichlarida hozirgi vaqtgacha mavjuddir. Dastlabki sinfiy jamiyatlar eramizdan avvalgi IV ming yillik oxirida eneolit davrida qadimgi SHarkdagi Nil, Dajla va Frot daryolari vodiylarida dehqonchilik bilan shug'ullangan xalqlarda paydo bo'lgan. Eramizdan avvalgi III ming yillik o'rtalarida hind vodiysida, II ming yillikda - Egey dengizi havzasida, Kichik Osiyoda, Finikiya, Janubiy Arabistonda, Xuanxe daryosi vodiysida davlatlar vujudga kelgan; eramizdan avvalgi I ming yilligida eski va Markaziy Amerika territoriyasining katta qismida.

Mavzu: Ibtidoiy davr madaniyati.

Ajratilgan soat: 2

Mashg'ulog turi. maruza

Asosiy savollar:

Moddiy madaniyatning rivojlanishi

Tafakkur va nutq

San'at, Ibtidoiy-diniy e'tiqodlar

Ilmiy bilim kurtaklari

Tayanch iboralar:

Ibtidoiy madaniyat, moddiy va ma'naviy madaniyat, turaar joylar, kiyim-boshlar, tafakkur, nutq tillar, mavhum tafakkur, san'at, g'or devoriy rassomchiligi, qo'shiq va raqslar, ma'naviy ehtiyoj, e'tiqodlar, totemizm, fetishizm, animizm.

MAQSAD:

Insoniyatni butun ibtidoiy davrda yaratgan moddiy va ma'daniy madaniyati haqida tushuncha va bilimlar berish, tafakkur va nutqning paydo bo'lish jarayonlari va muammolarini sharhlab berish. San'at va diniy e'tiqodlarning yuzaga kelish omillari, ularning ko'rinishlari va mazmunini tushuntirish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

1. Ibtidoiy davrda yaratilgan moddiy madaniyat xillari va ularning insoniyat jamiyati taraqqiyotidagi ahamiyatini tushunib oladi

Tafakkur va nutqning paydo bo'lishini o'rganadi

San'at va diniy e'tiqodlarning kelib chiqish muammolarini anglab, olimlarning turli fikrlarini qiyoslay oladi

4. Ilmiy bilim kurtaklarini yuzaga kelish shart-sharoitlari haqidagi tushunchalarga ega bo'ladi.

ADABIYOT

E.B. Taylor. Pervobitnaya kultura M., 1989

Dj.Dj. Frezer. Zolotaya Vetr M., 1980

A.I. Pershits. Istoriya pervobitnogo obshestva M., 1974

YU. L. Ij. Proisxojdenie veshey M, 1954

M.O. Ksoven. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. Toshkent, 1960

Qadimgi dunyo tarixi - 1 qism YU.S. Krupskaya taxriri ostida Toshkent, 1974

1. Amaliy bilimlar. Odamning tabiat bilan juda og'ir kurashida mehnat qurollari murakkablasha va takomillasha borgan; bunda suyiltayoqlar va kupol tarashlangan tosh parchalaridan kamon va o'qlar, silliqlangan tosh boltalar va suyak buyumlar, metallardai foydalaiish, juda oddiy dastgohlar ixtiro qilish sari rivojlanish yuli bosib o'tilgan.

Eng sodda mexanik moslamalar: er kovlaydigan tayoq va chopqich asosida yuzaga kelgan richag-dastak va pona bo'lmay turib hozirgi texnika mavjud bo'la olmas edi. Odamlar tabiiy g'orlardan foydalanish ishlaridan turli-tuman sun'iy uy-joylar qurishga asta-sekin o'ta borishgan.

Novdalar, xodalar, pustloq, terilar, namat, keng barglar, poxol, kolish, turli hayvon suyaklari, chim, daraxt, loy, tosh, keyinroq g'isht, avval boshda quritilgan g'isht, so'ngra pishirilgan g'isht uy-joylar qurish uchun material sifatida xizmat qilgan.

Dastlabki turar joylar parda devorsiz, eshiksiz va derazasiz bo'lgan. Arxeologlar doimiy turar joylarning gulxanlar yordamida isitila boshlanishining orinyak-solyutre bosqichiga oid deb hisoblaydilar. Turar joyning tepasidan ochilgan tuynukdan yorug' ham tushib turgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, madlen davrida sun'iy yoritish paydo bo'lgan. Uy-joyni yoritish uchun pilikli tosh kosalarga yog' solib ishlatilgan. SHuningdek, qorachiroqdan foydalanilgan. Dastlab hech qanday mebel bo'lmagan, erga buyra,

terilar solib, bosh ostiga yostiq o'rniga yog'och taglik quyib uxlashgan Suri va mebel keyinroq paydo bo'lgan. Amerika indeetslari gamaklarda (osma tur belanchaqlarda) uxlaganlar.

Uy-ruzg'or buyumlari navdalardan, qayin po'stlog'idan, bambuk, kokos yong'og'i po'chog'i, qovoq yogoch, loy va teridan yasalgan. Dastavval maxsulotlar to'qima, usti loy bilan suvalgan idishlarda saqlashan, ovqat esa qizitilgan toshlar yordamida yog'och tog'orachalarda pishirilgan. Faqat keramika ixtiro qilingandan keyingina chinakam ovqat pishirish mumkin bo'lgan. Ovqat eyish vaqtida kosa, tovoq, qoshiq, pichoq va cho'plar ishlatilgan. Don maydalash - talqon qilish uchun toshdan yasalgan don yanchgichlar, yog'och o'g'irdar mavjud bo'lgan.

Ibtidoiy kiyim-boshning turlari juda xilma-xildir. Uning yuzaga kelishi va rivojlanishi iqlim sharoitlariga bog'liq bo'lgan. Hammadan aaval sovuq o'lkalarda kiyim-bosh paydo bo'lgan. Fartuk, kamar (belbog'),plash, yupka erkak va ayollarning kiyim-boshining eng qadimgi elementlari deb hisoblanadi. Engil kiyim va ishton keyinroq iaydo bo'lgan. Tabiiy sharoitlarga qarab barglardan, teri, o'simlik tolasidan va yungdan kiyimlar tikilgan. Kiyim-boshni suyak ninalar bilan tikishgan.

YOg'ochdan, pustloq-chiptadan, teridan, namat va yungdan qilipgan oyoq kiyimlari kiyim-boshga nisbatan keyinroq vujudga kelgan va hamma joyda birdan paydo bo'lavermagan.

Uy-joylar qurilishi, kiyim-bosh, oyoq kimiyi, uy-ro'zg'or anjomlari ishlab chiqarish xona kasblarining yog'och, daraxt po'stlog'i va teri ishlash, terilar tayyorlar va to'qish shaklida rivojlana borishi bilan bevosita bog'liqdir. Avval boshda qayiqlar, chana, chang'i, keyiiroq bronza asrida ixtiro etilgan g'ildirakli aravalar transport vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Inson faoliyatining barcha sohalaridagi tajribalar saqlanmay turib progressiv tarixiy taraqqiyot mumkin bo'lmagan bulur edi. Urug'ning, qabilanitng zo'r berishlari tufayli orttirilgai bilimlarpi kekxa avlod ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan ta'lim vositasi bilan yosh avlodga berib kelgan. Ilk yoshidagi bolalar kattalarning ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etilgan.

Lekin initsnatsiya vaqtida yigit va qizlarga chinakam ta'lim berilgan.

Odamlarning amaliy bilimlari maqollar va matallarda aks etgan Insonning tabiat bilan kurashida aks sadolarini xalq og'zaki ijodida (folklorda) uchratamiz. Afsonalarda, miflarda, ertaklarda qahramonlarning mardonavor ish-xarakatlari aks ettiriladi, ko'pincha urug'larning, qabilalarning kelib chiqishlari haqida, dunyoning paydo bo'lishi to'g'risida hikoya qilinadi.

Ibtidoiy jamiyatda yozuv bo'lmagan, shuning uchun afsonalar avloddan-avlodga og'zaki ko'chib yurgan.

2. Tafakkur va nutqning o'sishi

Tafakkur va nutq taraqqiy qilmay turib madaniyatning vujudga kelishi mumkin emas.

Burjua fanida arxantropalar va paleantropalar tafakkuri xususida ikkita g'ayri ilmiy kontseptsiya tarqalgan. Bu kontseptsiyalardan birining (evolyutsionist E. Teylor va G. Spenser ilgari surgan kontseptsiya} namoyandalari eng qadimgi odamlar tafakkuri bilan hozirgi jismoniy tipdagi insoni tafakkuri o'rtasidagi farqlarni e'tirof qilishmaydi. Ikkinchi (L. Levi - Bryulem) ta'rif qilgan kontseptsiyaaning izdoshlari hamma ibtidoiy odamlar tafakkurini " mantiqiy tafakkurdan oldingi". ya'ni mantiq qonunlariga buysunmaydigan tafakkur deb hisoblashadi.

Eng qadimgi odamlar qurollar yasash uchun ishlatgan materiallar (toshlar, yog'ochlar)ning xususiyatlarini bilib olgan, hayvonlarning odatlarini o'rgangan va ularni ovlay bilgan, eyiladigan va eyilmaydigan mevalarni, etildizli giyohlar va shu kabilarni bir-biridan farq qila olgan. Lekin o'sha davrda odamlar tabiat ustidan xali katta g'alaba qila olmaganlar, binobarin, ularning tafakkuri ham unga yaxshi o'smagan.

Olimlar ibtidoiy odamlar tafakkuri va nutqining taraqqiy etishidagi ikki bosqichni ajratib ko'rsatadilar. Ular birinchi bosqichnn arxantropalar va paleantropalar bilan, ikkinchi bosqichni (homo sapiens) bilan bog'laydilar. Barcha olimlar birinchi bosqichda hissiy-ko'rgazma (obrazlar) tafakkur, noaniq nutq ustun bo'lganligini hamda ikkinchi bosqichda abstrakt tafakkur va aniq nutq mavjud bo'lganligini e'tirof qiladilar.

Bir xil olimlar abstrakt tafakkur va aniq nutq kurtaklari muste davrida, neandertallarda vujudga kelgan, deb faraz qiladilar. Boshqa olimlar pitekantropalarda, sinantropalarda abstrakt tafakkur elementlari paydo bo'lgan, deb hisoblaydilar.

Keyingi paleolitga qadar nutq noaniq bo'lgan, ammo paleontropalar nutqi arxontropalar nutqiga qaragnada ancha taraqqiy etgan. Neandertallarda ko'p ma'noli va yaxlit mazmunli yangi so'z jumlar paydo bo'lgan. Eng qadimgi odamlarda esa bir bo'g'inli, turlanmaydigan va bir-biri bilan bog'lanmaydigan so'zlar mavjud bo'lgan.

Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'lanib o'sa borgan. Er yuzida gapirishni bilmaydigan bironta ham xalq yo'q, shuning uchun ham olimlar odam g'oyat katta insoniy muvaffaqiyatlardan biri bo'lgan nutqniig shu darajada o'sishiga qanday yul bilan erishganligini fahmlab, bilib olishlarigagina to'g'ri keladi.

Tilning paydo bo'lish imkoniyatini anglash uchun oziq-ovqat qidirib topish yulida cheksiz tashvish tortgan ibtidoiy odamlarimng yashagan sharoitlarini unutmasligimiz kerak. Maymun odamlar oziq-ovqat qidirib topishgan, o'zlarini

dushmanlardan birgalikda (kollektiv bo'lib) himoya qilishgan. Ana shu vaziyatda nutq o'sa borgan, chunki, mehnat protsessida odamlarning birgalikdagi ish-xarakatlari to'g'risida so'zlashib quyish, tajriba almashish zarur bo'lgan. SHuningdek, odamning tikka yurishga o'rganishi va mehnat protsessida butun organizmishshg shakllanishi bilan birga ba'zi bir organlar (hiqqildoq, o'pka, til va boshqalar)ning alohida jismoniy tuzilishi nutq o'sishining zaruriy shartidir. Xilma-xil tovushlar chiqara oladigan organlarga ega bo'lgan odam har holda nutq yaratish darajasiga tezda eta olmagan. Nutq avval boshdanoq tovush nutqi, noaniq nutq bo'lgan.

Dastlab odam, boshqa hayvonlar kabi, uzuq-uzuq qichkiriqdan foydalangan. Deyarli har bir hayvon mutlaqo ixtiyoriy ravishda qandaydir tovushlar chiqara oladi. Biz hatto hayvonlarni tovushlariga qarab ajrata olamiz va ularni tovush chiqarishga majbur etadigan sabablarni farq qilamiz. Xursandlik, og'riq yoki qo'rqish bilan bog'liq bo'lgan shu kabi qichkiriqlar odam qo'kragidan beixtiyor chiqib, atrofdagi odamlarga o'z sherigining qanday ahvolga tushib qolganini bildirgan. Bir xildagi yashash sharoitlari boshqa kishilarning eshitib qolgan qichqiriq sababini deyarli xatosiz aniqlashlariga imkon bergan. CHunonchi, ma'lum tovushlarga muayyan ma'no berilgan. Odam tovush signallarini berar ekan, ular orqali ma'lum fikrni bildirgan. Imo-ishora tovush nutqida yordamchi element bo'lgan.

Odam nutqi eng boshdanoq hayvonlar tovushlaridan shu bilan farq qilganki, kishi yumshoq nutq organlari yordamida ko'pgina xilma-xil tovush birikmalarini talaffuz eta olgan va ularni tovushlarning yaxlit gruppalariga qo'sha olgan, bularni biz so'zlar deb ataymiz.

Til sekin taraqqiy qilgan. U doim kishilarning aloqa va tajriba olishish quroli bo'lib kelgan. Tilda odam hamisha munosabatda bo'lib turgan buyumlarning belgilari ifodalangan Vaziyat xilma-xillasha borgan sayin til yanada boyigan. Ibtidoiy tilda nomlar buyumlarning o'ziga qaraganda ko'proq bo'lgan, chunki har bir odamda o'z tovushlar birikmasi assotsiatsiya qilingan. Nomlar kelishish asosida berilmagan.

SHuning orqasida nutq o'sishining ilk bosqichlarida sinonimlar bo'lgan. Ibtidoiy so'zlar turdosh nomlardan ko'ra ko'proq atoqli otlar bo'lgan.

Hislarni, munosabatlarni, ish-xarakatlarni ifodalash uchun so'zlar bo'lmagan. Bularning hammasi emotsional qichqiriqlar va harakatlar bilan ifodalangan. Keyinroq odam o'z hislari va fikrlarini ifodalash uchun tildan foydalanish imkoniyatini topgan. Til tom ma'nosi bilan fikr quroli bo'lib qolgan. Til bo'lmay turib odamlar hozirgi vaqtda insoniyat ega bo'lgan narsalarga erisha olmagan bulur edilar. Keksa avlod o'z ota-bobolaridan o'rganib olgan hamma narsalarini til yordamida kichik avlodga o'rgatgan va bu bilan hayot

sharoitlarini yaxshilash yulida bundan buyon olib boriladigan ishni engillashtirgan.

Tafakkur bilan mahkam bog'langan til noaniq tovush tilidan boshlab to urug'larning, keyinchalik qabilalarning aniq tillariga qadar uzoq taraqqiyot yulini o'tdi. Qabilaviy tillar o'rnini sinfiy jamiyatlarda xalqlarning tillari egalladi. Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi bilan milliy tillar paydo bo'ldi.

Neolit oxiri va metallar asrining boshlariga kelib asosiy qardosh tillar oilalari tarkib topgan:

1) hind - evropa tillari oilasiga (hind tili, eroniy til, slavyan, german, roman, kelt tillari);

2) turk - mongol tillari oilasi (Markaziy Osiyo qabilalari va xalqlarining tillari, turk tillari va mongol tillari).

3) Xitoy - tibet tillari oilasi (SHarkiy Osiyo, Xitoy, Tibst, Vetnam, Birma xalqlarining tillari);

4) Somiy - hamit tillari oilasi (SHimoliy va Markaziy Afrika, Arabiston tillari);

5) Fin - ugor tillari oilasi (Vengrlar, finlar, estonlar, karellar va boshqalarning tillari).

3. San'at. Ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lgan san'at ibtidoiy jamiyatda paydo bo'lgan. U sotsial ehtiyojlardan o'sib chiqqan va odamning ishlab chiqarish bilan aloqasini aks ettirgan. Odam tasviriy faoliyatining dastlabki ko'rinishlari muste davriga oid deb hisoblanadi: La Ferrasi manzilgohida (Frantsiya) tosh taxta ustiga bir necha juft-juft qilib joylangan kosasimon chuqurchvlar topilgai; Jruchula g'orida (Gruziyada) yondosh burama kertiqli suyak paydo bo'lmagnligi topilgan; boshqa manzilgohlarda mineral bo'yoq (oxra) bo'laklari va yo'l-yo'l chiziq tushirilgan tosh parchasi topilgan.

CHinakam san'at yodgorliklari keyingi paleolitda paydo bo'lgan shu bilan birga tasviriy san'at madlen davrida ravnaq topgan. Keyingi paleolit tasviriy san'at asosan g'or rassomliuk san'ati va haykaltaroshligi shaklida gavdalandirilgan.

Xavaskorlar ko'p hollarda ayollarni tasvirlab, ularga xos belgilarni juda bo'rttirib ko'rsatishgan, bu esa ona urug'ining mavjud bo'lganligi bilan bog'liqdir, hayvonlardan mamont, ot va bug'u rasmlari ishlangan, bu tasvirlar odamlarning xo'jalik faoliyatini aks ettirgan. Hayvonlar g'orlarning devorlariga, ko'p hollarda, tabiiy kapalikda mineral buyoq (qora, oq, sariq buyoqlar bilan, suyakka o'yma naqsh bilan va onda-sonda haykalchalar shaklida tasvirlangan. Odamlar asosan mamont suyagidan, ba'zida yumshoq tosh jinslaridan ishlangan haykalchalar va ora-sira rasmlar shaklida (Frantsiyada Uch og'ayni g'orida) tasvirlangan. G'or

rassomlik san'ati yodgorliklari dastlab G'arbiy Evropada: Ispaniyada (Altamir g'ori), Frantsiyada (Fon, Lasko g'ori), keyinroq SSSRda (Uralda Kapova g'ori, 1959 y) topiladi. Haykalchalar Tereneyadan to Baykalgacha bo'lgan erlarda, masalan; Frantsiyada (Brassempun sun'iy g'ori), Avstriyada (Villendorf manzilgohi), Italiyada (Grimaldi sun'iy g'ori) topildi.

Topilgan haykalchalar (50 ga yaqin haykalcha) qatorida Dondagi (Voronej yonida) Kost tsenki I Evropada birinchi o'rinni egallaydi.

Paleolit san'ati din bilan bog'liq bo'lgan. Keyingi paleolitdan bizning davrgacha ancha ko'p sonli san'at yodgorliklari kelib etgan, ularning diniy marosimlari xarakterdaligi shubxasizdir. Nayzalar bilan shikastlantirilgan hayvonlarning g'orlar devorlaridagi tasvirlari (Ispaniya, Frantsiya) marosim raqslarini ijro qilayotgan hayvonlar qiyofasida niqoblangan odamlarning suratlari, hayvonlar (ot, ayiq va boshqalar)ning haykal shaklidagi tasvirlari ana shunday yodgorliklar jumlasidandir: haykal shaklidagi hayvonlar gavdasida nayzalar zarbalarining izlari saqlanib qolgan, ularning atrofida ko'pdan-ko'p odam oyoqlarining izlari ko'rsatilgan. Tasvirlar hayvonlar mo'ljallangan ov ob'ektidan iborat bo'lgan. Qurol bilan "sanchilgan" hayvonlar va odamlar izlarining shunday tasvirlanganligi g'orlarda sodir bo'lgan magiya (grekcha mageia - "sehrgarlik") marosimlarini ko'rsatadi: bunda bo'lishi mumkin bo'lgan o'ljani haqiqiy o'ljaga aylatirish maqsadi ko'zlangan.

G'orlarda birining nomida 10-16 yashar o'g'il bolalar va kata yoshli odam tovonlari izlarining mavjudligini u erda ruy bergan initsiatsiya bilan bog'laydilar.

Keyingi paleolit san'ati mezolit davridagi shartli tasvirga nisbatan juda realligi bilan ajralib turadi; mezolit davridan odamlar va hayvonlarning qoya toshlardagi tasvirlari etib kelgan, lekin bular kichikroq o'lchamlaridagi va umumiy manzaralar shaklidagi tasvirlardirki, paleolitda ular bo'lmagan. Xavaskor rassom bug'ular podasini tasvir etish uchun suratning oldingi qismida bug'uning rasmini, nariroqda faqat shoxlarinigina chizgan.

Neolitda ilgarigi san'at shakllari bilan bir qatorda yangi, dekorativ yunalish rivojlangan. Odamlar keramikani, qurol-yaroqni naqshlar bilan bezashgan, loydan haykalchalar yasay boshlashgan. Neolitga oid qoyatoshlardagi tasvirlar SSSRda (Onega ko'lining sharqiy sohilida va Oq dengizda) topildi.

Qo'shiqlar va raqslar ibtidoiy san'atning muhim turi bo'lgan. Ibtidoiy raqslar, ko'pincha taqlidiy raqs-o'yinlar mehnat faoliyati ritmini ifodalagan. Odatda ovga jo'nash va harbiy boshlash oldidan ijro etiladigan ovchilikka oid va harbiy raqslarda din bilan bog'lannsh ko'riladi. Raqsning vujudga kelishi madlen davriga oid deb hisoblanadi.

Raqs mehnat protsesslari ritmlaridan paydo bo'lgan qo'shiq muzikasi va instrumentar (cholg'u asboblari bilan ijro etiladigan) muzika bilan bevosita

bog'langan. Ana shu ibtidoiy san'at ikki turining chambarchas bog'langanligi shu bilan isbotlanadiki, ko'pgina qabilalar qo'shiq bilan raqsni bir so'z bilan ifodalaydilar.

Ibtidoiy qo'shiq ritmli nutqdan tashkil topgan. So'zlab kuylash (rechitativ) qo'shiqning birinchi shaklidir, kuy keyinroq yuzaga kelgan:

Ibtidoiy odamlar muzika asboblarning hamma turlarini; urma muzika asboblari, duxovoy cholg'u asboblari, torli cholg'u asboblari yaratganlar. Ularning vujudga kelishini kamon bilan (torli asboblari), shoz, bambuk bilan (duxovoy va urma cholg'u asboblari) bog'landilar. Treshchatkalar (o'zi jaranglamaydigan urma muzika asboblari va baraban-do'mbiralari) ayniqsa keng tarqalagan.

Jasur ovchilarni, botir jangchilar va shu kabilarning qahramonona ishlarini ifodalovchi raqslarga muzika jo'r bo'lgan.

4. Ibtidoiy din. Din - ijtimioy ong shakllaridan biri bo'lib, u odamlarning g'ayri tabiiy kuchlar mavjudligiga ishonishlari bilan bog'liq bo'lgan munosabatlari, ularning ish-xarakatlari va qarashlar sistemasini aks ettiradi.

Din juda qadimgi zamonda odamlarning o'z tabiati va tashqi tabiat haqidagi noaniq va mujmal, sodda tasavvurlaridan, tabiat bilan kurashda ularning iqtisodiy rivojlanish darajasining pastligi bilan bog'liq bo'lgan zaifligi - kuchsizligidan kelib chiqqan. Moddiy hayot sharoitlari, ya'ni diniy sotsial ildizlari ta'siri ostidagina inson ongida noto'g'ri dunyoqarash vujudga kelishi mumkin bo'lgan. SHuningdek, dinning pado bo'lishi uchun odamlarning tabiat tashqi kuchlari oldidagi o'jizligi ularning ongida aks etishi yoki o'z tushunchasida o'zgarishi zarur bo'lgan. Demak, inson ongi o'sib, endi unda o'z kundalik hayotida uchraydigan tabiat hodisalarining sabablarini izohlashga urinishlar paydo bo'lgan vaqtdagina dinning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan. Abstrakt tafakkur paydo bo'lishi natijasidagina ana shu darajaga erishish imkoniyati tug'ilgan.

Neandertallarda diniy tasavvurlar mavjud bo'lganmi? Diniy tasavvurlarning paydo bo'lish vaqti haqida odamlarning ko'milishiga qarab fikr yuritiladi. Neandertallarda endi o'liklarni ko'mish odati bo'lgan. Ma'lumki, neandertallarda o'liklar butun boshliq odamlar gruppasi uchun turar joy bo'lib xizmat qilgan g'orlarga ko'milgan. Ulgan odamlar noaniq shakldagi kichik-kichik chuqurlarga tizallari sal buqilgan holda, yon tomoni bilan uxlab etgan kishi holatida etkizilgan. Marxumning jasadi tuproq va toshlar bilan ko'milgan. Ayrim qabrlarda qurollar va hayvon suyaklari topilgan. Lekin arxeologlarning ko'rsatishlaricha, ular qo'shni madaniy qatlamdan kelib qolishgan. Bir xil olimlar qabrlarning mavjud bo'lganligi asosida, neandertallarda diniy tasavvurlarning kurtaklari paydo bo'lgan, deb taxmin qilishadi; boshqa olimlar

diniy tasavvur kurtakldarini din vujudga kelishdan ilgarili davrga taalluqli deb hisoblashadi. Bu masala munozarali masala bo'lib qolmoqda. Diniy e'tiqodlar haqidagi shak-shubhasiz ma'lumotlar keyingi paleolitga oiddir.

Din - sotsial-iqtisodiy munosabatlar yuzaga keltirgan ideologik ust kurma bo'lib, u tasavvurlar va urf-odatlar (ibodatlar)dan iborat. Tasavvurlar (dastlab mifologiya - afsonalar, keyin aqidalar) va urf-odatlar (diniy sehrgarlik amallari) diniy sistemani tashkil qiladi. Lekin har qanday afsona va fantaziya diniy bo'lavermaydi. Diniy afsonalar va fantaziyada g'ayri tabiiy mu'jizaviy kuchlarning real mavjudligiga ishonch bor. Dinda g'ayri tabiiy mu'jizaviy narsalar haqidagi tasavvurlar ibodat-e'tiqod bilan bog'liqdir.

Ibtidoiy din shakllaridan biri totemizm - odamlar gruppalarining biror hayvon, baliq yoki o'simlik turi bilan, ya'ni muayyan bir gruppaning "totemi" hisoblanadigan va shu nom bilan yuritiladigan gruppaning o'z totemi bilan g'ayri tabiiy qarindoshlik aloqasiga ishonishdir. Totemizm xo'jalik rivojlanishining ovchilik, terib-termachlab ovqat topish bosqichida vujudga kelgan. Ovchilik o'sha davrdagi odamlarning mashg'uloti bo'lgan, shu sababli urug'lar ko'pincha hayvonlarning nomlari bilan ataladi. Totem hayvonni tanlash ma'lum joyda u yoki bu xildagi evvoyi hayvonning seroblighi kabi moddiy sabablarga asoslangan. Masalan, Avstraliyada o'z territoriyasida kenguru ko'p bo'lgan gruppalari kenguri odamlari deb atalgan, vaholanki ularning qo'shnilari territoriyasida bu hayvon bo'lmagan. Totem hayvon hurmat qilingan (qadrlangan). Totemizmning ilk bosqichida totemni o'ldirish va uning go'shtini eyish man etilgan. Muqaddas hayvon faqat urf-odat marosimlari vaqtidagina o'ldirilgan va go'shti eyilgan. SHu tariqa taqiq vujudga kelib, diniy qatag'onlar sistemasiga aylana borgan, bunday qatag'onlar hozirgi zamon dinlarda hanuzgacha saqlanib qolgan. Masalan, xristianlikda ro'za kunlari go'sht-sutli ovqat eyish mumkin emas. Keyinchalik totem-hayvonning ayrim organlari yuragi, jigari va shu kabilarnigina eyish taqiqlanadigan bo'ladi. Taqiq urug' jamoasining xo'jalik, sotsial va madaniy hayotini reglamentga solgan (muayyan tartib va qonun-qoidalariga buysundirgan). Taqiq burch va huquqni ifodalovchi bir forma bo'lgan. Totem gruppalar totem - hayvonlarni ko'plab qirishni taqiqlab, ularning ko'payishi uchun g'amxo'rlik qilishgan. Ularnin sharafiga bayramlar o'tkazilib, bunda odamlar totemga taqlid qilishga, totem - havon terisini yopinib yurishgan.

Totemizm sarqitlari ko'pgina xalqlarda yaqin vaqtlargacha saqlanib qolgan. Avstraliyaliklarning dini klassik totemizm namunasidir. SHimoliy Amerika indeetslarining totemistik e'tiqodlari to'liq tasvirlangan.

Ibtidoiy jamiyatda totemizm bilan bir vaqtda ingliz olimi E. Talor tomonidan fanga kiritilgan anemizm (lotincha anilma, animus -"ruh", "jon")

termini bilan atalgan boshqa din formasi bo'lgan, anemizim - dunyoda ruhlar jonlar shaklidagi g'ayri tabiiy kuchlarning mavjudligiga ishonishdir.

Animizmning ilk bosqichida tanadan ajraladigan va mustaqil yashaydigan jon haqida alohida tasavvur bo'lmagan. Boshlang'ich holatdagi anemizimning o'ziga xos xususiyati - tabiatning ruhlanganligi haqidagi darajalarga ajralmagan (differentiatsiya qilinmagan) tasavvurdir. Eng oldin jon nafas olish bilan tenglashtirilgan va hayotning gavgdalanishi deb hisoblangan. Nafas olish to'xtalishi, ya'ni jonning ketishi bilan hayot jisman va ruhan to'xtagan. So'ngra jonlarning mustaqil tarzda yashashi to'g'risida, ularning ko'chishi haqida tasavvur hosil bo'lib, rivojlana borgan. O'lim faqat odamning jismoniy yashashining to'xtalishi deb hisoblangan.

Jon go'yo yashashini davom ettirgan. Jonlar tabiatni egallaydigan tanasiz ruhlarga aylanadi. Ular uchun to'planadigan joylar - fetishlar (portugalcha - fetico "yasalgan") yaratila boshlangan. Tabiiy holatdagi narsalar (toshlar) ham fetishlar bo'lgan.

Ibtidoiy dinning shakli bo'lgan "fetishizm" tushunchasini frantsuz olimi SH. de Bross XVIII asrda ilmiy adabiyotga kiritgan. Fetishizm - jonsiz moddiy narsalarga topishishdir, ular g'ayri tabiiy mu'jizaviy xususiyatga ega deb bilishgan. SHuning uchun ham odamlar, ayrim predmetlarni uzlarini balo va ofatlardan saqlaydi deb, yonlariga olib yurishgan.

Odam tushunilmaydigan hodisalarga doimo duch kelib, ularni ruhlarning ish-amallariga nisbat berar ekan, ular bilan totuv yashashga, ularni o'z tomoniga og'dirib oligan va o'ziga moyil qilishga intilgan.

Odamlar ovqatlanishga kirishar ekanlar, o'zlarining tasavvurlariga ko'ra, go'yo xuddi kishilardagidek xoxish-istaklarga ega bo'lgan ruhlarga ovqat berishgan. Ovqat tayin bir joyga tashlab ketilgan, keyinroq esa muayyan o'rindagi kosaga yoki tarelkaga solib quyiladigan bo'lgan. Qoldirilgan ovqat nazr-niyoz qurbon deb, uni ruhlarga in'om qilish - kurbonlik qilish deb atalgan. Dastavval odam o'zi nima eydigan bo'lsa, o'shaning bir qismini ruhlarga qurbon qilib kelgan. Ibtidoiy odam hamma ruhlarga birdek munosabatda bo'lmagan: bir xil ruhlardan qo'rqqan, boshqalaridan hayiqmagan.

Qadimgi odamning hatto ba'zan o'zini quvontiradigan, ba'zan dahshatga soladigan so'zining kuchi ham o'ziga sirli bo'lib ko'ringan. SHuning uchun u ruhlarga murojaat qilar ekan, so'z vositasida ularni hamma ishda o'ziga yordam ko'rsatishga majbur etishga uringan.

Ruhlarga qarata murojaatlar o'tinish - yolvorishlar deb ataladi. Keyinroq yolvorishlardan duo xudoga iltimos bilan murojaat qilish paydo bo'lgan. Hayot va kasallikning har turli hollariga doir yolvorishlar uchun zarur bo'lgan barcha tafsilotlarni bilish oson bo'lmagan, shu sababdan bu ishni yaxshi

biladigan maxsus odamlar - duoxonlar, jodugar-sehrgarlar, azayimxonlar, shomonlar paydo bo'lgan. Sibir xalqlarida va Amerika indeetslaida shomonlik va azayimxonlik keng yoyilgan.

Oxiratga (narigi dunyodagi hayotga) ishonish va ota-bobolar ruhiga sig'inish anemizmi bilan bog'liqdir. Mozorlarda topilayotgan, ibtidoiy odamlarning tasavvurlariga ko'ra, narigi dunyoda marxumga zarur bo'ladigan mehnat qurollari, qurol-aslaxa, zeb-ziynatlar, ovqat qoldiqlari ana shu bog'lanishdan dalolat beradi.

Murdalarni qon va olov ramzi bo'lgan qizil rangga buyashgan. Dastlab o'liklardan qo'rqishgan; murdalarning tirik odamlarga zarar etkazishlariga imkon bermaslik uchun ularni bog'lab quyishgan. Keyinroq marxumlarni urug'-aymoqlarining ajdodlari deb hisoblana boshlagan.

Matriarxat hukmronligi davrida ayol urug'ning bosh onasi birinchi o'ringa ko'tariladi. Patriarxat davrida, urug' boshlig'i o'z farmonlarida marhum ajdodlarining xohish irodasini dalil qilib keltiradigan zamonda ota-bobolar guruhiga sig'inish ravnaq topgan.

Dehqonchilik va chorvachilik rivojlana borishi bilan tabiatga sig'inish e'tiqodlari vujudga kelgan. Odamlarning dahshatli tabiatdan qo'rqishi uni qandaydir rahmdil qilish istagini tug'dirgan. Odamlar quyoshga, erga, suvga, o'tga topina boshlaganlar.

Ibtidoiy odamlarda totemizm va anemizmdan tashqari, sehrgarlik - odamning o'zini g'ayni tabiiy kuchlarga ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga ishonishiga asoslangan ish-ammallari bo'lgan. Sehrgarlik ibtidoiy odamlar hayotining hamma tomonlariga katta ta'sir ko'rsatgan. U hatto tasviriy san'atni ham o'ziga xizmat qildirgan. Keyingi paleolit davriga oid bo'lgan nayzalar, garpunlar sanchib chralangan hayvonlarning tavirlari buning dalilidir. YUqori paleolit davrining odamlari e'tiqodiga ko'ra, bunday tasvirlar ovning muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam berishi kerak edi. Sehrgarlik sarqitlari o'z taraqqiyotida orqada qolgan qabila va xalqlarning dinlarida hanuzgacha saqlanib qolgan. Eng qadimgi sehrgarlik amallari kollektiv tusda bo'lgan va ishlab chiqarish protsessini gavdalantirgan. Keyinchalik sehrgarlik amallari shomon, kohinlar tomonidan monopoliya qilib olingan va g'ayri tabiiy olamga ta'sir etishning nozikroq vositasiga aylana borgan, ularning ishlab chiqarish bilan aloqasi tobora tumanlashgan. Sehrgarlik amallari foyda topish uchun ham, zarar etkazish uchun ham qo'llanilgan. Xavf-xatarlardan saqlanish uchun va foyda ko'rish (ovda muvaffaqiyatga erishish) uchun sehrgarlikda ayniqsa ko'p foydalanilgan. Urug'chilik tuzumining emirilish davrida yulboshchilarga va tabiatning turli kuchlariga e'tiqodlar har bir xalqda xudolarga e'tiqodlarga aylangan. Xudolarga bo'lgan e'tiqodlarni maxsus kishilar kohinlar ado etganlar.

Ibtidoiy diniy e'tiqodlarning barcha formalari o'z urf-odatlarini va marosimlarini, e'tiqodga xos taqiqlashlari bilan odamning tashqi tabiat tomonidan saqlanligini mustahkamlab borgan, odamlarning tabiat kuchlariga qarshi kurashdan chalg'itgan, shu bilan chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Odamlar diniy urf - odatlarni bajarishga ko'p vaqt sarflashgan, real, dunyoviy talab-ehtiyojlardan chalg'ib qolishgan. Diniy xurofotlar odamlarning tashabbusini siqib-bo'g'ib qo'ygan, ularni aql-idrok ovozigacha ko'pincha e'tibor bermaydigan qilib, chang'itib qo'ygan.

5. Ilmiy bilimlar va yozuvning kurtaklari

Odam mehnat protsessida atrofidagi tabiati kuzatishlar natijasida bilimlar orttirib borgan. Biz ibtidoiy odamlar bilimlarining darajasi haqida faqat etnografik ma'lumotlar asosidagina fikr yurita olamiz.

O'z joyini bilgan, qabila va hatto qo'shni qabila territoriyasining relef kartalarini qumga, yog'ochga, po'stloqqa, teriga chiza olgan ibtidoiy odamlarning geografik bilimlari yaxshi ayondir; ba'zida sayohatchilar shu kartalardan foydalanishgan.

Ovchilik hayvonlarning qo'lga o'rgatilishi, eyiladigan o'simliklarni, mevalarni yig'ib-yig'ib olish botanika va zoologik sohasidagi boshlang'ich bilimlardan darak beradi; odamlar shu o'simlik va mevalarning ta'm-maza sifatleri va davolash xossalarini bilib olishni juda barvaqt o'rganishgan.

O'simliklarga xos davolash xususiyatlarining kashf etilishidan ibtidoiy meditsinada poroshok (kukun)lar, zaharlar, malham va boshqalar tayyorlash uchun foydalanilgan. Mezolit davridan e'tiboran shikastlangan qo'l va oyoqlarni xirurgiya yo'li bilan kesib tashlash (amputatsiya qilish) usuli qo'llanila boshlangan. Davolashning jismoniy vositalari: massaj, silash, uqalash, qon olish, sovuq va issiq kompress qo'llanilgan. Faqat o'simlik dorilardangina emas, balki hayvonot maxsulotlaridan tayyorlanadigan va mineral dori-darmondan ham foydalanilgan.

Oddiy meditsinada faqat tajribaga asoslangan. Ibtidoiy odamlar kasalliklarning sabablarini, kishi organizmining tuzilishi va faoliyatini bilishmagan. Davolash sehrgarlik bilan chirmashib ketgan.

Ibtidoiy odamlarda sanash eng boshlang'ich holatda bo'lgan. Odatda uchgacha ba'zan beshgacha sanashgan. $2+2+1=5$ Ko'pgina xalqlarda bosh raqami "qo'l"ni bildiradi (ruscha "pyat" nomi "zanyaste") so'zi bilan hamohang, rimcha V qo'l panjarasining soddalashtirilgan tasvirini eslatadi.

YOzuvning eng dastlabki shakli urug'chilik tuzumining oxirida paydo bo'lgan. U piktografiya (latince pictus - "roami solingan", grekcha grappo - "yozaman") deb atalgan va teriga, po'stloqqa, yog'ochga, suyakka va toshga solingan shartli rasmlardan iborat bo'lgan.

Piktografiya SHimoliy Amerika indeetslarida ayniqsa keng tarqalgan. Keyinchalik mana shu yozuv turidan ieroglif yozuvi paydo bo'lib, rivojlana borgan. Piktografiya ilgari tovush signallari va tovushsiz signallar tili mavjud bo'lgan. Do'mbira zarbalari tovush signallariga taalluqlidir. Tugunli bog'ichlar, daraxtlar va boshqa buyumlardagi alomatlar, daraxtlarning ma'lum bir tomonga egilgan novdalari tovushsiz signallar hisoblangan.

Ixtiro etilgan yozuv bilan buyum-narsalar, ish-xarakatlar, voqealar to'g'risida gapirilgan. YOzuv fikrlarni ifodalash va og'zaki til vositasi bo'lgan. YOzuv tillari yozuvsiz tillarga qaraganda kamroqdir.

Ibtidoiy jamiyat dunyodagi barcha xalqlar uchun umumiy bo'lgan tarixiy rivojlanish protsesslarini qamrab oladi. YUz minglarcha yillar davomida odamlar gala-gala bo'lib, ya'ni umumiy birgalikda yashaganlar, bunday hayotda sotsial munosabatlar borgan sayin mustahkamlana borgan. Gala, garchi hayvonot olami bilan hali tamomila aloqani uzmagani bo'lsa ham, insoniyat jamiyati tashkilotining birinchi formasi bo'lgan. Bu - odamlar kollektivi bo'lib, unda sotsial aloqalar etakchi rol o'ynagan. Odamlar tabiat kuchlari bilan shiddatli kurashda taraqqiyot yulidan asta-sekin siljib borishgan. Ibtidoiy odamlar mehnat uchun kerakli tosh va suyak qurollarni tobora takomillashtirib, atrofdagi muhitni qadam-baqadam buysundirganlar, ayni zamonda ularning o'z tabiati ham o'zgara borgan. Qariyb 40 ming yil ilgari insoniyat jamiyatida katta sifat o'zgarishi yuz bergan: hozirgi zamon jismoniy tipidagi odam paydo bo'lgan, odamlarning hayvonot dunyosidan ajralib chiqish protsessida tugallangan, uch asosiy irq tarkib topgan, san'at va din vujudga kelgan. Gala negizidan urug' jamoasi tashkil topgan. Jinsiy munosabatlar o'zgarishlarga uchragan: promesskuntetdan gruppaviy nikohning turli formalariga o'ta borilgan, so'ngra bu formalar juft oilaga o'rin bo'shatib bergan. ishlab chiqaruvchi xo'jalik bu formalari va urug'chilik demokratiyasining rivojlanishi urug'chilik tuzumining ravnaq topgan davriga oiddir.

Mehnat uchun kerakli qurollarning keng yoyilishi bilan, plugdan foydalanib qilinadigan dehqonchilikning, chorvachilik va ixtisoslashtirilgan maxsuldor baliq ovlashning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlarning tobora o'sa borishi natijasida matriarxat o'rnini patriarxat egallagan. Patriarxatning tashkil topishi urug'chilik tuzumi buzilishining boshlanishi bo'lgan. O'sha zamonga kelib xususiy mulk, dastlab faqat boshqa qabilalarga mansub bo'lgan odamlarni qul qilish (harbiy asirlar) shaklidagi, keyinroq esa boshqa qabiladosh odamlarni qul qilish (qarzini to'lay olmaydigan qarzdorlar) shaklidagi qullik paydo bo'lgan. Patriarxat qaror topishi bilan patriarxal oila yuzaga kelgan (qullar uning tarkibiy bir qismi bo'lgan), urug'chilik tuzumining emirilish davrida bu oila o'rnini monogam oila egallagan.

YAkka xo'jalik rivojlanishi bilan territorial aloqalari qon-qarindoshlik aloqalarini siqib chiqargan qo'shni jamoa vujudga keladi, yangi tashkil topgan ijtimoiy sinflarning to'qnashuvi natijasdi sifatida davlat vujudga kelgan. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari notekis rivojlanganligi sababli, Er yuzining har xil oblastlarida turli vaqtda, ibtidoiy jamiyat o'rnini sinfiy jamiyat oladi jismoniy tipidagi odam paydo bo'lgan, odamlarning hayvonot dunyosidan ajralib chiqish protsessida tugallangan, uch asosiy irq tarkib topgan, san'at va din vujudga kelgan. Gala negizidan urug' jamoasi tashkil topgan. Jinsiy munosabatlar o'zgarishlarga uchragan: promesskuntetdan gruppaviy nikohning turli formalariga o'ta borilgan, so'ngra bu formalar juft oilaga o'rin bo'shatib bergan. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik bu formolari va urug'chilik demokratiyasining rivojlanishi urug'chilik tuzumining ravnaq topgan davriga oiddir.

Mavzu: TILLAR VA ETNOSLAR.

Ajratilgan soat: 2

Mashg'ulot turi: ma'ruza

Asosiy savollar:

1. Etnik belgilar va etnosni shakllantiruvchi omillar.
2. Tilshunoslik tadqiqotlari va jahon tillari

TAYANCH IBORALAR:

Etnos, etnogenez, til birligi, madaniyat birligi, etnik (milliy) o'z-o'zini anglash birligi. Lingvistik, morfologik, genealogik farqlash, til oilasi, til shaxobchasi, til gruppasi

MAQSAD:

Etnos ajdodlari haqida tushuncha berish, etnogenezni boshlanish davri masalasini yoritish, etnik birlik bo'lib shakllanish davrni izohlash, etnik belgilar va etnosni shakllantiruvchi omillarni tushuntirish.

Til va tilshunoslikka umumiy tavsif berish, lingvistik tadqiqotlar usullarini tushuntirish, jahon tillarini til oilalari asosida ajratilishini tushuntirish, milliy ong va o'zlikni anglashga tilning ahamiyatini baholash.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

- 1.1. Etnos ajdodlari haqida tushuncha oladi.
- 1.2. Etnogenezning boshlanishi davri masalasi muammolarini aniqlaydi.
- 1.3. Etnik birlik bo'lib shakllanish davri bosqichlariga ta'rif beradi.
- 1.4. Etnosni shakllantiruvchi omillarni aniqlaydi.
- 2.1. Til va tilshunoslikka umumiy tavsif bera oladi.
- 2.2. Lingvistik tadqiqotlar usullarini ta'riflay oladi.
- 2.3. Markaziy Osiyo xalqlari tillarini jahon tillari ichida tutgan o'rnini ko'rsatadi.
- 2.4. Milliy ong va o'zlikni anglashda tilning ahamiyatini baholaydi.

Etnos insoniyat jamiyati taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida paydo bo'ladi. Uning boshlanish nuqtasi qadim davrda yashagan etnosning "ajdodlari"ga borib taqaladi. Etnograflar u yoki bu xalqning fizionomik, til va etnik ajdodlarini bir-biridan farqlash lozimligi uqtirishadi. Agar ma'lum xalqning fakatgina fizionomik (yuz tuzilishiga qarab) ajdodi axtarilsa va uning uchun paleoantropologik materiallar etarli bo'lsa, u holatda ularni axtarib, insoniyat tarixining eng qadimgi bosqichlariga tushish mumkin. Biroq, topilgan fizionomik ajdodlari u yoki bu xalq etnogeneziga bevosita aloqador deb qarab bo'lmaydi.

Til ajdodlarni axtarishda u yoki bu xalqlarning ajdodlarini tiliga qarab axtarish muvaffakiyatsizlikka uchrashi aniq. Zero, insoniyat tarixining ilk bosqichlarida ko'pchilik etnik birliklarni tili shakllanib ulgurmagan.

SHuni ham ta'kidlash joizki, etnos biologik emas, balki ijtimoiy hodisa bo'lib, u insoniyat taraqqiyotining ma'lum bir natijasidir. Etnosning shakllanish davrida ham, keyinchalik ham qandaydir tarixiy sabablarga ko'ra uning tarkibiga yangi komponentlar kiradi. Ko'p komponentli bo'lmagan xalq yo'q. O'zbek xalqining shakllanishi bunga yorqin namunadir. O'zining shakllanish jarayonini boshlagan davrdan to bu jarayon yakunlangunicha bo'lgan davrda xalq o'z tarkibiga ko'plab qadimgi xalqlar ajdodlari va kirib kelgan ko'plab qabilalar guruhlarini oladi.

Etnik birliklarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, xalqning xalqqa aylanishi yaxlit umumtarixiy jarayon bo'lib, u qadim davrdan boshlanib, hozirgacha ham davom etmokda. Etnos tarixidagi muhim bosqichlardan biri -etnik birlik shakllanish jarayonining yakunlanishidir. Etnograflar etnogenetik tadqiqotlar olib borar ekanlar, tarixni ikki davrga bo'ladilar: Etnogenez - bu davrda xalq shakllanmagan davri Etnik tarix - xalq shakllangan davri.

Xalq shakllangandan keyin, uning tarkibiga kirgan komponentlar uni to'la-to'kis shakllanish jarayoniga u qadar sezilarli ta'sir qilmaydi. Masalan,

o'zbek xalqining shakllanish jarayoni IX-XP asrlarga kelib yakunlanganidan keyin ham uning tarkibiga yangi komponentlar kelib qo'shilgan, ya'ni turkiy qabilalar kelib o'rtnashgan.

Biror-bir xalqning etnik tarixini o'rganishda uning etnik belgilari va etnosni shakllantiruvchi omillarni to'g'ri aniqlash lozim. Etnosning asosiy belgilari: til birligi, madaniyat birligi, etnik (milliy) o'z o'zini anglash birligi va boshqalar. Arxeolog V.F.Gening yozishicha, etnik belgilar etnosni shakllantiruvchi omillardan farqli ravishda aniq etnik mazmunga ega. Etnosni shakllantiruvchi omillarga Gening ob'ektiv omillarni - hudud birligi, ijtimoiy-iqtisodiy struktura yaxlitligini kiritadi. Bular uning fikricha etnik munosabatlar va etnik o'z-o'zini anglashni yuzaga keltiradi.

Etnik birlikning shakllanishida til muhim shart hisoblanadi. Ayrim etnograflar tilni etnosni shakllantiruvchi omil deb bilsalar, boshqalar tilni etnosni shakllantiruvchi omil deb hisoblamaydilar.

Etnik belgilar ichida etnik o'z-o'zini anglashga alohida e'tibor beriladi. V.Movrodin fikricha, xalqni 2 narsa belgilaydi: til birligi va shu tilda gaplashuvchi xalqlarning o'z-o'zini anglash birligi.

Til odamlar o'rtasida muhim aloqa vositasi bo'lishi bilan bir vaqtda, xalqning asrlar davomida shakllanib kelgan madaniyati darajasini aks ettiruvchi, ifoda etuvchi muhim omillardan biridir. Tilshunoslik tilning barcha jihatlarini; kelib chiqish, shakllanishi va boshqa jarayonlarini o'rganuvchi sohadir. SHu bilan birga tilshunoslik xalqlarning kelib chiqishi, etnik tarixini o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar etnik tarixini, yana ham aniqrog'i etnogenez-etnosning kelib chiqishini o'rganishda tilga muhim omil sifatida yondashadilar. Etnosning shakllanishida va ularni farqlashda til asosiy rol uynaydi. Til til birligiga qarab ayrim xalq va elatlar aniqlanibgina qolmay, ko'pincha til asosida nom ham beriladi. Lingvistik (tilshunoslik) tavsif tarixiy qiyosiy o'rganish orqali aniqlandi. Odatda kelib chiqishi bir bo'lgan xalqlarda til yaqinligi bo'ladi. Etnograflar va etnologlar tilga etnogenezni o'rganishdagi muhim omil sifatida yondashgan holda etnogenetik tadqiqotlarda uni morfologik (so'z tuzilishi) va genealogik (genetik - kelib chiqishi) yaqinligi jihatlari asosida farqlaydilar.

Tillarni morfologik yaqinligi asosida farqlash tarkibiy (qiyosiy - solishtirish) metodi asosida ajratish, ya'ni tillarning kelib chiqishidagi morfologik jihatlari (tuzilishi) asosida yagona tizimga (sistema) solishdir.

Tillarni genetik (kelib chiqishini) yaqinligi asosida farqlash (ajratish) tarixiy -qiyosiy metod asosida, tillarning kelib chiqishi va umumiy tomonlarini e'tiborga olgan holda bir biriga qardosh bo'lgan tillarni o'rganishdir. Tillarni genealogik yaqinligi asosida farqlash etnogenezini o'rganishda muhim

ahamiyat kasb etadi. Chunki bir-biriga qardosh tilda so'zlashuvchi etnoslar, bu etnoslarning qadimda bir-biri bilan qardosh xalqlar bo'lganligi tillarning qardoshlik aloqalarini o'rganishga yordam beradi. Bu esa shu tilda so'zlashuvchi etnoslarning o'zaro tarixiy yaqinligi darajasini va o'z navbatida ularning qon-qarindoshlik aloqalarini, munosabatlarini tiklashga imkon beradi.

Tilning qon-qarindoshlik aloqalari quyidagi reja asosida qurilgan. "Til oilasi - til shaxobchasi- til gruppasi-alohida til" . Til - ijtimoiy tarixiy tushunchadir. Shu sababli til oilasi tushunchasida ona(til) va bola (til) tushunchasi munosabatlarini aks ettirmaydi. Til oilasi ijtimoiy xarakter asosida belgilanib bir oilaga kiruvchi tillar bir-biri bilan asosan kelib chiqishi va rivojlanishi orqali aloqadordirlar.

Tilning qardoshligi uning asosiy lug'at fondi va gramatik tuzilishi asosida aniqlandi. Albatta tildagi ba'zi so'zlar bir-biri bilan yaqin muloqotda bo'lgan boshqa tillardan olingan bo'lishi hollari ham ko'plab uchrab turadi. Ammo qardosh tillardagi asosiy lug'at fondining bir-biriga o'xshashligi ularning kelib chiqishi yagona ildizga ega ekanligidan dalolat beradi.

Tilshunoslar bir-biriga qardosh bo'lmagan tillardagi so'zlarning o'xshashligini o'rganar ekanlar ikki asosiy holatni ajratib ko'rsatadilar.

A. 1-holat substrat bilan bog'liq, ya'ni hududga yangi kelgan etnos, o'zidan oldingi mahalliy aholining tilidan ba'zi so'zlarni oladi yoki aksincha superstrat-mahalliy aholi kelgindi aholining ba'zi so'zlarini o'zlashtiradi.

B. 2-holat "tillar ittifoqi" ning ta'siri. Aholi, ya'ni alohida olingan, geografik jihatdan bir butun hududni tashkil etgan o'lkada bir-biri bilan bog'liqdir. Bunday "ittifoq"larning orasidagi til o'xshashligi mustahkam ildizga ega bo'lmay, bu tillarning alohida bo'g'inlariga o'z ta'sirini ko'rsatib, mazkur tilning fonetik, gramatik va leksik tuzilishini o'zgartira olmaydi.

Tilshunoslar dunyodagi mavjud eng katta til oilalari va guruhlarini quyidagi tartibda ajratadilar: Hind-evropa oilasi, eng katta guruhlar- german, roman, hindoriy, slavyan, eroniy, Semit - hamit (Afrosiyob) oilasi: eng katta guruhlar semit, dravit; Ural-oltoy (ba'zi hollarda Ural va Oltoy (turkiy) oilalari) ; Tibet - xitoy, CHjuan - dun (tayvan) oilasi; Mon-kxmer (tayvan) oilasi; Malaya-polineziya(avstraneziya) oilasi, Dravid oilasi; Bantun oilasi, Kavkaz (yafet) oilasi, Nigero- kordofa oilasi, Paleoaziat oilasi; Eskimos - oleut oilasi; Kaysan oilasi.

Tillarning til oilasida ajratish, bir oilaga (shahobchaga, guruhga) mansub xalqlar orasida ularning tilidagi aloqalar darajasini aniqlashga yordam beradi. Ayni vaqtda xalqlarning qardoshligini o'rganish asosida bu tillar tizimi haqida ilmiy tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, etnogenezni va etnik tarixni o'rganishda lingvistik yana ham aniqrog'i etnolingvistik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etib, asosan tillarni genealogik (kelib chiqishi) asosida farqlashga tayanadi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Etnos hodisadir
 - A. biologik
 - V. ijtimoiy
 - S. siyosiy
 - D. A va V javoblari to'g'ri
 - E. To'g'ri javob yo'q
2. O'zbek xalqi etnosi :
 - A. ko'p komponentli etnos
 - V. bir komponentli etnos.Javobingizni asoslab bering.
3. Etnik birliklarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, xalkning xalqqa aylanishi _____ jarayonidir.
4. Ketma-ketlik tartibini aniqlang?
 1. etnik tarix
 2. etnogenez
 - A) 1,2
 - B) 2,1
5. Etnik birlik _____ natijasida shakllanadi?
 - A. hudud birligi
 - V. umumelat tilining shakllanishi
 - S. milliy o'zlikni anglash
 - D. Iqtisodiy aloqalarning o'sishi
 - E. V va S javoblari to'g'ri
6. V. Mavrodinning xalqni 2 narsa belgilaydi fikrini tushuntiring.
7. Ortiqchasini aniqlang: Etnik belgilar bu-
 - A. til birligi
 - V. madaniyat birligi
 - S. fiziologik belgilar
 - D. Milliy o'zlikni anglash
 1. Til va tilshunoslikka yozma ravishda ta'rif bering.
 2. Til.....
 3. Etnogenez va etnik tarixini o'rganishda lingvistik tadqiqotlar usullarining asosiysini ko'rsating.

- A. Morfologik. V. Genealogik S. A.V.
4. Tilning qon-qarindoshlik aloqalari rejasini aniqlang.
 A. Umumiy til, til oilasi, til guruhi-alohida til.
 V. til shahobchasi, til guruhi, alohida til, sheva.
 S. til oilasi, til shahobchasi, til guruhi, alohida til.
 D. Til oilasi, alohida til, laxja, sheva.
5. Bir-biriga qardosh bo'lmagan tillardagi o'xshashlik holatlarni aniqlang?
 A. Substrat bilan bog'liq. V. Tillar ittifoqi bilan bog'liq.
 S. A.V. D. Superstrat bilan bog'liqligi.
 E. A,V.D
6. Turkiy tilli Markaziy Osiyo xalqlari genealogiyasiga yozma ravishda ta'rif bering.

Mustaqil ishlash uchun topshiriklar:

1. Etnos rivojlanishining asosiy davrlarini izohlab bering.
2. Etnosni shakllantiruvchi belgilarni ta'riflab bering.
3. Jahon tillarini tasniflang.

ADABIYOTLAR:

1. Gening V.F. Etnicheskie protsessl v pervobmtnosti. Sverdlovsk, 1970
2. Masson V.M. Ekonomika i sotsialnsh stroy drevnix obshestv,- L,1976
3. Msgagan L.G.Drevnie obshestva. - L.1934

